Albatta, inklyuziv ta’limning bundan keyingi taraqqiyoti bir qator muammolarni yechish bilan bog‘liq, bular qatoriga quyidagilar kiradi: normativ-huquqiy bazani yaratish; integratsiya jarayonini ilmiy-tashkiliy ta’minlash; barcha ishtirokchilarning psixologik tayyorgarligi; integrallashgan ta’limning milliy tamoyilini yaratish va o‘quv-metodik ta’minlash[2].

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasi va aholiga ijtimoiy ko‘mak berishda yurtimizda nodavlat sektor ko‘proq ahamiyatga ega. U ko‘proq va operativ tarzda insonlarning ijtimoiy ehtiyojlariga javob beradi. Oxirgi yillarda nodavlat tashkilotlar soni doimiy ravishda o‘smoqda.

O‘zbekistonning ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari: ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash, ta’lim, bandlik sohasidagi siyosat. Shu jumladan ijtimoiy ish-ijtimoiy tabaqalar, guruhlar va alohida fuqarolarga ijtimoiy himoya, yordam va ko‘mak berish bo‘yicha faoliyatdir.

Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ishning bir-biri bilan zich bog‘liq ekanligini aytib o‘tish kerak. Ijtimoiy ish bu ijtimoiy siyosatning amalga oshishini o‘ziga xos shaklidir. Ijtimoiy siyosat esa ijtimoiy ishning asosidir.

O‘zbekistonda ijtimoiy ishni ilgari surish bo‘yicha katta ishlar olib borilmoqda, har yili u yoki bu ijtimoiy shior ostida o‘tadi, ijtimoiy himoya yoki aholining biror kategoriyasi yili deb e’lon qilinadi. Davlat raxbarlari mavzu aktivlashtirib, ijtimoiy himoya siyosatini hayotimizda maqsadga muvofiq holda o‘tkazib, har bir yilni ajratishadi. “Inson manfaatlari yili”, “Oila yili”, “Ayollar yili”, “Sog‘lom avlod yili”, “Ona va bola yili”, “Qariyalarni qadrlash yili”, “Ijtimoiy himoya yili”, “Yoshlar yili”, “Barkamol avlod yili”, “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”, “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, “Yoshlarni qo’llab quvvatlash va aholi saolomatligini mustahkamlash yili”, “Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili”, “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”

Hozirda O‘zbekiston o‘zining demografik xususiyatlari va ko‘p yillik urf-odatlari natijasida aholisini 65-foizini bolalar va yoshlar tashkil etadigan davlat hisoblanadi. Bolalarning ijtimoiy himoyasi jarayoni bolalar va oilalarga har tomonlama yordam ko‘rsatishga chaqirilgan vazirlik va tashkilotlarning qiyin va ko‘p tarmoqli tizimi orqali amalga oshiriladi. Yurtimizda boshidanoq yordam va ko‘makka muxtoj fuqarolari kategoriyasi singari, bollarning qiziqishlarini ta’minlash ham ushbu faoliyatning asosiy mezonidir. Shu bilan bog‘liq holda, bolalarni himoya qilish dasturida ijtimoiy ishning rivojlanishi judayam zarurdir, negaki aynan shu soxa mutaxassislari bolaning butun bolalaik davridagi qiziqishlarini bildiradigan huquq va vakolatlarga ega bo‘lishlari kerak.

Ijtimoiy ish ta’lim jarayoni, har xil davlatlarning bir-biridan kuchli farq qiladigan milliy ta’lim dasturini o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy ish sohasida kadrlar tayyorlashda yagona namuna yo‘q. Lekin shunday tushuncha borki aniq bir sotsiumda qiyin vaziyatga tushib qolgan insonga maxsus bilimlarsiz malakali yordam ko‘rsatish qiyindir.

O‘zbekistonda oliy ta’limni olish ikki bosqichdan iborat: bakalavriat(4-yil) va magistratura (2-yil) tayyorlash. O‘zbekistonda ijtimoiy ishni institutlashtirish jarayoni boshlangandan so‘ng qisqa vaqt ichida ijtimoiy soxa uchun kadrlar tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi oliy ta’lim tizimi tarmoqlari universitetlarda, kolledjlarda, qayta tayyorlash maxsus kurslarda kengayish tendensiyalari kuzatilmoqda.

XX-asrning 90-yillaridan boshlab O‘zbekiston Milliy Universitetining sotsiologlar tayyorlash jaryoniga “Ijtimoiy ish” o‘quv kursi kiritildi. Uning maqsadlariga ijtimoiy ishning mazmuni, uning asosiy yo‘nalishlarini etika va tadqiqot metodlari, ular bilan bog‘liq tajribalar haqida to‘liq tushuncha berishdir.

2004 yilda Toshkent davlat Madaniyat institutida “Ijtimoiy ish” o‘quv yo‘nalishi ochilgan. Xuddi shu yili bakalavr darajasida yuqori malakali ijtimoiy ishchilar tayyorlash bo‘yicha kafedra ochildi.

2005 yil sentabrida xuddi shunday o‘quv yo‘nalishlari O‘zbekistonning ikkita Unversitetlarida ochildi-Samarqand va Farg‘ona Davlat Universitetlarida.

2006 yilda “Aholining har xil guruhlari bilan ijtimoiy ish” mutaxassisligi bo‘yicha magistraturaga qabul qilindi.

2010 yilda O‘zbekiston Milliy Universitetida “Ijtimoiy ish” yo‘nalishi bo‘yicha bakalvriat talabalarini tayyorlash boshlandi.

Bugungi kunda esa yurtimizning 15 ta OTM da ijtimoiy ish bo’yicha kadrlar tayyorlayotganligi quvonarli natijadir.

O‘quv jarayonida alohida e’tibor ijtimoiy ishning bo‘lajak mutaxassisliklarini amaliy tayyorgarligiga qaratiladi. Birinchi kursdan boshlab talaba tanishtiruv, o‘quv, ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotini o‘tashi shart edi.

To‘liq aytganda, ijtimoiy ish mutaxassisi nazariy bilim va amaliy tajribalarni olgandan so‘ng ijtimoiy soxasidagi faoliyatda tashkiliy-boshqaruv, ilmiy-pedagogik va amaliy tajriba qobilyatlariga ega bo‘lishi kerak hisoblandi.

Ijtimoiy ishni mutaxassislashtirishdagi asosiy masala, ushbu sohaning xalqaro talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash uchun munosib shart sharoitlar yaratishdir. Bu sohadagi ta’lim tizimi nazariyoti va amaliyotdan tashkil topishi kerak. Ta’limning asosiy shartlariga muvofiq keladigan amaliy ko‘nikma va tajribalarga ega bo‘lish edi.

O‘zbekistonda ijtimoiy ishni ilgari surish bo‘yicha Milliy jamoa a’zolari tomonidan ijtimoiy ish hodimining professiogrammasi ishlab chiqildi. Uning asosiy vazifasi, ish sub’ektiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni xisobga olgan holda, professional muxim sifatlarni amalga oshirish zaruriyati bilan bog‘liq bo’lgan.

Ijtimoiy ish hodimining professiogrammasi mutaxassislarni, ijtimoiy ish va ularning faoliyati standartlari bo‘yicha yaratishda qo‘yilgan birinchi qadamdir va bu ularning ta’lim tizimi va professional o‘quv jarayonini mukammallashtirishda muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimining qaror topishi, aholi bilan ishlashda fuqarolarni samarali ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash imkonini beradigan zamonaviy metodika va texnologiyalardan keng foydalanish mamlakat ijtimoiy siyosatining eng muhim tendensiyasi hisoblanadi. Mahalliy boshqaruv organlarida, hokimliklarda xududiy ijtimoiy xizmatlar tarmog‘i tashkil etilishi va rivojlanishi, ijtimoiy ish, ijtimoiy pedagogika va amaliy psixologiya sohasida mutaxassislar tayyorlash tufayli aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish imkoniyati haqiqatga aylanmoqda.

O‘zbekiston sharoitida aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimi alohida shaxslarni, oilalarni yoki guruhlarni moslashtiriga qaratilgan ijtimoiy-insoniy faoliyatning muayyan usullari tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mamlakat aholisini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturlarini shakllantirish zarurligiga shubha yo‘q. Davlatimizning butun ijtimoiy siyosati shunga qaratilgan. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ish o‘zaro uzviy bog‘langan. Ijtimoiy ish –bu ijtimoiy ishning o‘zagi va yo‘nalishidir. Huquqiy, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning murakkab yo‘lida faoliyatning mamlakatimiz uchun yangi turini shakllantirish va ijtimoiy xodimlarni kasbga tayyorlash zarur.

“Oxirgi yillarda O‘zbekistondagi ijtimoiy-ish, ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan angliyalik olim Terri Myorfining fikricha, tez rivojlanadi va mamlakat hamda ijtimoiy xodim kasbi mintaqada faoliyatning ushbu turida o‘zining yetakchi rolidan faxrlanishi uchun barcha asosga ega”[3].

Hozirgi vaqtda respublikada ijtimoiy ximoya qilish va qo‘llab-quvvatlash faoliyati turli soha mutaxassislari sotsiologlar, psixologlar, pedagoglar, huquqshunoslar va boshqalar mutaxasislar tomonidan amalga oshiriladi. Shubhasiz, turli soha mutahassislari integratsiyasi kerakli va zarur ishdir. Biroq hozirgi mamlakat yangi ijtimoiy faoliyat institutini tashkil etish bosqichida turibdi. Bunday institutni tashkil etish uchun barcha asoslar yaratilgan. Bular: davlatning kuchli ijtimoiy siyosati, mahalliy xokimyat organlari faoliyati, turli ijtimoiy tashkilotlar faoliyati. Biroq aytib o‘tilgan agentliklar faoliyati turli-tumanligiga qaramay, ijtimoiy ishga birgina juda muhim bo‘g‘in ijtimoiy ishni nazariy asoslash etishmaydi. Yangi yo‘nalishdagi malakali mutaxassislarni, ijtimoiy xodimlarni tayyorlashni kengaytirib, ijtimoiy ishning nazariy va amaliy asoslarini kengaytirish ahamiyatlikdir.

Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 iyundagi PF-82-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyatini tashkil etish hamda ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish bo‘yicha 2023 — 2025 yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlari dasturida nazarda tutilgan bir qancha vazifalar amalga oshirilmoqda.

Jumladan aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimini tashkil etishning normativ-huquqiy bazasini shakllantirish

1. Oliy ta’lim muassasalarida “Ijtimoiy ish” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilish kvotalarini va o‘quv dasturlarini Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan kelishilgan holda qayta ko‘rib chiqish;

2. Ijtimoiy himoya milliy agentligi xodimlari uchun maxsus o‘quv kurslar va treninglarni tashkil etish;

3. “Ijtimoiy ish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish va manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishishgan holda Oliy majlis qonunchilik palatasiga kiritish;

4. Davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish standartlarini hamda ularning ijrosini monitoring qilish mezonlarini ishlab chiqish;

5. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni uyda parvarishlash bilan band bo‘lgan oila a’zolariga ko‘maklashish bo‘yicha ijtimoiy himoya mexanizmlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

6. Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikda ijtimoiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni yo‘lga qo‘yish;

7. Ijtimoiy ishchining kasbiy standartlarini qayta ko‘rib chiqish;

8. Ijtimoiy himoya xodimlarining malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil qilish ritish[4].

Aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimini tashkil etish uchun normativ-huquqiy bazani shakllantirish ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u qonunlar, hukumat qarorlari, mahalliy hokimiyat hujjatlari va xalqaro standartlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu hujjatlar ijtimoiy xizmatlarning samarali va adolatli ko‘rsatilishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy himoya Milliy agentligida ijtimoiy xodimlar turli xil ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish orqali zaif aholini qo‘llab-quvvatlashadi. Ularning vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ijtimoiy yordam va xizmatlarni tashkil etish va nazorat qilish: Xodimlar kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, qariyalar va boshqa ehtiyojmand guruhlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatishadi. Bu yordam moddiy yordam, maslahat berish va turli xil xizmatlarni tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

2. Ehtiyojlarni baholash va individual rejalashtirish: Ijtimoiy xodimlar ehtiyojmand fuqarolarning ehtiyojlarini aniqlaydi va ular uchun individual yordam rejasini ishlab chiqadi. Bu rejalashtirish turli xil muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, sog‘liqni saqlash, uy-joy, ta'lim va boshqa sohalarni qamrab oladi.

3. Konsultatsiya va psixologik yordam ko‘rsatish: Ijtimoiy xodimlar o‘z xizmatlari doirasida fuqarolarga psixologik va maslahat yordami ko‘rsatadi. Ular turli muammolar, masalan, oilaviy muammolar, zo‘ravonlik, giyohvandlik va boshqalar bilan bog‘liq maslahatlar beradi.

4. Tashkiliy va ma'muriy faoliyat: Ijtimoiy xodimlar turli hujjatlar tayyorlash, ma'lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, hisobotlar tayyorlash kabi ma'muriy vazifalarni

bajarishadi. Bu hujjatlar yordamida ular o‘z xizmatlarini yaxshilash va samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

5. Hamkorlik va kommunikatsiya: Ijtimoiy xodimlar mahalliy hokimiyat organlari, nohukumat tashkilotlari va boshqa ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashadi. Bu hamkorlik zaif aholini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

6. Jamoatchilik bilan ishlash: Xodimlar jamiyatda ijtimoiy himoya va yordam masalalari bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borishadi. Ular fuqarolarni o‘z huquqlari va mavjud imkoniyatlar haqida xabardor qiladi.

Ijtimoiy himoya Milliy agentligidagi ijtimoiy xodimlar zaif aholini qo‘llab-quvvatlash va ularning hayot sifatini yaxshilash uchun muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘z vazifalarini professional tarzda amalga oshirish orqali jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shadi[5].

REFERENCES:

1. https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/22/budget-for-2023/
2. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие / Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др.; под ред. Д.З. Ахметовой. – Казань: Изд-во «Познание» Института экономики, управления и права, 2013. – 204 с.
3. Мёрфи Т. Развитие социальной работы в Узбекистане в международном контекс/ Материалы Международного форума «Инклюзивное образование и современные тенденции в развитии форм социальной поддержки детей». 28-29 октября 2008 г.-Ташкент: Республиканский Центр социальной адаптации детей, 2008.- С.23.
4. https://lex.uz/docs/6480342
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 iyundagi PF-82-son Farmoni

O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARDA XULQIY OG‘ISHLARNI IJTIMOIY OMILLARI

Dildora Olimjonovna Axmedova
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

Diyora Botirali qizi Kaxxarova
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy ish yo’nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada bolalarning o’smirlik davrida kelib chiquvchi ijtimoiy-psixologik muammolarining sabablari, ularni o’rganish usullari, salbiy oqibatlarini oldini olish tamoyillari keltirilgan.

Kalit so’zlar: O’smirlar, giyohvandlik, zo’ravonlik, huquqbuzarlik, suitsid, stress.

ABSTRACT:

This article presents the causes of social-psychological problems of children during adolescence, methods of studying them, and principles of preventing their negative consequences.

Key words: Teens, addiction, violence, offense, suicide, stress.

Hozirgi kunda insoniyat mavjudligining muhim shartlaridan biri - bola tarbiyasi hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdanoq tarbiyaviy tadbirlar boshlab yuboriladi. Bu borada otaonalarning bolalarga nisbatan bo‘lgan munosabati ikki asosiy xususiyat, ya’ni ota-onalik muhabbati va ijtimoiy burch nuqtai nazaridan belgilanadi. Insonparvar jamiyatda bu xususiyatlar bir-biriga zid kelmaydi. Oilada sog‘lom muhitni yuksaltirish, ajdodlarimizning oila masalasidagi qadriyatlarini targ‘ib qilish maqsadida yurtimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, ularning ma’naviy olamiga e’tibor qaratilib, kelajakda yaxshi mutaxassis bo‘lishi, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi kabilar yuzasidan jamiyat hayotida yoshlarga oid ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Biroq bugun globallashuv sharoiti va bozor iqtisodiyoti davrida insonlarni farzandlariga vaqtida yetarli darajada ko’rsatilmagan e’tibor esa keyinchalik bolaning ulg’ayish davrida o’zining salbiy xarakterli xususiyatlarini namoyon qilib borishi natijasida bola xulqida salbiy tomonga og’ishlar yuzaga kelishi kuzatiladi.

Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, haqiqiy psixologik muammolar ma’lum sharoitlarda va ma’lum omillar yoki ularning kombinatsiyasi ta’sirida yuzaga keladi:

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi iclikilikbozlik, giyohvandlik, o'zini-o‘zi o‘dirishlar bilan bog‘liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko‘ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir:

Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo‘lagiga aylanib ketishidan iborat bo‘ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof- muhitdan norozilik, ishdagi tushunmovchiliklar va hokazolar, buiarning u mavjud vaziyatni o‘gartirishga urindi. Bu o'rinda ijtimoiy institutlardagi kamchiliklar, shu jumiadan, ziddiyatlar rivojlanishining oldini oluvchi va ularga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ham salbiy rol o‘ynaydi;

Ikkinchi farq, yuqoridagi holatlami hal qilishning ma’lum qiyinchiliklarga egaligidir. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni jamiyatning va atrofdagi odamlaming qat’iy nazorati ostida amalga oshadi. Insonlar bolalami faqat o‘rgatibgina qolmasdan, xulq-atvor me'yoriy talablarining to‘g‘ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajarishadi. Agar nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega boiadi va agar butun bir jamoa, oila, do4stlar, maktab, mahalla tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo‘ladi, bu holat ijtimoiy nazorat deyiladi[1].

Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo‘lib, deviant xulq-atvorining oldini olishda ham ushbu jamoalarning o‘rni katta bo'ladi. Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu - oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog4lom oila muhitning okmi beqiyosdir.

Og‘uvchi xulq (deviant, lot. deviatio - og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umume'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o‘zi a’zosi bo‘lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me’yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ulaming ijtimoiy me’yorlaridan og4ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi[2].

Jumladan 1.Noto’g’ri oilaviy munosabatlar.Zo’ravonlik, ota yoki onaning haddan tashqari tanqidi, o’z tamoyillarini murosasiz o’rnatish va uyda tez-tez janjallar.

Jamiyatimizdagi oilalarda bola tarbiyasiga e’tibor juda kuchli deb bilamiz.Bolalarga qo’llayotgan norma deb qisoblayotgan jazo choralari ularning ruhiyatiga qanchalik zarar berishini o’ylab ham ko’rmaymiz.Xatosi tufayli kaltaklash ikkinchi bor bu ishi qilmasligi uchun ma’qul chora deb bilamiz.Hali yosh bola hech nimani tushunmaydi,e’tibor bermaydi deb,kattalar orasidagi janjallar guvohiga aylantiramiz va yoshi ulg’aygan sari jizzakilik, qo’rsliklar paydo bo’lganda esa yanayam qattiq jazo choralarini qo’llashga kirishamiz.Bu biz uchun eng yaxshi tarbiya usuli bo’lib kelgan.Aslida esa bu bolalarga qilingan so’ravonlikdan boshqa narsa emasligini tushunib, o’zgartirishlar kiritsak muammolarga kamroq uchragan bo’lar edik.

2.To’liq oilada o’sgan bola tarbiyaning ma’lum jihatlarini olmagan bo’lsa, ota-onaning o’zi beqaror holatda, bolasi muddatidan oldin o’sishga majbur bo’lgan holat.

Oiladagi tushunmovchiliklar o’zaro nizo yoki qiyinchiliklar natijasida bolalar ruhiyatiga o’zgarishlar sodir bo’la boshlaydi.Bola erta ulg’ayadi.Ya’ni qaysidir ma’noda qandaydir mas’uliyatlarni o’z bo’yniga oladi.Misol uchun,shunday oilalar borki,ota

ichkilikka berilishi natijasida oilaning moddiy ahvoli ayanchli holga kelib qoladi.Bolalar esa oilani boqish, pul topish uchun turli xil sharoitlarda turli mehnat faoliyatlarini amalga oshirishganligi sababli o’zlarining bolaliklaridan erta voz kechishga majbur bo’ladilar.

3.Boshqalarning tanqidi yoki tan olinmaslik.Bu davrda inson o’zini anglay boshlaydi,dunyoda o’z o’rnini izlaydi, nimaga qodirligini va kimligini tushunadi.Biron sababga ko’ra u jamiyatda tan olinmasa, bu vaqti kelib inqirozga olib kelishi mumkin[3].

Tan olinmaslik ham eng avvalo oiladan boshlanadi. Bola bilan muloqot qilmaslik, qiziqishlarini e’tiborga olmaslik, ularning o’ziga bo’lgan ishonchni yo’qolishiga sabab bo’ladi. Natijada bola jamoada o‘z o’rnining yo’qligi tufayli tushkunlikka tushishni boshlaydi. O’z-o’ziga ishonchsizlik tufayli o’qishda, ishda va shaxsiy hayotda yutuqlarga erisha olmaydi.

Psixolog G.Stenli Xoll o’z nazariyasida o’smirlikni “bo’ron va stress” deb nomlagan[4].

XX asrlarning boshida Xoll o’smirlar psixologiyasining fundamental bilim va ko’nikmalarining kashfiyotchisi bo’ldi.Ilk bor o’smirlarning tuyg’u va kechinmalarini aniqlashga imkon beruvchi so’rovnomalarni yaratdi.Olgan ma’lumotlariga tayangan holda bolalarning 12 yoshdan 21 yoshgacha bo’lgan holatini o’smirlik deya ta’rifladi.Bundan tashqari G.S.Xoll o’smirlar xarakterida yuz beradigan o’zgarishlar xususiyatlarni ya’ni 12 ta antitezalarni tasvirlab bergan.Ular quyidagilar hisoblanadi:

1.Haddan tashqari faollik-osongina charchoq.
2.Xushchaqchaqlik-tushkunlik.
3.O’ziga ishonch-uyatchanlik va qo’rqoqlik.
4.Egoizm-altruizm.
5.Yuksak axloqiy intilishlar-tayanch motivlar.
6.Muloqotga bo’lgan ishtiyoq-izolyatsiya.
7.Ta’sirchanlik-befarqlik.
8.Jonli qiziquvchanlik-aqliy befarqlik.
9.O’qishga ishtiyoq-uni mensimaslik.
10.Narsisizm[1]-hayo.
11.Ehtiros-befarqlik.
12.Romantik kayfiyatlar-depressiya.

Xollning nazariyalarini qayta o’rganish orqali L.S.Vygotskiy yuqorida ta’kidlangan antitezalar ikki barobar ko’pligini ta’kidlashiga qaramay Xollning takliflari o’smirlik psixoogiyasining boshlang’ch shu kungacha ishlaydigan fundamental bazasi bo’lib kelmoqda.Xollning nazariyasiga qadar o’smirlikni ko’plab olimlar biologik omil

sifatida keng targ’ib qilishgan.G.S.Xollning o’zi ham o’smirlarda bo’ladigan o’zgarishlarni huddi shunday tavsiflagan[5].

Ammo yuqoridagi fikrlar hozirga kelib o’z ahamiyatini bir muncha yo’qotgan.Bolalardagi o’zgarishlarga nafaqat biologik omillar ulardagi rivojlanishga ijtimoiy va oilaviy hayot muhitining o’rni asosiy hisoblanadi.

“O’smir yoshdagi bolalarda xulqiy og’ishlarning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi omillarning ijtimoiy tahlili” mavzusida 2024-yilning mart oyida o‘tkazgan tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, bolalar psixologiyasidagi bunday o’zgarishlar ko’p hollarda oilaviy muhit va tashqi ta’sirlar natijasida yuzaga keladi. Biz esa bu vaziyatda e’tiborni yuzga kelgan muammoni hal qilishga kirishib ketamiz.Aslida salbiy holatlarni to’g’irlash bilan bir qatorda uning kelib chiqish sabablariga ham e’tibor qaratishimiz zaruz. Bu borada Respublikamizda o’smirlar o’rtasida xulqi og’ishlarni oldini olish borasida bir qancha ilmiy va amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Oilalarda bo’ladigan ajrimlar,oilaviy tarbiyada yo’l qo’yilayotgan xatolar, oilaviy tarbiyaning ta’sirga ega emasligi bolalarda jinoyatchilik xulqiga moyillikni keltirib chiqaradi.Shuning uchun ham o’smirdagi ijtimoiy moslashuvning zaiflashuvi kuzatilgan hollarda bolaning psixikasidagi o’zgarishni o’z vaqtida aniqlash va tibbiy, psixologik-pedogogik yordam ko’rsatish hisoblanadi.Tarbiya jarayonida tarbiya maqsadidan kelib chiqib, psixologiyaning shaxsni aqliy, axloqiy hamda estetik jihatdan tarkib topishi va rivojlanish qonuniyatlarini inobatga olish komil inson tarbiyalashning asosiy mezoni ekanligini unutmasligimiz zarur.

REFERENCES:

1. Olimov L.Ya. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi [Matn]: o‘quv qollanma / L.Ya. Olimov, A.M. Nazarov. - Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2020.-496 b.
2. L.Ya. Olimov, A.M. Nazarov © «Tafakkur avlodi», 2020.
3. O’smirlik davrining psixologik xususiyatlari
4. Evgen Grechanik. Psixologichni problemi podrostkov 2022-god.
5.G.Stanley Hall’s Adolescence: Brilliance and Nonsense
6. S kakimi problemami stalkivayutsya podrostki? inRing.Ru
7. Feruza Ahmedova. “O’smirlik- ulg’ayish davri” 2013yil

XAVF OSTIDA BO‘LGAN OILALAR VA BOLALAR BILAN TIBBIY VA IJTIMOIY- PSIXOLOGIK ISH

E. Ro’zimatov
O’zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti, Ijtimoiy ish kafedrasio’qituvchisi

F. Abduxalilova
Ijtimoiy ish yo’nalishi talabasi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqola xavf ostida bo‘lgan oilalar va bolalarning ehtiyojlarini qondirishda integratsiyalashgan tibbiy va ijtimoiy-psixologik tadbirlarning muhim rolini o‘rganadi. Xavf ostida qolgan oilalar va bolalardagi ijtimoiy-psixologik muammolariga barham berish strategiyalariga e'tibor qaratib, ushbu maqolada tibbiy va ijtimoiy-psixologik o‘lchovlarni hisobga olgan holda yaxlit yondashuvning muhimligini aniqlangani va empirik tadqiqotlarga nazariy asoslarga tayangan holda, ushbu maqola xavf ostida bo‘lgan oilalar va bolalarning farovonligini yaxshilashga yordam beradigan samarali amaliyotlar haqida tushuncha beradi

Kalit so‘zlar: xavf osti, integratsiya, jtimoiy-psixologik muammo, jamoatchilik, ko‘mak va chora-tadbir.

ANNOTATION:

This article explores the critical role of integrated medical and socio-psychological measures in meeting the needs of at-risk families and children. Focusing on strategies to end socio-psychological problems in at-risk families and children, this article identifies the importance of a holistic approach, taking into account medical and socio-psychological measures, and relying on theoretical foundations for empirical research, this article provides insight into effective practices that can help improve the well-being of at-risk families and children.

Keywords: risk, integration, social-psychological problem, public, support and measure.

Hozirgi kunda xavf ostida bo‘lgan oilalar va bolalar soni nisbatan ko‘payib bormoqda. Ularga bu vaziyatda ko‘maklashish, tibbiy va psixologik yordam ko‘rsa-tish uchun albatta ijtimoiy ish vakillari ko‘maklashib kelmoqdalar .

Masalan, o‘tgan 2023 –yilda “Bolalarni xavfning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasi uchun portalga

joylangan edi. Hujjat Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi hamda UNICEF hamkorligida ishlab chiqilgan. Taklif etilayotgan qonun loyihasi 5 ta bob, 49 moddadan iborat. Uni ishlab chiqishda Germaniya, Fransiya, Daniya, Singapur, BAA, Vengriya, Bolgariya, Albaniya, Filippin, Gruziya davlatlari tajribasi o‘rganildi.

Bolalarni va oilalarni xavfdan himoya qilish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar oilalar va bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi komissiyaning ishchi organidir. Qolaversa, agentlik qonun ijrosini ta’minlash bo‘yicha vakolatli organi ham hisoblanadi.Hujjat bilan bolalarga nisbatan zo‘ravonlik xavfi shakllariga tarif berilib, ularni sodir etishni taqiqlash hamda qonunga binoan ta’qib qilishning huquqiy asoslari mustahkamlash taklif etilmoqda.

Tibbiy va ijtimoiy-psixologlar ushbu zaif aholi guruhlari bilan ishlashda ularning farovonligi va chidamliligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tibbiy aralashuvlar jismoniy salomatlik muammolarini hal qilishga qaratilgan bo‘lsa, ijtimoiy-psixologik choralar shaxslar va oilalar hayotining hissiy, kognitiv va ijtimoiy jihatlariga qaratilgan. Ushbu yondashuvlarni birlashtirgan holda, mutaxas sislar xavf ostida bo‘lgan oilalar va bolalarning murakkab ehtiyojlarini qondiradigan har tomonlama va moslashtirilgan yordamni taqdim etishlari mumkin.

Ushbu maqolada xavf ostida bo‘lgan oilalar va bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarning tajribalari va istiqbollarini o‘rganish davomida tibbiy va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni integratsiyalashda qiyinchiliklar, muvaffaqiyatlar va ilg‘or tajribalar to‘g‘risida ma'lumot taqdim qilinadi.

Xavf ostida bo‘lgan oilalar va bolalar bilan tibbiy va psixologik ish ko‘rsatish haqida gaplashar ekanmiz , avvalo, xavf o‘zi nima ? degan savola oydinlik kiritib olsak. Xavf ostida qolish (huquqda) — shaxsga qarshi jinoyatlardan biri, hayoti yoki sog‘lig‘i xavf ostida qolgan va o‘zini o‘zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan shaxs.[1] Fuqaro shaxsni xavf ostida qoldirish shartli ravishda 2 ga bo‘lish mumkin:

1) fuqaro yordamiga muhtoj shaxsga yordam berishi shart va bunday imkoniyatga ega bo‘lgan hollarda. Masalan onaning o‘z bolasi haqida g‘amxo‘rlik qilish majburiyati, xizmat vazifasidan kelib chiqadigan majburiyat, qutqaruvchining majburiyati va hokozolar.

2) fuqaro yordamiga muhtoj shaxsga g‘amxo‘rlik qilishi shart bo‘lmagan, ammo u shaxsni hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli ahvolga tushirib qo‘ygan hollar. Masalan, suzishni bilmaydigan odamni suvga tashlab yuborish, avtotransport vositasi bilan bosib ketish natijasida hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli holda qoldirish xavf ostida

qoldirish natijasida shaxsni hayoti va sog‘lig‘i xavfli ahvolga tushib qolishi e’tiborga olinib, xavf ostida qoldirish jinoiy norma sifatida O‘zbekiston Respublikasi JKga kiritilgan va tegishli jazo belgilangan (117-modda).[2]

Insoniy qadriyatlar uchun eng muhim va yetakchi omillardan biri oila hisoblanadi. Inson rivojlanishiga biologik, ijtimoiy, hamda boshqa turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Lekin shaxs rivojlanishining asosiy ijtimoiy omili – oila.Oila nafaqat insonga hayot beradi, balkim u oilada birinchi qadamni tashlaydi, birinchi so‘zlarni aytadi, ijtimoiylashuvdagi dastlabki tajribalarni amalga oshiradi, bu orqali orientatsiyasi va “men”i shakllanadi, o‘z qadriyatlarini o‘rganadi.[3]

“Ijtimoiy xavf” tipologiyasi tushunchasi mavjud bo‘lib, bunga ob’ektiv yoki sub’ektiv sabablarga ko‘ra kiyin hayotiy vaziyatlarda qolgan, davlat tizimidagi ijtimoiy xizmatlar yordamiga va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar kiradi. Bunday oilalar:

- qochoqlar va turar joyidan mahrum bo‘lgan oila;
- ko‘p bolali yoki o‘z tarkibida alohida ehtiyojga muhtoj bo‘lgan a’zosi mavjud oilalar;
- o‘z tarkibida alohida ehtiyojga muhtoj bo‘lgan farzandi mavjud oilalar;
- noto‘liq oilalar;
- harbiy tez yordam tizimidagi oilalar;
- ishsiz oila;
- harbiy – pudratchilar oilalari;
- notinch hududlarda yashovchi oilalar.

Xatarli oilalar muammosi ham nazariy va ham amaliy jihatidan ijtimoiy ish ob’ekti hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda «muammoli oila» yoki «ijtimoiy xavfi oilalar» degan aniq ta’rifi yo‘q. Shuning uchun turli manbaalarda “kam ta’minlangan”, “destruktiv”, “disfunksiona” “ijtimoiy xavfli vaziyatdagi” yoki “asotsial oila” tushunchasini uchratish mumkin. Shunday qilib, pedagogik nuqtai nazaridan “muammoli oila” – past ijtimoiy statusga ega bo‘lgan, muayyan hayotiy funksiyasini bajarolmaydigan oiladir. Bunday oilalarda, bolaning ta’lim-tarbiya olishi qiyinchilik bilan amalga oshiriladi.[4]

Xavf ostidagi oila – bu farovon bo‘lmagan oila bo‘lib, unda ikki turdagi xavf mavjud. Birinchi turdagi xavf – bu jamiyat uchun tahdid soladigan xavfdir.[5] Bunday xavf turidagi oila o‘zining qadriyatlari, tartib-qoidalari, bolalar tarbiyasidagi o‘ziga xos assotsial yo‘nalishi orqali jamiyatga tahdid soladi. Ikkinchi xavf turidagi oilada oila a’zolarining, ayniqsa bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun yetarli sharoit bo‘lmaganligi natijasida ijimoiylashuv jarayoni past oilalardir.

Natijalar shuni ko’rsatadiki xavf ostida bo‘lgan oilalar va bolalar bilan ishlashda tibbiy va ijtimoiy-psixologik tadbirlarni birlashtirishning afzalliklari va muammolari haqida ma’lumotlarni bilib olish mumkin. Mutaxassislar keng qamrovli va samarali yordam ko‘rsatish uchun hamkorlik, muloqot va yaxlit baholash muhimligini ta'kidladilar. Bundan tashqari, natijalar xavf ostida bo‘lgan aholining murakkab ehtiyojlarini qondirish uchun mutaxassislarning salohiyatini oshirish uchun doimiy treninglar, qo‘llab-quvvatlash va resurslar zarurligini ta'kidladi.[6]

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola xavf ostida bo‘lgan oilalar va bolalar bilan ishlashda integratsiyalashgan tibbiy va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarning muhimligini ta'kidlaydi. Mutaxassislar ikkala fanning kuchli tomonlarini ishga solgan holda, mustahkamlikni rag‘batlantiradigan, oilalarni kuchaytirish va aholining zaif qatlamlari uchun natijalarni yaxshilash uchun seminar, treninglar sistemasini ishlab chiqishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlar integratsiyalashgan arala-shuvlarning ta'sirini o‘rganishi va xavf ostida bo‘lgan oilalar va bolalarni qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshirish uchun innovatsion strategiyalarni aniqlashi kerak.

REFERENCES:

1.Галагузова М.А Социальная педагогика. Москва: Знание, 2000.
2. Зритнева Е.И. Социология семьи. Москва: ВЛАДОС, 2006.
3. Круть С.В. Современная российская семья – проблемы и решения. Социальная работа. 2010; № 5: 4 – 7.
4. Коряковцева О.А. Технологии социальной работы с семьей и детьми. Москва: Издательство «Юрайт», 2020.
5. Кулебякин Е.В. Психология социальной работы. Владивосток: Издательство Дальневосточного университета, 2004.
6. Ладохина Л.В. Жестокое обращение с детьми и подростками в семье как острая социальная проблема. Социальная работа. 2011; № 3: 5 – 8.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILALARGA QARATILGAN IJTIMOIY SIYOSATNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

G‘ulom Xolmurodov
O‘zMU o‘qituvchisi

Aziza Muqimova
O‘zMU talabasi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada oilalarga qaratilgan ijtimoiy siyosatni o‘ziga xos xususiyatlari, oila siyosatining asosiy tamoyillari, oila inqirozi tushunchasi, uni keltirib chiqaruvchi sabablar ilmiy-nazariy jihatdan tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oila, oila siyosati, oila inqirozi, kvazi oilalar, deviatsiya, modernizatsiya paradigmasi, oila inqirozi paradigmasi.

ABSTRACT:

In this article, the characteristics of social policy aimed at families, the main principles of family policy, the concept of family crisis, and the reasons that cause it are analyzed from a scientific and theoretical point of view.

Keywords: family, family policy, family crisis, quasi-families, deviation, modernization paradigm, family crisis paradigm.

Ma’lumki, har bir davlatning o‘z ijtimoiy siyosati bo‘ladi. Bu tizim siyosatning o‘ziga xos shaklini va xususiyatini belgilaydi. XXI asr boshlarida jahon davlatchilik nazariyasida va amaliyotida qonun ustuvorligiga qat’iy rioya qilishga intilish kuzatilmoqda. Bunday tendensiya siyosatdagi yangi qirralarning, avvalo undagi ijtimoiy funksiyalarning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu ma’noda jamiyatning ijtimoiy siyosati bugungi dunyo davlatchiligidagi muhim belgilaridan biridir.

Oila masalasi davlat siyosatining markazida turibdi, chunki jamiyatdagi o‘zgarishlar bevosita oilaga ham ta’sir etadi. Bu muammolar jumladan oiladagi ajralishlar, nikohgacha bo‘lgan jinsiy aloqalar, nikohsiz tug‘ilganlar, tug‘ilish jarayonining tartibsizligi kiradi. Ota-onlarning farzand tarbiyasidagi mas’uliyatsizligi bolalar o‘rtasida jinoyatchilikning o‘sishiga olib kelyapti. Bu to‘la bo‘lmagan yo otasiz, yo onasiz oilalar yolg‘iz oilalarda tarbiyalangan bolalardan ko‘pincha jinoyatchilar chiqayotganligi kuzatilmoqda. Kvazi oilalar, nikohsiz tug‘ilganlar aslida ota-onalardagi mas’uliyatsizlik natijasida paydo bo‘lmoqda[1].

Bu oila deviatsiyasining o‘sishi, ya’ni alkogol va narkotik iste’mol qilish, oiladagi zo‘ravonlik hatto insestuoz zo‘ravonlikning mavjudligi tufaylidir.

Bunga sotsial iqtisodiy muammolarni sabab qilib ko‘rsatishadi. Bu unchalik to‘g‘ri emas, chunki uning ildizlari ancha uzoqqa borib taqaladi.

Bu muammolarning ildizi XVII-XX asrlarda dunyoda boshlangan industrlashtirish boshlanishi bilan bog‘liq. Industrlashtirish demografiksiyosatga ham ta’sir ko‘rsatdi va tug‘ilish keskin kamayib bordi. Ko‘p bolali oila yemirilishi uzoq davom etgan jarayon hisoblanadi.

Hozirgi kunda sotsial-iqtisodiy muammolar oila inqirozini yuzaga chiqardi, xolos. Oiladagi salbiy jarayonlar global xarakterga ega, ya’ni mehnat taqsimoti va yollanma mehnatga asoslangan yirik mashinalar ishlab chiqarishni industrial davridan o‘tgan hamma xalqlarda yoki mamlakatlarda oila inqirozi namoyon bo‘lmoqda.

Oiladagi noma’qul tendensiyalarning sababi hayot moddiy sharoitining o‘zgarishida emas, balki hozirgi zamon industrial jamiyatlardagi hayot tarzini o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Chunki oila inqirozi nafaqat qoloq mamlakatlarda, balki rivojlangan Yevropa va AQSH da ham namoyon bo‘lmoqda.

Oiladagi inqirozli tendensiyalar tasodif emas yoki to‘g‘ri yo‘ldan og‘ish emas, balki fundamental jarayonlarning yaqqol ko‘zga tashlanadigan keskinlashuvidan iborat. Shuning uchun sotsial-iqtisodiy tushkunlik tugagandan so‘ng oila hayotining normal rivojlanishiga yo‘l ochiladi. Buning uchun oilaga jamiyat tomonidan maqsadli ta’sir o‘tkazish kerak.

Davlatning boshqaruvchilik roli saqlanib qolgan holda ham mulkchilik makonida raqobat jarayoni va bozor munosabatlariga asoslangan sotsial- iqtisodiy rivojlanish davom etaveradi. Mulkchilikdagi tabaqalanish oila institutida muayyan keskinliklarga sabab bo‘ladi. Oila institutlarida ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosatni izchil olib borishni muhim qilib qo‘yadi. Shuning uchun oila munosabatini ikkiga bo‘lish mumkin, ya’ni oila muammosini o‘rganadigan va uni amaliy hal qilishni ishlab chiqadigan aspektda yondashuv lozim. Demak,oilaga yondashuvda ikkita paradigmaga amal qilinadi, ya’ni modernizatsiya paradigmasi va ikkinchisi oila inqirozi paradigmasi.

Birinchi paradigma doirasidan oiladagi pozitiv va negativ o‘zgarishlaran’anaviy oila turi o‘rniga zamonaviy oila turi kelish sifatida, oila va aholi ishlab chiqarishini modernizatsiyalash jarayoni sifatida tushuniladi va talqinqilinadi.

Oilani modernizatsiyalash jamiyatni modernizatsiyalashning bir qismi sifatida qaraladi. Bu paradigma doirasida faqat vaqtinchalik va loqal nomutanosibliklar, hamda muammoli vaziyatlar to‘g‘risida borishi mumkin. Bunday muammoli vaziyatlar o‘tkinchi va yuzaki omillarning ta’siri natijasi, deb qaralgan. Ma’lumki,

modernizatsiya jarayoni har joyda har xil bo‘lgan va u ijtimoiy siyosatning ma’yorlarini bildirgan.

Mustabid tuzum davrida oilaga ham sinfiy yondashuv mavjud edi. Mustaqillik mamlakatda amal qilib kelinayotgan ijtimoiy siyosatning oilaga maqsadli yo‘naltirilganligi ushbu institut nufuzini oshiryapti. Shu bilan birga dunyo miqyosida oilaga bo‘layotgan tahdidlar ko‘lami albatta, mamlakatimizdagi oilalarga ham ta’sir ko‘satyapti. Sho‘ro davrida oila jamiyat taraqqiyotidan ortda qolgan edi.

Chunki ijtimoiy siyosat oilani hisobga olmas edi. Globalizatsiya davridagi oila inqirozi esa undagi oilalarimizning ancha ortda qolganligida deb tushuntirilmoqda. Uni hisobga olmaslik muayyan noqulayliklarni keltirishi mumkin. Sho‘rolar mafkurasi ko‘p narsalarni jamiyatning o‘zi tekislab, to‘grilab oladi, davlat va jamiyat boshqaruvi markazlashgan hokimiyat qo‘lidaku degan aqidaga rioya qilgan edi. Jahonda, jumladan sho‘ro davrida yuz bergan. Jamiyat oila jarayonlariga o‘ziga xoslik bilan aralashib, mamlakatni yuksaltirish kafolati bo‘lgan sotsial siyosatni oilaga yetkazayotgan maqbul demografik siyosat olib borish oila inqirozini pasaytirish imkoni bermoqda.

Oilani sotsial institut sifatida barbod bo‘lishi to‘g‘risidagi paradigma esa, oiladagi o‘zgarishlarni vaqtinchalik, tasodifiy, deb emas, balki industrial-bozor tsivilizatsiyasiga xos xususiyatlar keltirib chiqargan global inqirozning ifodalanishi, deb qaralishi kerak.

Oila inqirozi paradigmasini izlanuvchan, o‘z rolini anglagan oilalar chetlab o‘tishi mumkun, lekin hozirgi zamon global muammosi (ekologik muammo kabi) oilani butunlay saqlash mushkul.

Oila inqirozi konseptsiyasi e’tiborni evolutsion rivojlanish yo‘lidagi og‘ishlarga emas, balki bozor industrial munosabatlarining natijasi o‘laroq uning sotsial illatlariga qaratadi.

Inqirozning mohiyati sotsial-madaniy jarayonlar ya’ni, oilani sotsial axloqiy regulyatsiyasi zaiflashuvi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, madaniy ramziy qadriyatlar transformatsiyasi, nikoh, farzand ko‘rish, oila avlodlarining birligi kabi an’anaviy qadriyatlarning pasayishi ko‘zga tashlanyapti. Shuning uchun oila siyosati mana shu sotsial- madaniy jarayonlarni keltirib chiqaryotgan sabablarni topib, uni bartaraf qilishga qaratilishi lozim.

Oila inqirozi paradigmasi asosida oila institutini o‘rganayotganlar kamchilik. Chunki uzoq yillar davomida familistika va demografiya marksizm- leninizm mafkurasi asosida o‘rganilgan. Bu mafkuraga asosan oilani o‘rganadigan hamma fanlarda shaxs va jamiyat manfaatining sun’iy birligi nuqtai nuqtai nazaridan yondashuv hukmronlik qilagan.

Bir tomonda oila va shaxs, ikkinchi tomonda jamiyat (davlat) manfaatlarini mutanosib, deb hisoblash madernizatsiya paradigmasining muhimxususiyatidir. Oilani rivojlantirish va aholini o‘stirish sohasiga ham sotsializm davrida ham bir qadar e’tibor berilgan. Aholining tabiiy o‘sishi mamlakatning istiqboli shu bilan bog‘langan. Bolalarga nisbatan ustuvor siyosat oilalarga nisbatan g‘amxo‘rlik sifatida talqin qilingan. Shu bilan birga oiladagi salbiy o‘zgarishlarni vaqtinchalik holatlar natijasi deb qaralgan.

Sovet tuzumining inqiroziga oila institutiga yetarlicha ahamiyat berilmaganlik ham sabab bo‘ldi, deb aytishga yetarlicha asoslar bor. Oilaga modernizatsiya paradigmasi asosida yondashuv hukumronligi natijasida oilalar ham inqirozga uchradi. Ba’zi bir hamdo‘stlik mamlakatlarida hamon demografikholat xavotirli bosqichlardan chiqa olmayotganligi ham aynan oila inqiroziga sababchi. Oxirgi vaqtlarda oiladagi muammolarga oila inqirozi paradigmasi asosida yondashuv boshlandi, ya’ni, oiladagi salbiy o‘zgarishlarga global inqiroz sababchi emasmikan, degan kontekst ustivor bo‘la boshladi.

Bu ikkita paradigma o‘rtasidagi kurash davom etmoqda. Oila modernizatsiyasi paradigmasiga asoslangan sotsialistik tizim tugagan bo‘lsa ham o‘shandagi paradigma saqlanib qoldi va u davom etmoqda.

Bu paradigmaning saqlanib qolganligi samarali siyosat olib borishni qiyinlashtirmoqda. Bu siyosatning zarurligi oila strukturasi va funksiyasidagi o‘zgarishlarning nobop oqibatlari bilan belgilanadi. Tarixiy rivojlanishning (sponton) yo‘li, ya’ni stixiyali rivojlanish yo‘li bilan industrializatsiya, urbanizatsiya jarayoni va u bilan bog‘liq boshqa jarayonlar natijasida kelib chiqqan edi. Ana shu turfa holatlar oilani sotsial instituti sifatidagi inqirozini ko‘rsatdi.

O‘z xarakteriga ko‘ra global bo‘lgan va o‘z oqibatlariga ko‘ra ekologik inqirozga teng bo‘lgan bu jarayonlar mamlakatimizda o‘ziga xos xarakterga ega. Bu o‘ziga xoslik sovet va possovet davrida yuz bergan voqealar bilan belgilanadi.

Birinchi o‘ziga xoslik davri shundaki oila transformatsiyasi yuz berdi. Unitadrijiy rivojlantirish tabiiy, sun’iy ravishda tezlashtirdi. Oila funksiyasini bajarishdagi o‘ziga xoslikni chetlab o‘tib, faollikni kuchaytirishga intilish oila a’zolarini barobar iqtisodiyotiga tortish jarayoni totalitar davlat tomonidan majburan rag‘batlantirildi. Ayniqsa, bu jarayon xalq xo‘jaligini industlrlashtirish va kollektivlashtirish davrida namoyon bo‘ldi. Shu sababli normal yo‘ldan rivojlangan mamlakatlardan farq qilib bizda uning oqibatlari vayronkor bo‘ldi.

Davlatni gipertrofiyalashgan roli ham shu bilan bog‘liq edi. Davlatning bunday roli faqat oiladagi o‘zgarish jarayonlarini tezlashtiribgina qolmay oila funksiyasini sotsial institutga emas davlat organlariga o‘tkazishda ham namoyon bo‘ldi.

Superetatizatsiya, ya’ni butun sotsial hayotni davlatlashtirish oila inqirozini tezlashtirdi, oila va oila qadriyatlariga vayronkorona ta’sir qildi .

Oila hayotiga davlatning aralashuvi qanday bo‘lishidan qat’i nazar (20-30 yy. zo‘ravonlarcha, undan keyingi yillarda va turg‘unlik yillarida qisman yumshoqroq) u oilaning inqirozni kuchaytiradi. Oila sho‘ro davrida sotsialinstitut sifatida vayron bo‘la boshlagan va 60 yillarning o‘rtalaridan boshlab o‘z funktsyasini deyarli bajarmay qo‘ygandi.

Tarixiy rivojlanishning ikkinchi o‘ziga xosligi hozirgi kunlarga ya’ni, postsovet davriga taalluqli.

Bu mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ba’zi xususiyatlari iqtisodiy, sotsial va siyosiy o‘zgarishlarning xususiyatlari bilan bog‘liq. Gap shundaki, islohotchilar bu o‘zgarishlar jarayonida oila manfaatini yetarli darajada e’tiborga olmaydilar.

O‘zgarishlar jarayonida qabul qilinayotgan qarorlar oilaga yoki sotsial individ sifatida emas, balki alohida (izolyatsiyalashgan) individ sifatida qaramoqda. Oqibatda oiladagi o‘zgarish jarayoni, oila qadriyatlarining devalvatsiyasiga (qadrsizlanishiga) sabab bo‘lmoqda.

Bu mamlakatdagi sotsial-iqtisodiy va siyosiy inqiroz bilan bog‘liq, deb hisoblanmoqda. Natijada oila muammolariga jamoatchilik tomonidan iqtisodiy islohotlarning inqiroz oqibati sifatida qaralmoqda. Oiladagi o‘zgarishlar ko‘p xollarda oila hayot darajasining pasayishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa ko‘p bolali oilalar va to‘laqonli bo‘lmagan oilalarda bu yaqqol seziladi.

Tarixiy rivojlanishining o‘ziga xosligi oila siyosatini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqazo etadi. bu oilani qashshoqlikdan himoya qiladigan, inflatsiya natijasida farovonlikning pasayib ketishidan himoya qiladigan barqaror davlat tadbirlarini ishlab chiqarishni talab etdi.

Oilalarga moddiy yordam berish ham shundan kelib chiqqan.

Bular oilaga nisbatan qisqa muddatli, cheklangan tadbirlar hisoblanadi.

Mamlakatda uzoq istiqbolga belgilangan oila siyosatini ishlab chiqish kerak.

Oila siyosati – uzoq tarixiy jarayonda yo‘qolib borayotgan oila hayot tarzi, uni qayta tiklashga qaratilgan davlat va jamiyat faoliyatidir. Oilaga xos bo‘lgan sotsial funktsiyalarni qaytarishga qaratilgan faoliyatdir. Sotsiologik tilda aytganda, oilani sotsial institut sifatida mustahkamlashga qaratilgan faoliyatdir[2].

Bu siyosat faqat oilaga yo‘naltirilgan siyosat emas. Aslida oila siyosati- oilaga qarshi bo‘lgan zamonaviy sivilizatsiyani o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatdir.

Faqatgina jamiyatni oila manfaati nuqtayi nazaridan islohot qilish uni inqrozdan olib chiqadi, sotsial funktsiyalarini qayta tiklaydi.

Oila siyosatini fundamental va uzoq muddatli vazifalar bilan birga qisqa muddatli maqsadlari, u yoki bu davrga taalluqli dolzarb vazifalari bo‘lishi mumkin. Uni sotsial institut sifatida mustahkamlash alohida oilalarga hayotiy muammolarini hal qilishga sharoit yaratadi.

Oila siyosatining asosiy tamoyillari quydagilar:

-Suverenitetlik tamoyili (davlatga bog‘liq bo‘lmagan mustaqillik)

-Ijtimoiy shartnoma tamoyili (Davlat bilan oila o‘rtasida)

-Oila hayot tarzini tanlash erkinligi tamoyili

-Maqsadlarning yagonalik tamoyili (butun mamlakatga taaluqli).

-Sotsial ishtirok tamoyili (siyosatni amalga oshirishda ishtiroki).

Oila siyosatining strategik, uzoq muddatli maqsadi bo‘lib u oilani sotsial institut sifatida mustahkamlashdan iborat. Bu maqsad oila hayot tarzini mustahkamlashda ifodalanadi va e’tiborni individga emas, uni oiladagi hayotiga va oilaga qaratishini talab qiladi. Hozirgi kunda butun dunyoda oiladagi o‘zgarishlar fragmentar oilalar va oilasiz yashash shakllarini jamiyat tomonidantan oldirish harakatlari o‘sib bormoqda. Shuning uchun strategik maqsad bo‘lgan oilani sotsial institut sifatida mustahkamlash jamiyat va davlat tomonidan bolali oilalarni, bir necha avloddan iborat bo‘lgan oilalarni qo‘llab quvvatlashni talab qiladi. Asosan 3-4 bolali to‘liq oilalar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan asosiy oila shakli deb hisoblanadi.

REFERENCES

1. Социальная защита семей и детей в Узбекистане: монография / Н. М. Латипова; Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека; отв. Ред. Н. С. Аликориев. – Ташкент: Navro’z, 2018. – 215 с.

2.“Ijtimoiy siyosat”. O‘quv qo‘llanma sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)., dots. A.A.Abduxalilov., sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dots. E.X.Zaitov – Toshkent: VNESHINVESTPROM, 2021. 432 bet;

TA’LIM TIZIMINING IJTIMOIY MOHIYATINI O‘RGANISHDA INSTITUSIONAL YONDASHUV

Umidjon Tolibjonovich Xomidjonov
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy ish kafedrasi o‘qituvchisi: Email: umidjon.xamidjonov.80@bk.ru

ANNOTATSIYA:

Maqolada ta’limning ijtimoiy mohiyati kishilik jamiyatida tutgan o‘rni, dastlabki maktablarning paydo bo‘lishi haqida fikr yuritiladi. Inson kapitalini rivojlantirishda ta’limning ahamiyati, ta’limning butun boshli yaxlit tizim sifatida shakllanishi, ta’limdagi institusional yondashuvlar tushuntiriladi.

Kalit so‘zlar: instiusional yondashuvlar, inson kapitali, diniy axloq, mafkura, ta’lim jarayonlari, xulq atvor, ko‘nikma

ABSTRACT:

The article discusses the role of the social essence of education in human society, the emergence of early schools. The importance of education in the development of human capital, the formation of education as a comprehensive system, and institutional approaches to education are explained.

Keywords: institutional approaches, human capital, religious ethics, ideology, educational processes, behavior, skills

Ta’lim va tarbiya tizimi kishilik jamiyatini barqaror rivojlanishini ta’minlashda, madaniy sivilizatsiyalar, bilim va tajribalarni avlodan avlodga o‘tib borishida, ijtimoiy hayotning gullab yashnashida va qolaversa, alohida shaxsning har tomonlama kamol topishida eng muhim omil sifatida e’tirof etib kelinadi. Ta’limning ijtimoiy mohiyati uning tizimlashtirilgan faoliyat turi sifatida institusionallashuv jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi.

Institusional yondashuv tushunchasi, institutlarning jamiyatdagi o‘rni va ularning ijtimoiy jarayonlar, iqtisodiyotni tashkil etish, siyosiy tizimlar va madaniy hodisalarga ta’siriga alohida e’tibor beradigan nazariy va uslubiy yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tushuncha fan va tadqiqotning turli sohalarida, masalan, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisod, antropologiya va boshqa sohalarda murakkab ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tushunish uchun qo‘llaniladi. Bu bizga ijtimoiy tizimlarning tuzilishi va dinamikasini belgilovchi omillarni, shuningdek ularni o‘zgartirish va rivojlantirish yo‘llarini aniqlash

imkonini beradi. Turli institutlar va ijtimoiy hayotning boshqa jihatlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganishda qo‘l keladi.

Ta’limdagi institusional yondashuv esa ta’lim tizimlarining institusional jihatlarini o‘rganish va tahlil qilishga asoslangan uslubiy yondashuvdir. Ushbu yondashuv asosan muassasalarning jamiyatdagi roliga qaratilgan bo‘lib, masalan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar, universitetlar, ta’lim vazirliklari kabi muasassalarning ta’lim jarayonlari, siyosati va amaliyotini shakllantirishdagi ahamiyatini o‘zida mujassam etadi. Mazkur institutlar tomonidan ta’lim siyosatini shakllantirish, ta’lim muassasalarining ta’lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi strategik vazifalar amalga oshiriladi.[1]

Ta’lim tizimidagi institusional yondashuvlar ta’lim faoliyatining turli jihatlari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni tushunishga, uning samaradorligini belgilovchi omillarni aniqlashga va jamiyatning ijtimoiy va institusional xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Ta’limning ijtimoiy mohiyatini o‘rganish esa “tizim” tushunchasining etimologik ahamiyatini aniqlab olishni shartlaydi. Xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “tizim” o‘zaro bog‘liq va uzviy tartibda bo‘lgan narsa, hodisalar birligi, majmui sifatida o‘zaro bog‘liq qismlardan tashkil topgan tuzilma, ijtimoiy-siyosiy jihatdan tuzilish shakli[2]” – deb ko‘rsatilgan. “Tizim" so‘zi – yunoncha "birlashtirish" ma’nosini anglatib, u bir butunlikni hosil qiluvchi elementlar yig‘indisini ifodalaydi.

Tizim haqidagi dastlabki ta’limotlar qadimgi ijtimoiy qarashlarda shakllandi. Xususan, yunon mutafakkirlari Yevklid, Platon, Aristotel tomonidan tizim g‘oyasi ishlab chiqildi. Tizim - bir yoki bir nechta belgilangan maqsadlarga erishish uchun tashkil etilgan o‘zaro ta’sir qiluvchi elementlarning birikmasidir[3]. Uning bir-biri bilan chambarchas bog‘liq elementlari, yaxlit birlikni hosil qiladi.

Ta’lim tizimining paydo bo‘lish ilk bosqichlariga, kishilik jamiyatida nutqning rivojlanishi, keyin esa yozish, o‘quv jarayonining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Arxeologik ma’lumotlarga qaraganda dastlabki maktablar miloddan avvalgi III ming yillikda Misrda paydo bo‘lgan. Maktablarda dars mashg‘ulotlari individual tarzda olib borilgan. O‘quvchining maktabda muvaffaqiyatli o‘qitish davomiyligi birinchi navbatda uni ishtiyoqi, qobiliyati va moddiy ahvoliga qarab belgilangan. Qadimgi Misrda maktablar hajm jihatdan uncha katta emas edi. U erda bir necha o‘nlab o‘quvchilar tahsil olish imkoniyati mavjud bo‘lib, asosan o‘g‘il bolalar ta’lim olishgan.

Lubsky A.V., Kolesnikova E.Y., Lubsky R.A. Normative type of personality and mental matrix of social behavior in Russian society // Indian Journal of Science and Technology. Volume 9, Issue 36, September 2016, Article n umber 102023. DOI: 10.17485/ijst/2016/v9i36/10202 2.

[2] Гаврилова И.Н. Западные трактовки социальной справедливости (Об зор концепций) // Социологические исследования

Qadimgi Yunonistonda esa inson ham jismoniy ham aqliy rivojlanishi zarur, deb hisoblashgan. Milloddan avvalgi V asrga kelib deyarli barcha ozod Afina fuqarolari savodli bo‘lib, o‘qish va yozishni bilganlar. Ma’lum bo‘lishicha, qadimgi yunonlarning ta’lim tizimi, yunon jamiyati fuqarolarini har tomonlama uyg‘un, barkamol tarbiyalashga xizmat qilgan. Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, yunon faylasuflari fikriga ko‘ra ta’lim olish jarayoni mutlaqo erkin hech qanday majburlov choralarisiz bo‘lmog‘i kerak edi. O‘rta asrlar ta’lim tizimida diniy axloq, mafkura etakchi o‘rinda bo‘lib, madaniyatning tasdig‘i sifatida maktab ta’limining yaxlit tizimini o‘z ichiga olganlini kuzatamiz. Uyg‘onish davrida esa ta’lim san’atning barcha sohalarini o‘rganishga qaratildi. Ta’lim vaqt o‘tishi bilan o‘z yo‘nalishini o‘zgartirdi, yangi mazmun bilan boyitildi, avvalgi avlodlar tomonidan to‘plangan ilmiy va madaniy qadriyatlarni saqlab qoldi.

Ko‘pgina adabiyotlarda “ta’lim” atamasi “tarbiya” atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi. AQSH olimi F.Maxlupning fikriga ko‘ra tizimli ravishda bilimlarning odamlarga berilishi va ular tomonidan uzatilgan bilimlarni qabul qilinishi ta’limning eng muhim jihati hisoblanadi[1].

Shu bilan birga ta’lim shubhasiz bilim, ko‘nikma, shuningdek ma’lum bir ijtimoiy xususiyatni uzatish va o‘zlashtirish bilan bog‘liq faoliyatning bir turi hisoblanadi. Guvohi bo‘lganimizdek, ta’lim juda ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Insonga bilim berish, uni o‘qitish va odob-ahloqni o‘rgatish, tarbiya berish vazifalari birlashgan, hamohang ravishda olib borilsagina unga ta’lim berilgan deb hisoblash mumkin. Bizningcha, ta’lim deyilganda shaxsning jismoniy va ma’naviy shaklanishining butun boshli jarayoni tushuniladi.

Bir so‘z bilan aytganda ta’lim tizimi deyilganda ilm o‘rganish jarayoni tushuniladi. Ma’lumki ta’lim bir necha turlarga bo‘linadi. O‘quv muassasalaridagi ta’lim, ishlab chiqarish jarayonlaridagi ta’lim, televideniya yordamida ta’lim, oila muhitidagi ta’lim, diniy ta’lim, qurolli kuchlar tizimidagi ta’lim, kishi o‘z tajribasi orqali ham ma’lum darajada ilmga, ta’limga ega bo‘ladi. Bu erda bitta tushunchada inson hayoti davomida ta’lim olishi, kundalik hayotiy tajriba orqali ham ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishi tushuniladi. Ma’lumki, shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun sharoit yaratish har bir davlatning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun javobgarlik va mas’uliyat ta’lim tizimiga yuklanadi. Ta’lim tizimi tushunchasi jamiyat tomonidan maqsadli ishlab chiqilgan ijtimoiy institut bo‘lib, u muayyan jamiyatga, uning ijtimoiylashgan shaxsga bo‘lgan ehtiyojlari va talablariga mos keladigan uyushgan aloqalar va ijtimoiy normalar tizimi bilan tavsiflanadi.

. 2009. № 3. С. 35.

1 Narsisizm-o’z egosiga qaram bo’lgan shaxsiyat yo’nalishi

Ta’lim tizimining tuzilishini chuqurroq anglash uchun uning tarkibiy qismlarini alohida o‘rganish o‘rinli. Tor ma’noda ta’lim tizimi bilim, tarbiya va ma’rifatni o‘zlashtirish jarayonidir. Agar ta’rifni kengaytiradigan bo‘lsak, ta’lim - madaniy qadriyatlar, meyorlar va xulq-atvor modellarini o‘rganish jarayonida shaxsning uyg‘un rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan tashqi va ichki sharoitlarni yaratuvchi ijtimoiy hayot muhitidir. Demak, ta’lim o‘qitish, o‘rganish, tarbiyalash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, rivojlanish va ijtimoiylashuv jarayonlarining sintezi sanaladi. Bundan kelib chiqadiki, ta’lim ko‘p bosqichli makon bo‘lib, u insonning rivojlanishi va o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Biz o‘tkazilgan ilmiy izlanishlarimiz natijasida ta’limga quyidagicha mualiflik ta’rifini berdik. Ta’lim bu insonga bilim-ma’rifat, odob axloq, ma’naviy saviya, keng dunyoqarash, faxm farosatni o‘rgatuvchi, shaxsni har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlovchi tizimli jarayon hisoblanadi. Aynan ta’lim tizimi inson kapitalini shakllantirishdagi fundamental komponent hisoblanadi. Zero sifatli ta’lim tizimi mamlakatlar taraqqiyotini ta’minlashga qodir bo‘lgan yuksak intelektual kreativ fikrlaydigan kadrlarni etishtirib beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyati shundaki, boshlang‘ich ta’lim majburiy va erkindir, chunki sivilizatsiyaning hozirgi rivojlanish darajasi fundamental fanlar asoslari bo‘yicha elementar savodxonlikni talab qiladi. Turli mamlakatlarda keyingi ta’lim turli yo‘llar bilan tashkil etiladi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar o‘quvchilar shaxsining individual xususiyatlariga qarab ta’limni moslashtirish yo‘lini tutdilar. Aholiga ta’lim berishning tizimli yo‘lga qo‘yilishi, maktab va oliy o‘quv yurtlari dunyoda ta’lim va tarbiya tizimi sifatida ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Bir tomondan ular madaniyat va jamiyatning to‘planishi, saqlanishi va rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ikkinchidan, ular jamiyatda, fan va madaniyatda sodir bo‘layotgan xilma xil tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ta’lim butun boshli tizim sifatida namoyon bshladi.Chunki inson tug‘ilganidan boshlab butun umri mobaynida ta’lim tarbiya oladi. Buning uchun esa butun boshli ta’lim tizimi xizmat qiladi. Aytaylik bola tug‘ilgandan boshlab, unga ota onasi atrof olam haqida tushuncha, ta’lim tarbiya bera boshlaydi. Keyinchalik u bog‘chaga boradi va bog‘chada yoshiga xos bo‘lgan bilim, ko‘nikma va ta’lim tarbiyani oladi keyin esa maktab, universitet va hakoza. Inson kamolotga etgunga qadar unga ta’lim berish uchun aniq reja, mantiqiy izchillik va uzviylikka ega bo‘lgan butun boshli tizim faoliyat ko‘rsatadi.

IJTIMOIY ISH XODIMLARINI TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qaxramon Abdulxamid o‘gli Axmedov
O‘ZMU Ijtomoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish kafedrasi kata oqituvchisi

Sevinch Umirbek qizi Bekchanova
Ijtimoiy ish yo’nalishi 4 bosqich talabasi

ANNOTATSIYA:

Maqolada mamlakatimiz taraqqiyotida ijtimoiy ish xodimlarining o‘rni va ahamiyati hamda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlash jarayonlarini istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Ijtimoiy ishning kasb sifatida shakllanish bosqichlari, ijtimoiy ish xodimlari samarali faoliyatini olib borishi uchun kerak bo‘ladigan universal bilim va ko‘nikmalar qanchalik zarur ekanligi ochib berilgan. Bunga qo‘shimcha qilib shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining eng muhim yo‘nalishi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Ijtimoiy himoyaning yangi modelining shakllanishi sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni chuqur tushunadigan, aholining turli toifalarini ijtimoiy himoya qilishning ko‘p qirrali muammolarini professional ravishda hal qilishga tayyor bo‘lgan yangi kadrlar mavjudligini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari bilan ishlash bo‘yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan ijtimoiy sohani kadrlar bilan ta‘minlash zarurati va shunga mos ravishda kasbiy faoliyatni yanada rivojlantirish zarurati - "ijtimoiy ish" dolzarbdir.

Kalit so’zlar: kasbiy kompetensiya, case-study, virtual stendlar, electron-didaktik texnologiyalar, keys-menejment, intervensiya.

ANNOTATION:

The article examines the role and importance of Social Work workers in the development of our country and the prospects for the processes of training Social Work workers. The stages of the formation of social work as a profession, it is revealed how much universal knowledge and skills are necessary for Social Work workers to carry out their effective activities. In addition, we can say that the most important direction of the strategy of action on the five priority areas of development of Uzbekistan is aimed at improving the system of social protection of the population. The formation of a new model of social protection implies the presence of new

personnel who deeply understand the changes taking place, are ready to professionally solve the multifaceted problems of social protection of various categories of the population. In this regard, the need to provide the social sphere with personnel by specialists with knowledge and skills in working with socially vulnerable segments of the population and, accordingly, the need for further development of professional activity - "social work" is relevant.

Keywords: professional competence, case-study, virtual stands, electron-didactic technologies, keys-management, intervention.

O‘zbekistonda “Ijtimoiy ish” kasbi yangi kasblardan biri bo‘lib, u ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga ijtimoiy yordam, g‘amxo’rlik ko‘rsatish, ularning jamiyatga moslashishi va integratsiyalashuviga ko‘maklashish bo‘yicha kasbiy salohiyatli yordamni amalga oshiruvchi malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojning kuchayib borishi munosabati bilan katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Va bu holat eng avvalo, jamoatchilik hayotida jamiyatning har bir a‘zosi uchun munosib hayot tarzini ta‘minlash vazifasi asosida ro‘y berayotgan izchil o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lmoqda.

Bunga qo‘shimcha ravishda shuni aytishimiz joizki, ijtimoiy ish sohasidagi mutaxassislar faoliyatini tavsifi ularga nisbatan talabning yuqoriligi haqida fikr yuritish imkonini bermoqda. Darhaqiqat, Respublikaning bozor iqtisodiyoti tizimiga kirishining o‘zi ijtimoiy ishchilarga nisbatan ehtiyoj payo bo‘lishini ta‘minladi. Bundan tashqari, bugungi kunda respublikadagi barcha faoliyat yurituvchi ijtimoiy boshqarish organlarida ijtimoiy ma‘lumotga ega bo‘lmagan mutaxassislar ishlab kelmoqda. Shu sababdan mamlakatimizda ijtimoiy ish xodimlari tayyorlanishi respublikada mavjud bo’lgan barcha ijtimoiy muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, har bir sohada o‘ziga xos o‘zgarishlar va yangiliklar amalga oshirildi. Xususan, iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy hamda ijtimoiy sohalarda ko‘plab islohotlar qilindi. Ushbu maqolada ishda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlashning o‘ziga xos jihatlarini o‘rgangan holda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlashning muammo va istiqbollari o‘rganildi.

Ijtimoiy ish ixtisosligi bo‘yicha kadrlar tayyorlashni kengaytirish yo‘lidagi to‘siqlardan biri shu yo‘nalishdagi darslik va o‘quv adabiyotlarining kamligida. Bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi «Oliy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PK-1533-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror ijrosini amalga oshirish maqsadida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2013-yil 2-avgustdagi 278-sonli buyrug‘i asosida takomillashtirilgan oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, jahon tajribasi o‘rganilgan va tahlil qilingan holda mazmuni tubdan o‘zgartirilgan o‘quv reja va fan dasturlari asosida darsliklarni yaratish ishlari o‘quv adabiyotlari yetishmaslining oldini olishga qaratilgan ulkan qadamdir. Ijtimoiy ish o‘quv fani sifatida o‘quv maqsadlarini ko‘zlab ilm-fan asoslarini o‘quv yurti mutaxassisliga tatbiqan tizimlashtirib bayon qilishni o‘zida ifoda etadi. Ijtimoiy ishga o‘qitilayotgan talabalar mijoz, ehtiyojmand odamlar bilan ish olib borish texnologiyasiga asoslangan turli nazariy bilimlar va ularni egallab olishlari kerak. (Sultonali Mannopov). Kasbiy ijtimoiy ish mutaxassislar, ya'ni buning uchun zarur bo'lgan maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo‘lgan odamlar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyat turdir hamda kasbiylik - bu ijtimoiy xodimning bilimi, malakasi va fazilatlari yig‘indisidir [1]. (I.V.Namestnikova) Zamonaviy ijtimoiy ishchi - bu ijtimoiy muhandislik va texnologiya sohasidagi, odamlar hayotining huquqiy, axloqiy va psixologik xususiyatlarini chuqur biladigan, yuqori huquqiy tayyorgarlikka, tibbiy va psixologik kompetentsiyaga, kuzatuvchanlik, e‘tibor, mehr va odamlarga mehr-muhabbatga ega bo‘lgan mutaxassis hisoblanadi[2]. (E.I.Xolostova)

Metodologik jihatdan mamlakatimizda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlashning o‘ziga xos jihatlari va rivojlanish xususiyatlari uning bugungi kundagi ahamiyatining nazariy o‘rganish hamda xulosa va tavsiyalar berishdan va mavzuga doir adabiyotlarni o’rganish, tahlil qilish orqali o‘rganilgan.

Hammamizga ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng asosiy mustahkam yo‘nalishlaridan biri alohida ko‘mak va e‘tiborga muxtoj odamlarga manzilli yordam ko‘rsatish bo‘lgan ijtimoiy himoya va aholiga xizmat qilishning printsipi jihatdan yangi tizim shakllandi. Bu sharoitda ijtimoiy sohada aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj mehnat bilan ishlashda bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan yuqori malakali xodimlarga ehtiyoj va tegishli tarzda yangi kasbiy faoliyat – “ijtimoiy ishchi” faoliyatga zaruriyat payo bo’ldi.

Ijtimoiy ishning xalqaro ta’rifi. Ijtimoiy ish kasbi ijtimoiy o‘zgarishlarga, insonlararo munosabatlardagi har qanday holatda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shaxsiy taqsimlash va odamlarning turmush farovonligini oshirishga yordam beradi. Inson xulq-atvori va ijtimoiy tizim nazariyasini qo‘llagan holda, ijtiomy ish odamlar atrofdagilar bilan munosabatga kirishayotgan bo‘lsa, o‘sha joyda payo bo‘ladi.

Ijtimoiy ish ishlab chiqarish bo‘yicha serqirra bo‘lib, mutaxassislar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: boshqaruvchilik darajasidagi ijtimoiy ishchilar, oila bilan ishlovchi mutaxassislar, bola rivojlanishi bo‘yicha mutaxassislar,

individual yoki guruh bilan ishlash bo‘yicha mutaxassislar, individual yoki guruh bilan ishlash bo‘yicha psixoterapevt va psixologlar, tibbiy tizim tizimidagi ijtimoiy ishchilar, mahkumlar bilan ishlovchi ijtimoiy ishchilar, mehnat bandligi va migratsiya xizmati ijtimoiy ishchilar, armiyadagi offitser-ijtimoiy ishchilar, ijtimoiy pedagoglar va bu ro‘yxatni yana davom ettirish ham mumkin.

Ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlash jarayoni juda ham muhim hisoblanib, o‘quv jarayonida alohida e‘tibor ijtimoiy ishning amaliy tayyorgarligiga qaratiladi. Birinchi kursda talaba tanishtiruv, ishlab chiqarish chiqarish va diplom oldi amaliyotini o‘taydi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy ish mutaxassisi nazariy bilim va amaliy tajribalarni olgandan so‘ng ijtimoiy sohadagi faoliyatda tashkiliy-boshqaruv, ilmiy-pedagogik va amaliy tajriba qobiliyatlariga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy ishning kasbiy amaliyoti uchun boshlang‘ich bosqichda bakalavr tayyorlanadi. Bu bosqichda tayyorlanayotgan kadrlar ijtimoiy ishning bakalavriatura uchun akkreditatsiya qilingan dasturlari asosida ta‘lim oladilar. Bunda ijtimoiy xizmatchi insoniy xulq-atvor, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy va iqtisodiy adolat, madaniy xilma-xillik, ijtimoiy ish odobi sohasida tayanch ma‘lumotga ega bo‘lishadi va belgilangan joylarda amaliyot o‘taydilar.[3]

Bakalavr darajasidagi ijtimoiy ish amaliy xizmatchilari ta’lim olish jarayonida quyidagi bilim va ko‘nikmalarni egallaydi:

1. Ijtimoiy ishning kasbiy amaliyotida yuzaga keladigan holatlar bo‘yicha tanqidiy fikrlay olish;

2. Ijtimoiy ishning odobi va tamoyillarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

3. Kishilarning ijtimoiy kelib chiqishidan, dinidan, irqidan, jinsidan, yoshidan, oilasining tuzilishidan qat‘iy nazar hurmat bilan teng huquqli asosda munosabat bildirishni o‘rganish;

4. Ijtimoiy va iqtisodiy adolat mezonlariga to‘g‘ri keluvchi ijtimoiy o‘zgarishlar va targ‘ibot strategiyasi shakllari, mexanizmini tushunib olish;

5. Ijtimoiy ish kasbining tarixi, tuzilishi va masalalarini anglab yetish;

6. Olingan bilim va ko'nikmalarni ijtimoiy ishning turli ko‘lamlarida amaliyotda qo‘llay olish;

7. Aholining alohida qatlamlari va guruhlari o‘rtasidagi shakllanayotgan munosabatlarda shaxsiy-insoniy omillarni tushunish uchun o‘tkazilgan empirik tadqiqot ma‘lumotlaridan foydalana olish;

8. Ijtimoiy siyosatni tahlil etish, qayta ishlash va unga ta‘sir ko‘rsatish;

9. Ijtimoiy ish sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni baholash, ilmiy tadqiqotlarning natijalaridan amaliyotda foydalana olish;

10. Jamiyat a‘zolari, hamkasblar va mijozlar o‘rtasida tabaqalashgan k o‘nikmalarni qo‘llash;

11. Ijtimoiy ish amaliyotida mos ravishdagi maslahatlarni berish va kuzatuvlar olib borish;

12. Ijtimoiy ish sohasidagi tashkilotlar va xizmat ko‘rsatish tizimida zarur tashkiliy o‘zgarishlarni amalga oshirish.

13. Ijtimoiy guruhlar va qatlamlar, ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni. Turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning dolzarb muammolari. Alohida ijtimoiy guruhlar va qatlamlar (ayollar, bolalar, qariyalar, imkoniyati cheklanganlar, ishsizlar, deviant xulqlilar)da ijtimoiy ish olib borishning usullari va yo‘nalishlari. Turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarda ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish dinamikasi. Ijtimoiy guruhlarning shaxsga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishdagi o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘lishi;

14. Turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning muammolarini o‘rganish. Ijtimoiy ishning nazariyasi va uning salomatlik bilan bog‘liqlik jihatlari. Ijtimoiy ishning salomatlik bilan bog‘liqlik asoslari. Ijtimoiy ishda tibbiyot konsepsiyasi va tibbiy huquqlarning asoslari. Bolalar himoyasi va oila siyosati; jamiyatda ayollarning o‘rni; oila va bolalar huquqlarining me‘yorlarini; davlatning qariyalar to‘g‘risidagi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini; imkoniyati cheklanganlarga hamda deviant xulqlilarga ijtimoiy ko‘mak berishning o‘ziga xosliklarini; O‘zbekiston Respublikasida bandlik siyosati va ishsizlar bilan ijtimoiy ish olib borishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

15. turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning tarbiyaviy va psixologik tamoyillari; oilani rejalashtirish; oilaning ijtimoiy himoya tamoyillari; bolalar, ayollar, qariyalar, nogironlar, ishsizlar va deviant xulqlilar o‘rtasida ijtimoiy ishning o‘rni; ijtimoiy ishning alohida ijtimoiy guruhlar va qatlamlarga nisbatan qo‘llanilishida soha sifatidagi zamonaviy yutuqlari. Ijtimoiy ishning yoshlar o‘rtasidagi ahamiyati va o‘rni. Yoshlar muammolarining yechimini topishda ijtimoiy ishning o‘rni. O‘zbekiston yoshlari o‘rtasida ijtimoiy ish tizimining huquqiy me‘yoriy asoslari. O‘zbekiston yoshlarining konstitutsion huquqlari haqida ko’nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan yana bir ijtimoiy faoliyatlardan biri bu maqsadga erishishga mo‘ljallangan va individual yondashuvni ta‘minlaydigan keys-mejment usuli bo‘lib, ijtimoiy ish xodimi bu faoliyatni tashkil etmoqda. Keys-menejment bu-ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatishning qat‘iy belgilangan tartibi bo‘lib, bunda xizmat oluvchi (xizmat oluvchi) ehtiyojlarini baholash, keng ko‘lamli ijtimoiy xizmatlarni rejalashtirish, boshqarish va ularning ko‘rsatilishi va

olib borilayotgan ishlar samaradorligi va erishilgan natijalarni tahlil qilish usulidir. Murojaat arizani qabul qilish ochish jarayonining dastlabki bosqichidir. Ishni boshqarish (keys-menejment) menejer tomonidan amalga oshiriladi va kompleks xizmatlarni olishda baholash, rejalashtirish, yordamni birlashtiruvchi jarayondir. Ijtimoiy xodim ijtimoiy aralashuv vaqtida xizmat oluvchining muammosi haqidagi asosiy ma'lumotlarni, tahlil qiladi hamda belgilangan mezonlar asosida xizmat oluvchining ijtimoiy xizmatlar va yordam olish huquqini aniqlaydi.

Ijtimoiy ish xodimi bu faoliyat davomida bir qancha funksiyalarni bajaradi:

a) so‘rovni ko'rib chiqish, "keys" ishini yaratish, vaziyatni baholash, ehtiyojlarni aniqlash, resurslarni baholash, shakllarni to'ldirish;

b) xizmat oluvchi bilan muntazam aloqa o‘rnatish, uni xizmatlarni olishga va yordamni qabul qilishga undash

v) xizmatdan foylanuvchining shaxsiy qobiliyatlarini mustahkamlashga yordam berish;

g) mahalladagi mavjud resurslarni (mahalla xizmatlari, mahalladagi faoliyat yurituvchi tashkilotlar, volonterlar) tahlil qilish va qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini doimiy ravishda takomillashtirish;

d) boshqa ijtimoiy xizmatlar (sog‘liqni saqlash, bandlikka ko‘maklashish markazlari), davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

y) oila va mahalla qo'mitasi bilan o‘zaro hamkorlik;

f) ijtimoiy intervensiya samaradorligini baholash.

Ijtimoiy ish xodimi samarali faoliyat yurita olishi, o‘z majburiyati doirasidagi vazifalarni hal qilishi uchun ijtimoiy ish xodimi eng avvalo, bilim va tajribaga, tarbiyalanuvchilar, ma‘muriyat va pedagog-tarbiyachilar orasida o‘z avtoritetiga; o‘z mavqeyi (huquqlari)ga, tashkilotchilik, boshqaruvchilik, so‘zomollik, muloqotchanlik, irodalilik, mas‘uliyatlilik, tashabbuskorlik, hamfikrlilik, shaxsiy maftunkorlik kabi shaxsiy va kasbiy fazilatlarga ham ega bo‘lishi lozim.

Muammo bo‘yicha maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, kasbiy kompetentsiya olti xil kompetentsiya turlarining kombinatsiyasi (M. Doel, S. Ramon, R. Sarri, S. Shardlow):

- kontseptual (ilmiy), kasbning nazariy asoslari haqida tushuncha berish;
- asosiy kasbiy ko'nikmalarni egallash imkonini beruvchi instrumental;
- nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan integrativ;
-kasbiy faoliyat olib boriladigan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy muhitni tushunishni o‘z ichiga olgan kontekstual;

- moslashuvchan, o‘zgarishlarni oldindan bilish va ularga tayyor bo‘lish qobiliyatini rivojlantirishni ta‘minlash;

- kommunikativ, yozma va og‘zaki muloqot vositalaridan samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirish.

Ijtimoiy soha mutaxassisining kasbiy ta‘limi ma‘lum ijtimoiy munosabatlarni ham shakllantiradi, masalan:

- kasbiy o‘ziga xoslik (kasbiy sotsializatsiya jarayoni orqali kasbiy me‘yorlar va majburiyatlarni qabul qilish);

- kasbiy etika (kasbning axloqiy me‘yorlarini o‘zlashtirish);

- martaba o‘yicha raqobatbardoshlik;

- ilmiy takomillashtirish (mavjud bilimlarni tekshirish va tadqiqot orqali yangi bilimlarni olish zarurligini anglash);

- o‘qishni davom ettirish uchun motivatsiya (zamonaviy talablar darajasida bilim va kasbiy ko‘nikmalarni saqlab qolish istagi)[4].

Bundan tashqari, ijtimoiy ishchi hayotdagi munosabatlar va yuzaga keladigan muammolarga tayyor yechimlar mavjud bo‘lmagan holatlar bilan shug‘ullanadi. Bizning fikrimizcha, ushbu faoliyatning o‘ziga xosligi shundaki, bir tomondan, ijtimoiy ishchi inson hayotidagi sezilarli o'zgarishlarni ta‘minlaydi, ikkinchi tomondan, u mijoz o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirishi uchun mavjud barcha imkoniyatlardan keng foydalanadi.

Jamiyatimiz ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash muammosiga tobora ko‘proq duch kelmoqda. Ijtimoiy ishni boshqarishda xodimlar katta rol o‘ynaydi. Tashkilot yoki muassasaning barcha keyingi faoliyatining samaradorligi xodimlarning qanday tayyorlanishiga va ularning kasbiy mahoratiga bog‘liq. Tashkilotning raqobatbardoshligi, uning yashashi va gullab-yashnashining asosiy omili - bu xodimlarning sifati va ularning mehnatga munosabati, ya‘ni xodimlarning kasbiy mahorati va ijodiy salohiyati darajasi.

Ijtimoiy ish mutaxassislarini kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash samaradorligini oshirish sohasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mutaxassislarni tayyorlash sifatini doimiy oshirish bilan bir qatorda qator muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Xususan, kasbiy tayyorgarlik mazmuni ijtimoiy ishdagi umumiy va xususiylikni, umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi va mintaqaviy va axloqiy xususiyatlarni har doim ham hisobga olmaydi. O‘quv jarayonida amaliy mashg‘ulotlarga kam e‘tibor beriladi, mutaxassisning amaliy mashg‘ulotlarining mazmuni va uslubiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shu bilan birga, ijtimoiy soha xodimlarini tayyorlashda muayyan muammolar mavjud, xususan: oliy ta‘limning tijoratlashuvi quyi ijtimoiy qatlamlardan bo‘lgan

qobiliyatli yoshlar uchun to‘siqlar yaratadi; OTMlarning eskirgan moddiy-texnik bazasi axborot texnologiyalariga mos kelmasligi; ta‘lim qiymati oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi diplom qiymatiga almashtirilsa; Yoshlarning intellektual salohiyati pasayib bormoqda, talabalarning mehnatga, ilmiy faoliyatga, ijtimoiy-siyosiy faoliyatga munosabati yo‘qolmoqda [5].

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlash bir qancha istiqbollarni namoyon etadi. Ya‘ni ijtimoiy ish xodimlari mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun nafaqat aniq bir individga, ma‘lum bir guruhga, balki jamiyat va davlat uchun zarur va muhim hisoblanadi. Shuni aytib o‘tish joizki, mamlakat ijtimoiy siyosatining yutuqlaridan biri ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimining vujudga kelishi, aholi bilan ishlashda fuqarolarga natijali ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish imkonini beruvchi zamonaviy usul va texnologiyalardan keng foydalanish hisoblanganligi sababli hududiy ijtimiy xizmatlarni ko‘rsatish, ijtimoiy ish, ijtimoiy pedagogika sohalarida mutaxassislarni tayyorlash tizimi rivojlantirildi. Shuni ham qo‘shimcha qilish joizki, ijtimoiy ish sohasidagi mutaxassislar faoliyatini tavsifi ularga nisbatan talabning yuqoriligi haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Respublikaning bozor iqtisodiyoti tizimiga kirishning o‘zi ijtimoiy ishchilarga nisbatan ehtiyoj paydo bo‘lishini ta‘minlagan. Bundan tashqari, bugungi kunda respublikadagi barcha faoliyat yurituvchi ijtimoiy boshqarish organlarida ijtimoiy ma‘lumotga ega bo‘lmagan mutaxassislar ishlab kelmoqda edilar. Ijtimoiy ishchilarni hamda ijtimoiy ish mutaxassisi bo‘lish istagini bildirgan shaxslarni mazkur sohada va boshqa turli ta‘lim shakillari bo‘yicha tayyorlanishi respublikada davlat ijtimoiy siyosati bo‘yicha kadrlarni ta‘minlash borasidagi muammolarning hal etilish imkonini berdi.

Mazkur sohada kadrlar tayyorlashning intensivligini yanada oshirish uchun asosiy e‘tiborni ularning ta‘lim olish jarayoniga qaratish lozim, ya‘ni oliy o‘quv yurtlarida talabalarni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

REFERENCES

1. Bekmurodov M.B. Yuqori malakali ijtimoiy xodimlarni tayyorlashda ta’lim muassasalarining roli / “Inklyuziv ta’lim va bolalarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash shakllarini rivojlantirishning hozirgi tendensiyalari” xalqaro forumi materiallari. 2008-yil 28-29-oktyabr – Toshkent: Respublika bolalar moslashuvi markazi, 2008. – 125-126 b

2. M.X. G’aniyeva, N.M.Latipova, I.Negmatov, L.N.Jo’rayev, M.B.Sherov, U.U.Abdurahmonov, Z.R.Ergashev. Ijtimoiy ish etikasi. – Toshkent.: “Fan va texnologiya” 2015.-436 b
3. Sultonali Mannopov. Ijtimoiy ish xodimining kasbiy asoslari va etikasi.Farg’ona.:2012.-132 b
4. Q.N.Qayumov. Ijtimoiy ish tarixi. – Toshkent.: 2013.-385 b
5. http://www.science-education.ru/ru/article/view.id
6. https://moodle.kstu.ru Особенности социального профессионального образования за рубежом
7. См.: Введение в профессию «Социальная работа»: учеб. пособие / М. В. Фирсов, Е. Г. Студенова, И. В. Наместникова. М., 2011. С. 157.
8. Червякова Г. А. Введение в профессию «Социальная работа»: учебник для студ. учреждений высш. проф. образования / Г. А. Червя- кова. М.: Академия, 2012.
9. Social work and social welfare. P. 30, 35
10. М. Проблемы высшего образования в современном российском обществе // Современные проблемы науки и образования. 2009. №6-2. URL: http://www.science-education.ru/ru/article/view.id

BOLALAR VA O‘SMIRLAR O‘RTASIDA DEVIANT XULQNING SHAKLLANISHI

Dildora Olimjonovna Axmedova
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi, PhD sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Charos Durdiyeva
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy ish yo‘nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada deviant xulqning bolalarda va o‘smirlarda shakllanish sabablari ko‘rib chiqildi.Bu borada deviant xulq tushunchasiga urg‘u berildi.Hozirgi kunda bolalar va o‘smirlarda deviant xulqning bartaraf qilish usullari haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Deviant xulq, delinkventlik, og‘ish, bolalar, o‘smirlar, anomiya, asteniklar, shizoitlar.

ABSTRACT:

In this article, the reasons for the formation of deviant behavior in children and adolescents were considered. In this regard, the concept of deviant behavior was emphasized. Brief information was given about the ways to eliminate deviant behavior in children and adolescents today.

Keywords: Deviant behavior, delinquency, deviation, children, adolescents, anomie, asthenics, schizoids

Zamonaviy dunyoda deviant xatti-harakatlar muammosi ayniqsa keskin rivojlanib bormoqda. Jamiyatda bunday shaxslarning rivojlanishi ko‘plab qonunbuzarliklarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy tengsizlik,ommaviy globallashuv,axborotdan erkin foydalanish,demokratiyaning rivojlanishi,ijtimoiy hodisalar ko‘pincha o‘smirlar muhitida salbiy reaksiyalarning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi.

Aristotel (miloddan avvalgi 384-322) odamlarning xulq atvori xilma xilligini sababini ijtimoiy iqtisodiy omillar bilan izohlab shunday degan edi: “Odamlar shunday hayot kechiradiki, qanday ehtiyoj borki, ularni olib borishga majbur qiladi”[1]. O‘sha davrda ham moddiy qiyinchiliklar bo’lganligi sababli turli xil ishlarga qo‘l urishgan deya izohlashimiz mumkin. Deviant xulq-atvor falsafiy muammo sifatida XIX asring ikkinchi yarimidan boshlab o‘rganila boshlandi. Bu o‘rinda bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ulardan biri Zamonaviy deviant antalogiyasining asoschisi Emil. Dyurkgeym (1858-1917) o‘zining “O‘z joniga qasd qilish“ (1897) asarida og‘ish

sabablarini ko‘rib chiqib “ Anomiya “tushunchasini kiritdi[2]. Anomiya so‘ziga ta’rif beradigan bo‘lsak -qonunsizlik, me’yorlarning yo‘qligi degan ma’noni anglatadi.Bunda ko‘rishimiz mumkinki qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlar tizimining parchalanishi sodir bo‘lgan jamiyat holatini ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin. ”Deviant” xulq atamasi muallifi Ya. I . Giliniskiy 1934-yil ijtimoiy normalar pazitsiayisidan chetlanishni hisobga olib ijtimoiy norma “muayyan jamiyatda tarixan belgilangan chegara”, ”o‘lchovdir” degan xulosaga keldi.Haqiqatdan aytishimiz mumkinki bu norma bugun yoki kecha emas balki asrlar davomida mohiyatini shakllantirib borgan[3].

Ma’lumki, insoniyat tarixining dastlabki davrlarida ijtimoiy deviantlik va xulq-atvor og‘ishining yuz berish jarayonlari axloqsizlik sifatida qaralgan va asosan diniy me’yorlar orqali tartibga keltirib turilgan. Turon xalqlari ham qadim-qadimdan ijtimoiy deviantlik holatlariga salbiy munosabatda bo‘lishgan va ushbu munosabat zardushtiylik, budda va boshqa qadimgi Turonda mavjud boshqa diniy ta’limotlarda aks etgan. Ushbu davrlarda ham deviantlikni to‘xtatish uning rivojlanishini kamaytipиsh asosiy muammolardan biri bo‘lgan. Ijtimoiy ishning shakllanishi o‘sha davrlardan boshlangan bo‘lib hozirda juda rivojlanmoqda.

Deviant xulq ikki guruhga bo‘linadi:

1.Ruhiy salomatlik me’yorlaridan og‘uvchi xulq: bunda inson aniq yoki yashirin ruhiy nuqsoni bor shasxlar.Bu guruhga asteniklar(jismoniy va ruhiy zaif odamlar), shizoitlar, tutqanog‘i bor shaxslar kiradi.

2.Inson ijtimoiy hayotining ma’naviy -axloqiy meyorlaridan og‘uvchi xulq. Bu guruhga ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik kabi harakatlarni sodir etuvchi shaxslar kiradi.

Deviant xulq atvor turlaridan biri bu fohishabozlik. Bu fanda rasmiy nikohsiz jinsiy aloqa ikkita turga bo‘lib o‘rganiladi.

1.Konkubinat-nikohsiz birga yashash

2.Fohishabozlik-pul uchun o‘z tanasini sotish.

G‘arbda asosan ikkinchisi qoralansada,Sharqda ikkala holatga ham me’yordan og‘ish sifatida qaraladi. Chunki sharqda madaniyat, sharm-hayo, axloq-odob juda ulug‘ qadrlanadi.

So‘ngi yillarda jamiyatimizda sodir bo‘layotgan jinoyatlarni ko‘p qismi yoshlar va o‘smirlar tomonidan sodir etilayotgani kuzatilmoqda. Bu esa yoshlar va ўsmirlar o‘rtasida deviant xulq -atvor muammosiga qiziqish sezilarli darajada oshganidan dalolat.Natijada deviant xulq-atvor shakllanishining sabablarini o‘rganishni taqozo etdi. Ayni vaqtda deviant xulq- atvorning shakllanish bosqichi asosan oilada kuzatilmoqda . Ekspertlarning xulosasiga ko‘ra bunday muammoga duch kelayotgan yoshlarning ko’p qismi o‘ziga to‘q oiladan ekanligi aniqlandi.Buning sababi esa oilada farzand tarbiyasiga e’tiborning kamligi va o‘zi istagan mashg‘ulot bilan band bo‘lganligi.Bu esa tabiiy holdir :chunki bola nimanidir xohlasa o‘z xohishi bilan emas ota- onasi orqali erishgan

va har qanday holatda e’tibordan chetda qolish holatlari kuzatilgan. Ko‘rishimiz mumkinki jamiyatimiz orasida to‘qlikka sho‘xlik holatlarini ham kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda nafaqat to‘q oila vakillari balki o‘rta qatlam, quyi qatlam vakillari farzandlarida ham ushbu holatlarni kuzatishimiz mumkin.

Deviant xulq-atvor eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biridir. Og‘ish salbiy va ijobiy bo‘lishi mumkin. Og‘ish jamiyat uchun turli xil oqibatlarga olib keladi.Salbiy deviant-xulq atvor jamiyat tomonidan ma’lum rasmiy va norasmiy jazo choralarini qo‘llashga olib keladi.Ijobiy og‘ishlar ko‘radigan bo‘lsak, jamiyatning ilg‘or rivojlanishiga ,tashkiliy darajasini oshirishga olib keladi. Ko‘rinib turibdiki, jamiyat ko‘pincha ushbu muammolarga duch kelayotganligi sababli, deviant xulq atamasi faqat salbiy tomondan qabul qilinadigan bo‘lib qoldi. Ushbu deviantlar ijtimoiy asoslarni buzadi va jamiyatni tubsizlikka tortadi. Ammo, agar siz o‘ylab ko‘rsangiz, insoniyatni oldinga siljitadigan deviantlar ham bor.Leonardo Da Vinchi, Eynshteyn, Aristotel, Nyuton, Yesenin, Lomonosov va boshqalar shubhasiz deviant bo‘lganlar, ammo shu bilan birga ular butun insoniyat tarixiga ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va madaniy yutuqlarni olib kelishdi[4].

O‘smirlarning deviant xulq-atvori sabablari Me’yordan chetga chiquvchi xulq-atvor murakkab tabiatga ega bo‘lib, turli xil omillar bilan izohlanadi. Voyaga yetmaganlarning deviant xulq-atvorini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilardir:

1. Biologik omillar bola organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anatomik xususiyatlarning borligida o‘z ifodasini topadi. Ularga quyidagilar kiradi: -irsiy xususiyatlari; -aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko‘rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi va boshqalar; -organizmga psixofiziologik zo‘r berish, nizoli holatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, turli somatik, allergik, toksik kasallanishlarga olib keluvchi, ya’ni quvvat manbalari bilan bog‘liq bo‘lgan psixofiziologik xususiyatlar.

2. Psixologik omillar. Bularga bolada psixopatologiya yoki xarakterining aksetkatsiyasining borligi kiradi. Bu me’yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari, psixopatiya, nevrasteniya va bolada g‘ayriadekvant reaksiyalarni paydo qiluvchi boshqa omillarda namoyon bo‘ladi.

Aytishimiz joizki deviant xulq atvor bu bugun emas balki yillar davomida shakllanib, rivojlanib boradi. Farzand tarbiyasiga vaqtida e’tibor qaratmasak bu kelajakda o‘z ta’sirini ko‘rsatishi mumkin.Oiladagi har qanday ijtimoiy o‘zgarish vaqtida yechim topilmasa uning salbiy oqibatlari farzandlarimiz tarbiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqimiz bejiz “Qush inida ko‘rganini qiladi “ deb aytmagan. Bu naqlning tagida qancha ma’no bor. Oilada sog‘lom muhit to‘g‘ri tarbiya rivojlantirilsa ushbu oiladagi farzandlar xulqida og‘ishlar past ko‘rsatkichlar bilan baholanadi, shunday ekan har birimiz farzandimiz tarbiyasiga bee’tibor bo‘lmasligimiz kerak.

Darhaqiqat, jamiyat rivojlanar, yuksalar ekan o‘ziga yarasha ehtiyojlari ’ xohishlari soni ortib boraveradi. Har kim o‘zi uchun kurashadi, uning qandaydir xatti-harakati jamiyatning boshqa bir vakili uchun zarar yetkazishi haqida o‘ylab ham ko‘rmaydi. Shunday ekan qilayotgan har bir xatti harakatimiz boshqa bir insonning hayot faoliyatiga ta’sir qilishi haqida oz bo‘lsa ham o‘ylab ko‘rishimiz kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki bolalar tarbiyasidagi turli xil og‘ishlarga sabab bo‘luvchi omillar:nazoratsiz qolish , e’tiborsizlik, mehr bermaslik , hamda oiladagi nosog‘lom muhit kabilarni aytishimiz mumkin.Oiladagi shunday bir holatlar borki u ko‘p e’tibor tortmaydi va har bir oiladagi doimiy holat desak ham bo‘ladi lekin bu bola tarbiyasidagi buzilishlarning ilk qadami hisoblanadi.Yani bu e’tiborsizlikdir.Agarda biz farzandlarimizga yoshligidan tarbiyani , qadriyatlarni o‘z o‘rnida qo‘llasak farzandimiz tarbiyasi mustahkam bo‘lib shakllanadi. Shuning uchun farzand tarbiyalayotganimizda e’tiborni va nazoratni to‘g‘ri qo‘yishimiz kerak.

Ma’lumki, oiladagi sog‘lom muhit, ota-onalar va boshqa oila a’zolarining madaniy, aqliy, axloqiy va ma’naviy kamolotlari bolaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning bilim va savodxonligi bolalarning noqonuniy, g‘ayritabiiy xatti-harakatlarining oldini olishda muhim yordamdir.Bolalar va o‘smirlar o‘rtasida deviant xulqning oldini olishda ota-onalarning pedagogik qobiliyati, tarbiyasi,aqliy va axloqiy salohiyati muhim rol o‘ynaydi desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

REFERENCES:

1. Arastu. Poetika. Axloki kabir. Ritorika. T.: Yangi asr avlodi, — 2011. –B. 5.
2. Дюркгейм Э.Самоубийство:Социологический этюд.- М: Мысл,1994
3. Дюркгейм Э.О разделении труда.Метод социологии. — М Наука,1990
4. Clayburgh YA Osnovy psihologii sotsialnoy raboty s deviantnymi podrostkami (Deviant o‘smirlar bilan ijtimoiy ish psixologiyasining asoslari): Monografiya. Rossiya Ichki ishlar vazirligining Krasnodar universiteti, 2007. 416 p.
5.Clayburgh YA Osnovy psihologii sotsialnoy raboty s deviantnymi podrostkami (Deviant o‘smirlar bilan ijtimoiy ish psixologiyasining asoslari): Monografiya. Rossiya Ichki ishlar vazirligining Krasnodar universiteti, 2007. 416 p.
6. Pozhar L. Psixologiya anomalnyh bolalar va podrostkov patopsihologiya (Anormal bolalar va o‘smirlar psixologiyasi, pato-psixologiya). Voronej: MODEK; Moskva: IPP, 1996. 128 p.
7. Ганиева М.Х.Введение в социалную раблту- Ташкент;НУУз,2011

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УРЕГУЛИРОВАНИЯ ГЕНДЕРНЫМИ КОНФЛИКТАМИ В СЕМЬЕ

Севара Юсупова
Преподаватель Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

АННОТАЦИЯ

В настоящее время, при анализе взаимоотношений, как на социальном, так и на трудовом уровне, равенство гендера не оспаривается, но при этом многие социальные науки уделяют большое внимание такой проблеме, как гендерное самоопределение.Это связано с тем, что, принимая свой гендер, индивидуум принимает на себя принятые в обществе принципы поведения, а также способ выражения эмоций, демонстрации своих намерений и высказывание своего мнения.

Ключевые слова: личность, гендер, социум, гендерное поведение, стереотип, конфликт, интеллект, пол

ANNOTATION

Currently, when analyzing relationships, both at the social and labor levels, gender equality is not disputed, but many social sciences pay great attention to such a problem as gender self-determination. This is due to the fact that by accepting one’s gender, the individual accepts the principles of behavior accepted in society, as well as the way of expressing emotions, demonstrating his intentions and expressing his opinion.

Keywords: personality, gender, society, gender behavior, stereotype, conflict, intelligence, gender

Для формирования объективного восприятия гендера, без формирования стереотипного мышления, требуется в первую очередь всестороннее развитие личности человека. «Личность – это сети актуальных и потенциальных взаимодействий между индивидом и средой. Не может быть личности без мира, в котором можно действовать, – и не может быть поведенческого мира в отрыве от личности, которая этот мир выстраивает. Только через этот процесс взаимодействия человек развивается как личность» [1].

В психологии понятие гендера определяется как полярность мужского и женского субъекта, которая оценивается не с точки зрения биологического вида, но как элемент социума, в котором функционируют и взаимодействуют отдельные индивидуумы[2].

С точки зрения Л.В. Мищенко, в биологии, разделение на мужчин и женщин основывается на таком понятии как пол или половая принадлежность. Это

означает, что разделение всей численности людей осуществляется на основании первичных и вторичных половых признаках, то есть на основании полового диморфизма.

В условиях социума, разделение осуществляется не столько на основании биологических аспектов, сколько на основании личности человека, то есть разделение идет, опираясь на гендерные различия мужчин и женщин.

Один из ведущих идеологов гендерной революции Д. Батлер в своих работах отмечает, что половая принадлежность человека, которая рассматривается только с точки зрения биологии, является вымышленным конструктом. Реализация данной принадлежности формируется в процессе воспитания и взросления человека под влиянием социума. Гендерное самоопределение человека формируется как конструкт или аспект его поведения на добровольной основе, без учета влияния природы и биологии, что позволяет утверждать отсутствие равенства между понятиями пол и гендер.

Взрослый человек может сам определять свою половую принадлежность и факторы, связанные с ней. При этом, с учетом уровня развития социума и науки, он можно не опираться на биологический признак, а только на уровень собственного гендерного развития [3].

С данным утверждением можно согласиться с оговоркой, что гендерное самоопределение связано не столько с желанием изменить свой пол, сколько со стремлением изменить восприятие гендера, как биологического вида, с присущими для каждого вида типажами поведения и реакции. Данное связано с сформированными с течением развития социума стереотипами в реакции, поведении и психике каждого пола, которые с развитием социологии в той или иной степени были перенесены на гендер, связанный с данным полом.

Также нельзя отрицать, что с точки зрения психологии, понятие «гендер» определяется как социально-биологическая характеристика индивидуума, при помощи которого общество дает определение таким понятиям, как «мужчина» и «женщина». С учетом того этого, многими социальными психологами определяются гендерные различия мужчин и женщин на основании биологического восприятия пола, используя это, как половую дифференциацию[4].

На основании этого можно сделать вывод, что в настоящее время присутствует потребность в формировании интегрированного подхода в исследовании гендера и поведения мужчин и женщин, как сложной системы, которая имеет много уровней строения и неоднозначную систему связей. Использование данного подхода даст возможность для формирования «многоплановой, многоуровневой, многомерной детерминации, включающей явления разных порядков»[5].

Это позволит углубить знания, которые существуют в настоящий период времени в сфере изучения гендера и гендерного поведения и позволит более полно использовать полученные результаты во всех сферах изучения социального взаимодействия в целом, и в конфликтологии в частности.

Исследование гендерных взаимоотношений все больше переходит в фокус изучения гуманитарных и социальных наук, что позволяет снизить степень влияния стереотипного и биологического восприятия пола, как фактора определяющего человеческое поведения и мотивацию. При этом нельзя забывать, что разные науки по-разному воспринимают гендерное самоопределение, определяют его важности и, как следствие, сензитивность включения гендерных аспектов в области проводимых исследований.

Это связано с тем, что в социологии понятие гендера начало отделяться от понятия биологического пола с целью определения принципов выстраивания взаимодействия между отдельными индивидами.

При этом существенное внимание уделяется таким аспектам взаимодействия, как построение отношений, конфликты, объединение в группы, развитие восприятия противоположного гендера и перенос отдельных аспектов поведения на группу и социум, в соответствии с гендерным самоопределение отдельного человека и группы лиц.

Также стоит отметить утверждение Т. Булавиной, которая в своих трудах отмечает, что «самое интенсивное распространение гендерных исследований происходит через социологию» [6].

Проблематика гендерных взаимоотношений с точки зрения разделения гендерных ролей в труде в частности и в социуме в целом осуществлялось в работах Э. Дюркгейма. С его точки зрения, развитая дифференциация, как в культурных различиях, так и в физических между мужчинами и женщинами, увеличивается с развитием общества, хотя с точки зрения формирования социального интеллекта, данный процесс должен иметь обратное направление[7].

Наличие внутренних психологических проблем или неустроенности личной жизни переносится на трудовые взаимоотношения, в виде выплескивания отрицательных эмоций на окружающих, а также в виде переноса отношения к определенному человеку, на всю группу лиц, которые имеют те же признаки.

В случае повышенной уязвимости, женщина в ситуации стресса и подавленности не только переносит весь фокус своего внимания на решение проблемы, но и пытается сфокусировать на этом свое окружение на всех уровнях взаимодействия с социумом.

Мужчины при повышении уровня стресса стараются отгородиться от негативной реакции и переживаний, переключая фокус своего внимание на

решение трудовых или личных проблем, которые не связаны со стрессовой ситуацией.

Нельзя сказать, что данная тактика является оптимальной, так как в дальнейшем, накопленный отложенный стресс приведет к более агрессивной реакции в случае усиления стрессовой ситуации или развития стресса в другой сфере их жизни. В результате этого развитие конфликта будет осуществляться в геометрической прогрессии без объективной оценки фактора конфликта[8].

Bolalarga nisbatan zo’ravonliklarni oldini olish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi va YUNISEF “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini taqdim etdi. Hujjatda bolalarga nisbatan zo‘ravonliklarning turlari-jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling kabilarga ta’rif berilgan. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini sodir etish taqiqlanadi hamda qonunga binoan ta’qib qilinadi. Shu bilan birga loyihada sohadagi vakolatli organ sifatida prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning hududiy bo‘linmalari ko‘rsatilgan. Qonun loyihasida zo‘ravonlikdan himoya qilish faoliyatiga quyidagi davlat organlari va tashkilotlari: hukumat, Bolalar ombudsmani, Ijtimoiy himoya milliy agentligi; prokuratura organlari, ichki ishlar organlari, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi; mahalliy hokimiyat organlari va boshqalarning bevosita mas’ulligi belgilab qo’yilmoqda. Qonun loyihasining 42-moddasiga ko‘ra, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishda ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga ham bir qancha mas’uliyatlar yuklatilgan. Xususan, ular bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, bolaga o‘z burchlari, huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishni tushuntirishi kerak, deb belgilanmoqda. Bolalarni pornografiya, shafqatsizlik va zo‘ravonlikni namoyish etuvchi axborotdan himoya qilish choralarini ko‘radi. Shuningdek, ota-ona yoki uning o‘rnini bosuvchilar bolalarni tarbiyalashda ularni jismoniy jazolashi taqiqlanadi. Ushbu qonun loyihasi 27-oktyabrga qadar davom etadi. Albatta fuqarolarimiz qonun loyihasi bo’yicha o’z takliflari berishi muhimdir [7].

Jamiyatda bolalarga nisbatan zo’ravonlik nafaqat oilada, balki u o’qiydigan maktab yoki atrof- muhitda ham sodir etilayotgani achinarli holdir. Bugun Bulling dunyo bo’ylab o’quvchilar hayotining bir qismiga aylanib borayotgani sir emas

albatta. Bulling hamma joyda va har qanday vaqtda bo'lishi mumkin: kundalik hayotda, yozishmalarda yoki ijtimoiy tarmoqlarda. Bu nafaqat bolaning o'qishga diqqatini qaratishga to'sqinlik qiladi, balki uzoq davom etadigan ruhiy jarohatlarga ham olib kelishi mumkin. Demak, biz aholimizga bu zo’ravonlik haqida yetarli ma’lumotlarni yetkazib berishimiz va bullingni to’xtatishimiz zarur deb o’ylayman. Umuman aytganda bolalarga nisbatan zo’ravonlikni oldini olish uchun quyidagilarni taklif etish mumkin:

a) aholinini huquqiy savodxonligini kuchaytirish;

b) jamiyat a’zolarining qarashlarini o’zgartirishimiz (loqayd, befarq bo’lmaslik);

c) zo’ravonlikka qarshi kurashish ko’nikmalarini ishlab chiqish;

d) OTM barcha yo’nalishi talabalariga bola huquqlari fanini o’qitish maqsadga muvofiq bo’lar edi.

REFERENCES:

1. https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/13/gender-based-violen /
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Zoravonlik
3. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun 2019-yil 2-sentyabr
4. Насилие в отношении детей в семьях в Казахстане: исследование знаний, отношения и практики. Краткий аналитический отчет. Астана, 2017 год
5. https://ria.ru/20100317/214971297.html
6. https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/10/violenc
7. https://kun.uz/137

KADRLAR KOMPENTENTLIGINI OSHIRISHDA ETNOMADANIY XUSUSIYATNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Abbos Gulmurod o‘g‘li Gulmurodov
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish kafedrasi tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA:

Maqolada kadrlar malakasini oshirish uchun etnikmadaniy xususiyatlardan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari o‘rganiladi. Muallif xodimlarning etnik-madaniy moslashuvi va ularning xodimlarning ish sifatiga ta’sirining asosiy tushunchalari va yondashuvlarini tahlil qiladi. Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlariga etnikmadaniy jihatlarni joriy etish metodikasini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maqolada, shuningdek, xodimlarning malakasini oshirishda etnik-madaniy yondashuvlar samaradorligini ko‘rsatadigan muvaffaqiyatli amaliyotlar va tadqiqotlar muhokama qilinadi. Xulosa tashkilotda yaxshiroq natijalarga erishish uchun etnik-madaniy xususiyatlarni inson resurslarini boshqarish strategiyalariga integratsiyalashuviga tizimli yondashuv zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Nazariy asoslar, metodologik asoslar, etnomadaniy xususiyatlar, kadrlar kompetensiyasi, moslashuv, o‘qitish, ishlab chiqish, metodologiya, amaliyot, xodimlarni boshqarish.

ABSTRACT:

The article explores the theoretical and methodological foundations of utilizing ethnocultural characteristics to enhance personnel competency. The author analyzes key concepts and approaches to ethnocultural adaptation of personnel and their impact on employee performance quality. Special attention is given to developing a methodology for integrating ethnocultural aspects into personnel training and development processes. The article also discusses successful practices and studies demonstrating the effectiveness of ethnocultural approaches in enhancing personnel competency. The conclusion underscores the necessity of a systematic approach to integrating ethnocultural characteristics into personnel management strategies to achieve optimal organizational outcomes.

Keywords: Theoretical foundations, methodological foundations, ethnocultural characteristics, personnel competency, adaptation, training, development, methodology, practices, personnel management.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Millat – kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birlikdir” [1] – deb ta’riflanadi. Nazarimizda bu ta’rif millatni faqat hudud, til, iqtisodiy hayotga bog‘lab, shaxslararo munosabatlar tizimida o‘zlikni anglashga e’tibor qaratilmaydi.

Faylasuf olim J. Tulenov fikricha, “Millat – ijtimoiy-etnik birlikning jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichlariga xos bo‘lgan shakli hisoblanadi. Har bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qat’iy nazar, eng avvalo, o‘zining milliy ong va psixologiyasida ifodalanadi. Muayyan jamiyatda istiqomat qiluvchi har bir millatning ma’naviy qiyofasi o‘sha jamiyat moddiy, ijtimoiy-tarixiy sharoitlariga qarab o‘zgarib boradi” [2] – degan ta’rifi millatning ruhi, uning etnomadaniy xususiyatlari bilan bog‘likligini e’tirofidir.

Q.Nazarov fikricha, “Millat – insoniyat taraqqiyotining sifat bosqichiga ko‘tarilgan davriga xos, etnosning sifat jihatidan yaxlit, umumiy milliy xarakterga ega bo‘lgan ko‘rinishidir. Millat – etnoslarning etnik sifatiy taraqqiyot mahsulidir” [3] – degan ta’rifida etnomadaniy xususiyatlar va milliy qadriyatlar uyg‘unligiga alohida e’tibor berilgan.

Etnograf olim K.Shoniyozovning, “elat bilan millat atamalari hali fanda to‘la takomillashgani yo‘q” [4] - degan fikrida tarixiy tahlil yetakchilik qiladi. Bu bir tomonlama yondashuv bo‘lib, millat tushunchasini to‘la ochib berolmaydi.

Xorij olimlari ham millat tushunchasiga o‘z qarashlarini bayon etib o‘tgan. Xususan, R. Shpringler ta’rifi bo‘yicha: “Millat – bu bir xil fikrlovchi va bir xil so‘zlashuvchi shaxslarning madaniy birligidir” [5]. Avstriyalik olim Otto Bauerning fikriga ko‘ra “Xarakter va taqdirning umumiyligi – bu millatning asosiy belgilaridandir” [6]. Mazkur qarashlarda millat tushunchasi shaxs xarakteri tafakkur uslubi bilan uyg‘un bo‘lib, unda ijtimoiy muhit siyosiy jarayonlar ta’siriga e’tibor qaratilmaydi. Tadqiqotchi fikricha o‘zbek mualliflari ijodida millatning ruhiga siyosiy tuzum, ijtimoiy madaniy hayotning ta’siri ustuvor bo‘lsa, g‘arbda esa individual tafakkur ustuvorligi namoyon bo‘ladi. Millatning ruhida mamlakatning ijtimoiy madaniy hayoti, mafkurasi ta’sirida shakllangan etnomadaniyat namoyon bo‘ladi, yetuk kadrlar tayyorlashda etnomadaniy omillar ustuvorlik qiladi.

Rus olimi O.Chernix fikricha, “Bugungi kunda millatlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa tobora yaqinlashibbormoqda [7]. Olimning fikricha, millat – uzoq tarixiy ildizga ega ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda o‘ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida shakllanib kelayotgan hamda o‘zligini saqlab turgan ijtimoiy birlikdir. Millatni til, hudud va etnomadaniy jihatdan birlashtiruvchi

omillarga ijtimoiy manfaatdorlik, iqtisodiy va xo‘jalik shakllarining bir butunligi, ma’naviyat va madaniyatlar uyg‘unligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlari negizida umumiy qarashlarning mavjudligi asoslanadi.

Bugungi kunga kelib millatlar hajm, katta yoki kichikligi bilan emas, aslida u yaratayotgan intelektual qadriyatlar, turli madaniyat shakllari bilan baholanadi. Shunday ekan millatning etnomadaniy jihatdan o‘zligini saqlashi zamonning turli siyosiy bo‘ronlaridan o‘tishi, shakllanib kelayotgan yangi avlodning etnik tafakkurini rivojlanish darajasi bilan baholanadi. Zero, millat genofonini ham jisman, ham ma’nan asrab-avaylash bugungi globallashuv sharoitida muhim strategik vazifa bo‘lib qoladi.

O‘zbek etnomadaniyatining yetuk kadrlarni tarbiyalash sohasidagi zamonaviy nazariy-metodologik omillarini ilmiy tadqiq etishda ikki jihatni e’tiborga olish lozim: birinchisi - xalqning an’anaviy shakllangan turmush tarzi bo‘lsa, ikkinchi jihat, ana shu an’anaviy turmush tarzida ro‘y berayotgan o‘zgarishlardir. Ushbu tadqiqot mazkur ikki jihatning etnomadaniy mutanosibligi muammosini tadqiq etishga qaratilgan.

REFERENCES:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -Toshkent: 2006, 2-jild, - B. 593.
2. Tulenov J. Istiqlol va millatlararo munosabatlar taraqqiyoti. –Toshkent: 2005, -B. 7.
3. Nazarov N.A. Jamiyatda milliy-etnik jarayonlar rivojining siyosiy-falsafiy tahlili. Siyosiy fanlar dok. diss. –Toshkent: -2005. –B. 31.
4. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent, 2001. –B. 77.
5. Шпринглер Р. Национальная проблема (борьба национальностей в Австрии). СПб., 1909, Стр. 285.
6. Бауер О. Национальный вопрос и социал-демократия. СПб., 1909. Стр. 117.
7. Черных О.О. Этно-социальные конфликты в структуре информационного общества: социально-философский анализ. Автореферат диссертации канд. филос. наук. –Москва: 2014, Стр. 3.

YOSHLAR TARBIYASI IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA

Dildora Olimjonovna Axmedova
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi, PhD sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Madinabonu Inomjonova
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy ish yo’nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yoshlar jamiyatimizda duch keladigan ijtimoiy muammolar va ularning tarbiyaga ta’siri haqida qisqacha ma’lumot keltirilgan. Bunda yoshlar tarbiyasiga va ularda uchraydigan ijtimoiy muammolarga urg’u berilgan.

Kalit so’zlar: Tarbiya, yoshlar, ijtimoiy muammolar, giyohvandlik, ruhiy sinish, nosog’lom muhit, oila.

ABSTRACT:

This article provides brief information about the social problems faced by young people in our society and their impact on education. Emphasis is placed on the education of young people and the social problems they face.

Keywords: Education, youth, social problems, addiction, mental breakdown, unhealthy environment, family.

Jamiyat rivojlanib borar ekan undagi eng dolzarb va asosiy vazifa sifatida - yoshlar masalasi bo’lib qolaveradi. Chunki yoshlar kelajagimiz poydevoridir. Mamlakatimiz rivojlanishi va yuksalishi uchun bu juda muhimdir. “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”[1], deya ta’kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich. Shu o’rinda aytishimiz lozimki tarbiya berish bilan birgalikda ma’naviy dunyosini boyitishimiz, milliy qadryati, an’ana, e’tiqotini kuchaytirishimiz kerak. Inson avvolo kim ekanligini unutmasligi va o’zligini yo’qotmasligi lozim.

Bugungi kumda jamiyatning rivojlanishida tarbiyaning ahamiyati muhim unsur sifatida qaralmoqda .Bu masalaga bugun yoki kecha emas balki necha asrlardan beri e’tibor berib kelingan.Bunga yaqqos misol sifatida “Avesto”dagi qarashlarni olishimiz mumkin. Zardushtiylikning asosiy g’oyalariga ko’ra sahxsning axloqiy hislatlarga ega bo’lishi, adolat o’lkasidan qaror topishi bilan tengdir[2]. Bundan tashqari Qur’oni Karimda ham tarbiya masalalariga jiddiy e’tibor berilgan [3]. XIX-XX asrda buyuk mutafakkirimiz Abdulla Avloniy ham inson rivojlanishining har jabhalarida tarbiyaning muhim ekanaligini ta’kidlagan. Ya’ni “ Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot,yo najot-yo halokat,yo saodat-yo falokat masalasidir” ”[4]. Bundan ko’rishimiz mumkinki yoshlarga berilayotgan tarbiya uning yuksalishi uchun bir qadam yoki halokat sari elituvchi yo’l bo’lishi mumkin.

Bugungi kunda ommaviy madaniyatning keng yoyilishi ,axborot texnalogiyalarining rivojlanishi va globallashuv jarayonlari hayotning barcha sohalariga o’z ta’sirini ko’rsatmoqda.Buning natijasida esa yoshalr tarbiyasi ularning ijtimoiy faolligi va ruhiy ma’naviy olamida o’zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki bugungi kundagi yuzaga kelayotgan muammolarning ham asoschisi yoshlardir. Ayni vaqtda zamonaviy jamiyatdagi zamonaviy talablar yoshlardagi turli xil og‘ishlarga olib kelmoqda. Ya’ni yoshlardagi ijtimoiy muammolar nafaqat hozirgi kun uchun balki kelajagimizga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qo‘ymaydi. Yoshlar orasida kuzatilayotgan bunday ko‘ngilsiz muammolar qisman jamiyat tomonidan asosan esa oiladagi tarbiya asosida yuzaga keladi. Oiladagi nosog‘lom muhit natijasida bolalarning o‘tish , o‘spirinlik, bolog‘ot yoshlarida ayni dunyo qarashi kengaygan davrda tarbiyasida bir muncha og’ishlar kuzatilmoqda. Darhaqiqat yoshlar tarbiyasidagi o’zgarishlar ularni bir qancha ijtimoiy muammolar bilan yuzlashishiga olib kelmoqda. Aytishimiz joizki, hozirda yoshlarimiz duch kelayotgan ijtimoiy muammolar sirasiga:gihoxvandlik,spirtkli ichimliklarga ruju qo’yish, erta nikoh, migratsiya, zo’ravonlik , huquqbuzarlik,deviand hulqning shakllanishi, ishsizlik kabilarni keltirib o’tishimiz mumkin.Bularning barchasi tarbiyadagi bo’shliq va e’tiborsizlik natijasidir.

Tarbiyadagi ijtimoiy muammolar haqida gap ketar ekan: bunda nafaqat jamiyat balki oila ham sababchi hisoblanadi. Chunki inson avvolo oilada kamol topib sekin asta jamiyatga integratsiya qilib boradi.Biz qanchalik to’g’ri tarbiya ostida tarbiyalanar ekanmiz kelajagimiz ravnaqi uchun mustahkam poydevor bo’la olamiz!

Har bir yurtning asosoiy kuchi bu ma’naviy va aqliy jihatdan yuksalayotgan,kelajak rivojlanishi uchun o’z hissani qo’shadigan ulkan cho’qqilarni zabt qiladigan hamda vatan ravnaqi uchun o’z hissasini qo’shadigan – yoshlardir. Yoshlarimiz tarbiyasiga bir daraxt misolida qaraydigan bo’lsak , biz bugun ekkan

daraxt ertaga o’z mevasini beradi. U daraxtni qanday parvarish qilishimiz,qanday meva olishimiz o’zimizga bog’liq. Ko’zlangan natijaga erishishimiz uchun biz to’g’ri tanlov va e’tiborni yo’lga qo’yishimiz kerak. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib: “Bolalarimizni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz” [4]. Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz uchun dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi. Abdurauf Fitrat o‘z ijodida “Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq” [5] deya ta'kidlab o'tdi.

Tarbiya o'z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o'z farzandlarimizni baxti-saodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo'lib yetishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy qo'rg'oni bo'lmish o'z oilamizning mustahkamligini ko'rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol qilib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish kerak.

Xulosa qilib aytganda jamiyatimizni rivojlanishi uchun yoshlarimizni mafkurasini kengaytirishimiz va ularga tarbiyani to’g’ri yo’lga qo’yishimiz kerak.Farzandlarimizni ilm -fan va ta’lim tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o’z o’rnida tarbiya esa ma’naviyat bilan chambarchas bog’liqligini ko’rishimiz mumkin. Zero yoshlarimiz kelajak egalari hisiblanadi. Yoshlarimizning ta’lim tarbiyasida esa ma’naviy tarbiya muhim ahamiyatga ega. Tarbiyaning ilk qadamlari esa oiladan boshlanadi.Oilani jamiyatimizning kichik bir ijtimoiy guruhi sifatida tushunadigan bo’lsak,uning rivojlanishi jamiyatimizning va davlatimizning gullab -yashnashini ta’minlab beradi.Shunday ekan oilaning muqaddas dargoh ekanligini unutmasligimiz va farzandlarimiz tarbiyasiga be’etibor bo’lmasligimiz kerak.

REFERENCES:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020 yil 30-oktabr kuni mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi nutqi.
2. Avesto. Tarixiy - adabiy yodgorlik. A.Mahkam tarjimasi, T.:Sharq, 2001.-B.- 14, 18-19, 114-115, 184-185, 208, 214.
3. Kuroni Karim man’olarining tarjima va tafciri kitobi, Shayx Abdulaziz Mansur, Nashriyot: "Book Media Nashr", 2021 yil
4. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 u.
5. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2017 yil, 5-son.

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN XOTIN-QIZLARNI QAYTA IJTIMOIYLASHUVIDA “IJTIMOIY ISH XODIMI”NING VAZIFALARI

D. Yu. Samatova
Guliston davlat pedagogika instituti Ilmiy.tadqiqotlar, innovatsiyalar va pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i

ANNATATSIYA:

Mazkur maqolada jazoni ijro etish muassasasalaridan qaytgan xotin-qizlarni qayta ijtimoiylashuv jarayonidagi muammolar, ijtmoiy ish xodimining vazifalari, jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan ayollarning jamiyatga qayta tronsformatsiyasidagi ijtimoiy omillar, muammolar va ularga ko‘maklashuvchi ijtimoiy yordamning turlari, yo‘nalishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Jazoni ijro etish, ijtimoiy yordam, maxkuma, ijtimoiy adolat, sotsal xizmat, jazo, psixologik yordam, qayta moslashish

ANNATATION:

This article discusses problems in the process of socialization of women who returned from correctional institutions, the responsibilities of a social worker, social factors and problems of transformation of women who returned from correctional institutions into society, as well as the types and areas of social assistance that help them.

Keywords: Execution of sentence, social assistance, convict, social justice, social service, punishment, psychological assistance, rehabilitation.

Ayol... Dunyoda unga ko‘pgina ijobiy ta'riflar berilgan. Haqiqatan ham nozik hilqat vakilalariga qancha chiroyli ta'rif-u tavsiflar keltirsak, shuncha oz. U – mushtipar ona, sevikli yor, mehribon opa, mehribon singil.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda jamiyat a’zolarining ijtimoiy himoyasini to‘g‘ri tashkil etish va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator islohatlar amalga oshilidi. Bugun har bir fuqaro uzining irqiy, milliy, ijyimoiy kelib chiqishidan qatiinazar huquq va erkinliklari qonun bilan kafolatlangan. Xayot silsilasida ma’lum bir sabablar tufayli qilgan jinoyi harakat voki harakatsizligi tufayli javobgarlikka tortilib, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan xotin-qizlarning jamiyatga qayta ijtimoiylashuvi masalasi dolzarbdir. Jazoni o‘tash muassasalaridan ozod etilgan xotin-qizlarning xuquqlarini himoya qilsh O‘zbekiston Respublikasining 2014

yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi” Qonunda blgilab qoyilgan. Unga ko‘ra jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan xotin-qizlarni ijtimoiy reablitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish huquqbuzarlik profilaktikasining asosiy vazifasidir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 17 iyuldagi 543-sonli “Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta’minlash va ishga joylashtirish tizinini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaiy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan mamlakatimizda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan va mahsus komendatura hisobidan chiqgan shaxslarni reablitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish markazlari tashkil etilgan. Xo’sh bugun jazoni ijro etish muassasidan qaytgan xotin-qizlarni jamiyatga tronsformatsiyalashuviga ta’sir etuvchi qanday omillar bor ?

1 Jazoni ijro etish muassasidan qaytgan xotin-qizlarda oilasini qabul qilishda havotirning borligi

2. Ularga qilmishiga yarasha jazoni o‘tab kelishiga qaramasdan ularni “Jinoyatchi” sifatida qabul qilsh.

3. Ishga joylashishda ish beruvchi tomonidan talab va shartlarni qo‘yilishi

4. Kollektiv va sotsiumda begonalashuv

5. Ruhiy zo‘riqish va tushkunlik

6 Yolg‘izlik va ijtimoiy munosabatlardan o‘zini olib qochish

Bu kabi muammoilar bugun jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan xotin-qizlarni ijtimoiy reablitatsiyasi bo‘yicha dunyo tajribasida qo‘llanilgan ijtimoiy hizmatchining ko‘magidan foydalaniladi. Bunda iojtimoiy hizmatchi qonun doirasida zajoni ijro etish muassasasidan chiqgan xotin-qizlarga dastlabki yaqin vaqtlarda ularga ijtimoiy himoyachi vazifasida yordam beradi. Dunyo tajribasida ijtimoiy hizmatchi faoliyati jazoni ijro etish muassasalarida ham keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib ularning vazifasi mahkumlarning jazoni o‘tash davridagi ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Jazoni ijro etish muassasaslaridan qaytgan ayollarni psixologik qo'llab-quvvatlashning eng muhim tarkibiy qismi - axloq tuzatishda ijtimoiy ishchi tomonidan bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish. "Bo'sh vaqtdagi tarbiyaviy ta'sirning vazifalari", deb ta'kidlaydi nemis kriminologi G.J. Shnayder, - jazoni ijro etish muassasalarida farovon ijtimoiy muhitni yaratish va ozodlikka chiqqandan keyin mazmunli bo'sh vaqtni o'tkazish istagini uyg'otish. Ijtimoiy xodim o'z faoliyatida izolyatsiya tizimi nafaqat mahkumlarning ijtimoiy foydali aloqalarini buzmasligi, balki ularning oilaviy va qarindoshlik munosabatlarini mustahkamlashga yordam berishiga asoslanishi kerak.

Yordam ob'ektlarining ushbu toifalarini ko'rib chiqib, biz ijtimoiy xodim penitentsiar tizimda qanday turli xil va ko'p sonli funktsiyalarni bajarishi kerakligini

kuzatamiz. Penitentsiar tizim rivojlanishining hozirgi bosqichida ijtimoiy ishchilar faoliyatining o'ziga xos xususiyati mavjud bo'lib, u ijtimoiy xodimning ta'lim, madaniy, ommaviy va ijtimoiy sohalardagi moliyaviy qiyinchiliklar tufayli bekor qilingan xodimlarning funktsiyalarini o'z zimmasiga olishi kerakligidan iborat.

Huquqiy va sport va dam olish ishlari. Ya'ni, biz penitentsiar ijtimoiy xodimning vazifalari juda xilma-xil bo'lib, turmush va turmush sharoitlarini yaxshilashga yordam berishdan mahkumlar va xodimlarga psixologik maslahat berishgacha bo'lgan kichik bir xulosaga kelishimiz mumkin. Biroq, bizning fikrimizcha, quyidagilar asosiy hisoblanadi:

1) Jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan xotin-qizlarga huquqiy yordam va qo'llab-quvvatlash;

2) Xotin-qizlarning psixologik-pedagogik diagnostikasi;

3) Jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan xotin-qizlarning ijtimoiy-psixologik va kasbiy reabilitatsiya qilish dasturlarini ishlab chiqish;

4) Jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan xotin-qizlarga ijtimoiy hayotga muhitiga qayta moslashtirish.

Jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga qayta moslashtirishtirishda bevosita mahalla, oila, ijtimoiy hizmatchsi, psixolog va profilaktika inspektorininig hamkorligida uzviy aloqadorlik bo‘lishi qayta moslashtirishda muammolarni oldini olishda katta ahamiyatga ega. Maxsus jazo izaliyatorida hayotning ma’lum qismini cheklovlarda, qayta tarbiyalanib, bu muhit ijtimoiy normalarinidan voz kechish jarayoni ham vaqt talab etadi. Jazoni ijro etish orgnanlaridan qaytgan ayollarni oilaga qaytishida olia a’zolarining ularga “o‘zgargan inson” sifatida qarashi uzoq vaqt muloqotda bo‘lmaganligi uchun o‘zaro til topib ketishga qiynalish kuzatiladi. Shuningdek aksariyat hollarda turmushining buzulganligi oqibatida farzandlar otasi yoki qaramog‘ga olgan vasiylarda tarbiyalanishi oqibatida onasiga nisbatan “begona ayolga” timsolida qarashning uyg‘onishi oqibatida ona-bola o‘rtasida muloqotda devori paydo bo‘ladi. Vaqt o‘tishi, ijtimoiy munosabatlardan uzoqlashish ayollarni jamiyatda qayta moslashuviga sa’lbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda mahalla faollari nafaqat bir tomon bilan balki oila a’zolari bilan ham tushuntirish ishlarini olib borishi lozim. Kerak bo‘lsa psixolog, ijtimoiy xizmat hodimlari o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishi, tizimli har ikki tomon bilan ishlashi kerak bo‘ladi. Xalq orasida sudlangan, jazoni ijro etish muassasidan qaytgan shaxslarga nisbatan negativ qarash, gumonlanish, ularni izalyatsiya qilish qarashlaridan bugun ham voz kechilgan yoq. Zotan unaday insonlar qilmishi, jinoyati uchun qonuniy jazoni olib, hayotini yahshi tomonga o‘zgartirishga umid qilib, to‘rt devorda kichik tuynikdan hayotga yangi orzular ko‘ yib kun sanab ozodlikga

chiqgan ayolni jamiyatda qabul qilmaslik uni umidlarini so‘ndiradi. Jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan ayollarni ozodlikning birinchi kunidan boshlab psixolog, mahalla faollari, ijtimoiy ish hodimlarining ko‘magi zarur bo‘ladi. Xotin-qizlarni ijtimoiy moslash muammolar ttizimli tahlil etilishi hali bu borada ilmiy tadqiqot ishlarining etarlicha olib borish lozimligini bildiradi.

Zotan ayol tabiatan nozik hilqat uni jamiyiat taraqqiyotiga yosh avlodga tarbiyasida o‘rini beqiyosligini inobatga olsak, uni qilgan aybi uchun o‘tab chiqganligi keyingi sog‘lom, baxtli hayoti uchun taqiq, cheklov bo‘lishi bu ijtimoiy adolarsizlikning ko‘rinishidir, afsuski bu ularga yaqinlari, oilasi, mahallasi, tomonidan yuz beradi. Xulosa o‘rnida bugun jamiyatimiz boshqaruvida adolat bosh me’zon sifatida “Ijtimoiy davlat” maqomida ayollarning gendr tengligi barqarorlashayotgan davrda boshqaruvda, siyosatda ayollarning ishtiroki ta’minlanayotgan bir paytda jazoni o‘tash muassasidan qaytgan ayollarni jamiyatga to‘siq, cheklovlar qo‘yilishi jamiyat a’zolarini eskicha dunyo qarash, streotiplardan halos bo’lishda yangcha ijtimoiy qadriyatlarni singdirishda ijtimoiy ish xodimlari oldidagi dolzarb vazifalar yo‘nalishidan biri ekanligini ko‘rsatadi.

REFERENCES:

1. A. Ovsiannikova, E. Rossman “Penitentiary systems and penitentiary reforms in foreign countries: an analytical review”. M.: Tsentr strategicheskikh razrabotok, 2017, 42 p. [in Russian].
2. Ezhova O. N. “Recurrent criminality as a threat to the security of society”. In the collected book:., 2013, pp. 97–102 [in Russian].
3. Andreev N. A., Morozov V. M., Kovalev O. G., Debol‘sky M. G., Morozov A. M. “Resocialization of convicts in the penitentiary institutions of Germany” (socio-psychological aspect): textbook. M.: «Pravacheloveka», 2001, 182 p. [in Russian].
4. Denisov A. D. “The experience of some foreign countries in the re-socialization of persons released from places of deprivation of liberty”. Vestnik Universiteta [Bulletin of the University], 2014, no. 12, pp. 253–256 [in Russian].

PEDOFILLARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA’SIRI

G‘. Xolmurodov
O‘zbekiston Milliy Universiteti o’qituvchisi

S. Boybo‘sinova
O‘zbekiston Milliy Universiteti talabasi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada pedofiliya tushunchaning mazmun-mohiyati, uning asosiy xususiyatlari, pedofillar jinoyatchiligini oldini olish usullari, jamiyatdagi salbiy oqibatlari, jamiyatning pedofillarga munosabati, profilaktikasi, milliy va xorijiy tajriba kabi jihatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Pedofil shaxs, kastratsiya, balog‘atga yetmaganlar, izolyatsiya, jinoyat, ma’muriy jazo, zo‘ravonlik, klinik, suitsid, ochiq reeystr, stigma, steriotip, profilaktika, besoqolbozlik.

ABSTRACT:

This article describes the essence of the concept of pedophilia, its main features, methods of preventing pedophile crime, negative consequences in society, society's attitude to pedophiles, prevention, national and foreign experience.

Keywords: Pedophilic person, castration, minors, isolation, crime, administrative punishment, violence, clinic, suicide, open registry, stigma, stereotype, prevention, homosexuality.

O‘zbek xalqi mehmondo’st va bolajon xalq. Ayniqsa bolalarga e’tibor yuqori. Har qanday mamlakatda bolalar himoyasi muhim ahamiyatga ega va ularning himoyasi uchun turli chora - tadbirlar ishlab chiqilgan. Shunday bo’lsada, bugungi kunda jamiyatimizda hal qilinishi kerak bo‘lgan juda ko‘p muammolar mavjud. Bular sirasiga “pedofillar jinoyatchiligi” muammosini kiritsak bo‘ladi.

Pedofillar - bu balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan asosiy yoki eksklyuziv jinsiy moyillikni boshdan kechiruvchi psixiatrik kasallikga ega bo‘lgan shaxslardir.

Qisqacha qilib aytganda pedofillar balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan jismoniy va jinsiy zo‘ravonlikni sodir etishga moyil bo‘luvchi shaxslardir. O‘rganishlarga ko‘ra bunday shaxslarda gormonal va psixologik o‘zgarishlar vujudga keladi va buning natijasida jinsiy moyillik shakllanadi. Lekin bu haqida hamma ham

ma’lumotga ega emas. Jamiyatimizda bunday shaxlarga nisbatan turli qarashlar mavjud.

Pedofillarning xatti-harakatlariga diniy nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, bu zino masalasiga borib taqaladi. Bu borada pedofillarda turli qarash va bilim shakllanmagan yoki butkul mavjud emas. Ilmiy jihatdan esa pedofiliya - bu kasallik, pedofil shaxs esa o‘z xatti-harakatlarini boshqara olmaydi.

Pedofillar jinoyati haqida fikr yuritilganda ko‘pchilikning hayoliga jazo sifatida “kimyoviy kastratsiya” keladi. Bu haqda Prezident admistarsiyasi rahbari o‘rinbosari Komil Allamjonov ham “Pedofillarga nisbatan kimyoviy kastratsiya ja’zosini qo‘llash vaqti keldi” degan fikrni bildiradi. Lekin bu yerda boshqa masala ham bor. Pedofil shaxs faqat erkak kishi bo‘lmaydi, jamiyatda Pedofil ayollar ham mavjud. Erkak kishi uchun alohida ayol kishi uchun alohida qonun chiqarish yaramaydi. Bundan tashqari pedofiliya klinik va psixologik belgilarga ega kasallik ekanligini ham inobatga olish zarur. Ularda ham fiziologik, ham psixologik jarayonlar sodir bo‘ladi. Pedofiliya o‘z o‘zidan vujudga keladigan jarayon emas. U yillar davomida turli salbiy oqibatlar va o‘zgarishlar natijasida shakllanadi. Bunga fiziologik va psixologik omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Pedofiliyani o‘rganishda asosiy e’tibor qaratiladigan jihat nima uchun Pedofillar aynan jamiyatning o‘z o‘zini to‘liq himoya qila olmaydigan qatlami bolalarni tanlashidadir. Bu jarayonga bevosita psixologik omilning ta’sirini keltirish mumkin. Bolalikdan o‘z tengdoshlari bilan yaxshi munosabat o‘rnata olmaydigan insonlarda bu jarayon travma sifatida qolib ketadi, bu esa kelajakda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Odatda Pedofillar katta yoshlilar ya’ni o‘z tengdoshlari bilan bolalikdagi travmalar sababli yaqin munosabatga kirishishga qo‘rqishadi. Shuning uchun ham aynan bolalarga nisbatan jinoyatni sodir etishadi. Pedofil erkak kastratsiya qilingani bilan uning ruhiyatidagi buzilishlar, xatti-harakatlariyu istaklari o‘zgarib yoki yo‘q bo‘lib qolmaydi. Ularga nisbatan uzoq muddatli davolash ishlarini olib borish mumkin. Erkaklarga kimyoviy kastratsiya qo‘llanilsa, ayollarga qanday ja’zo qo‘llanilishi ochiqligicha qoladi. Shu o‘rinda tibbiyot fanlari doktori, professor Zarofboy Ibodullayevning ham fikrini keltirib o‘tishimiz lozim. U: Pedofillarga kimyoviy kastratsiya qilishni joriy etilishi nafaqat jinoyatchilarni ja’zolash, balki profilaktik ahamiyatga ham ega. 20 nafar odam suitsid xayolida yurgan bo‘lsa, ulardan bittasi shuni amalga oshiradi deyiladi, balki O‘zbekistonda 10 kishi pedofillik xayolida yurib, vaziyat topolmayotganidan amalga oshira olmayotgandir. Demoqchimanki, har qanday vaziyatda profilaktika katta rol o‘ynaydi. Agar qonun qabul qilsak pedofiliya keskin kamayadi, bunaqa xayolda yurganlar qaytadi”, - deya ta’kidlaydi.

Umuman olganda, har qanday vaziyatda profilaktika muhim o‘rin tutishi to‘g‘ri. Lekin bu yerda ham e’tirozga moli jihatlar ko‘p. Yuqorida aytib o‘tilganidek kastratsiya ham to‘la yechim emas. Qonunchilikga o‘zgartirosh kiritildi deylik, bordiyu Pedofil shaxs bundan to‘lig‘icha xabardor bo‘lmasachi, qonunning profilaktik ta’sir doirasi kamayadi. Bunda axborotni yetkazish chora- tadbirlarini ishlab chiqish masalasi ham mavjud. Inson huquqiy axborot bilan deyarli faqat huqulari poymol etilganda tanishishadi xolos, shunda ham o‘z majburiyatlarini unutishadi. Yana bir jihat hozir belgilayotgan qonunlarimiz avvalgilarini inkor etmasligi kerak. Agar biz Qonunchilikga kastratsiyani kiritsak xuddi shunday holat yuz berishi mumkin. Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida “besoqolbozlik” bilan qonun ta’qiqlanadi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 120-moddasida belgilab qo‘yilgan[1]. Kastratsiya keyinchalik bu jarayonni shakllanishiga ham olib kelishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda Z. Ibodullayev yana bir fikrga to‘xtaladi, u pedofilllarning shaxsini ochiq matbuotda e’lon qilsh tarafdori. U: “Ilgari moxov kasalligiga chalinganlar aholi yashaydogan joydan 250 km uzoqda yashagan, pedofillarni ham izolyatsiya qilish kerak, jamiyat ulardan hazar qilishi kerak, ularning jamiyat bilan birga bo‘lishga haqqi yo‘q. Bir narsani unutmasligimiz kerak, qo‘rqish, andisha qilish kerak emas, qonunni qabul qilish kerak”, - deydi.

Avvalo pedofiliya bu yuqumli kasallik emasligiga to‘xtalsak, u turli gormonal va psixik o‘zgarish natijasida kelib chiqadi. Biz qonunchiligimizda belgilagan yozilgan va jamiyatimizga kiritgan yozilmagan qoidalarimiz u inson kim bo‘lishidan qat’iy nazar, uning sha’ni, qadr-qimmatiga va manfaatlariga putur yetkazmasligi, tahqirlamasligi lozim. Bu “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 1-moddasida ham aks etgan: “Hamma odamlar o‘z qadr qimmati hamda huquqlarida teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir biriga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak”[2]. Shunday ekan jamiyatimiz diskriminatsiya bilan kurashayotgan bir vaqtda pedofillardan insonlarning hazar qilishi kerakligi va izolyatsiyasi nechog‘lik to‘g‘ri? Pedofillar qanday aniqlanadi yoki ular faqat jinoyat sodir etgandan so‘ng izolyatsiyaga olinadimi? Albatta bu savollarga hozirgi vaqtda aniq javob mavjud emas. Bundan tashqari o‘zidagi jarayonni o‘zgartirishga harakat qilayotgan, mutaxassislarning ko‘riklariga borayotgan, bu kasallikni yo‘q qilishga urinayotganlar ham yo‘q emas. Bu masala ham inobatga olinishi juda muhim sanaladi. Bu biz Pedofillarga chora sifatida nafaqat qonuniy choralarni balki tibbiy chora-tadbirlarni ham qo‘llashimiz kerak ekanligidan dalolat beradi.

Pedofillarga munosabat masalasida jahon tajribasi ham muhim rol o‘ynaydi. Xitoy, Yaqin Sharq, Afrika, Lotin Amerikasi, Eron, Janubiy Koreya, Saudiya kabi mamlakatlarda Pedofillarga o‘lim jazosi qo‘llanilishi yo‘lga qo‘yilgan. AQSHda Pedofillar kimyoviy va majburiy kastratsiya qilinadi. Polisha, Ukraina, Amerikada pedofillarning ochiq reeystri mavjud. Rossiyada esa Pedofillarga umrbod qamoq jazosi belgilangan. Ular keng ommaga e’lon qilinadi. Bunday shaxslarning yashash manzillari oilalarga pochta orqali yuboriladi va ma’lumot beriladi.

Qozog‘iston Respublikasida Pedofillarga nisbatan 10 yildan 15 yilgacha qamoq jazosi qo‘llaniladi. Hozirda esa jazo muddatini o‘tab chiqqan Pedofillarga GPS bilakuzuklarni berish tizmi ishlab chiqilmoqda. Unga ko‘ra bunday Pedofillarga GPS bilakuzuklar taqiladi va u orqali pedofillarning joylashuvi aniqlanadi va u haqida axborotlar olinadi. O‘zbekiston Respublikasida Pedofillarga nisbatan qamoq jazosi mavjud. Qonunchiligimizga jahon tajribasini tadbiq etish bir qancha murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Jamiyat o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishi kerak. Jamiyatimizda Pedofillarga nisbatan munosabat turlicha. Chunki jamiyat a’zolari Pedofil nafaqat jinoiy belgilarga ega bo‘lgan shaxs, balki klinik belgilari mavjud psixiatrik kasallik ekanligini to‘la tushunishgani yo‘q. Yuqoridagi tajribalarda ham bu belgi inobatga olinmagan. Masalan, biz pedofillarning ochiq reeystrini yaratsak va Pedofil manzilini oshkor etsak, jamiyatda ularga nisbatan nafrat tuyg‘usi mavjudligi tufayli jamiyat a’zolari tomonidan boshqa jinoyatlarga qo‘l urish boshlanadi, nizolar kelib chiqadi. Yangi stigma va steriotiplar paydo bo‘ladi. Mamlakatimizda 2008 yildan o‘lim jazosi bekor qilingan. Garchi Pedofillar jinoyati insonda g‘azab va nafrat tuyg‘usini uyg‘otsada, bu jazo insoniylikga to‘g‘ri kelmaydi. Kastratsiya esa to‘liq yechim emasligini yuqorida sabablari bilan ko‘rsatdik.

Har qanday davrda va har qanday sharoitda profilaktika muhim ahamiyatga ega. Profilaktika faqat davlat tomonidan oshirilib qolmasligi kerak. Profilaktika har bir shaxs, har bir oilaning o‘zi amalga oshirishni boshlashi kerak. Davlat bilan birga harakat qilishi kerak.

Pedofiliya haqida gap ketganda nafaqat Pedofil shaxs, balki pedofiliya qurboni bo‘lgan bolalar haqida ham fikr yuritish zarur. Ma’lumki, bolalar zaif va himoyaga muhtojdir. Bolalar o‘zlarida bo‘layotgan jarayonlar haqida bilishmaydi va buni tushunishga qiynalishadi. Ayrim masalalarga esa qiziqqonlik bilan qarashadi. Bizda ota-ona tomonidan ulg‘ayish, gormonal va psixologik o‘zgarishlar haqida bolaga tushuncha berish nozik masala hisoblanadi. Aslini olganda, bolalarning pedofiliya qurboni bo‘lishiga ota – onalar ham birdek aybdor sanaladi. Chunki bolaning profilaktikasi oiladan boshlanadi. Bola o‘zidagi o‘zgarishlar haqida bilishga haqli, buni tushuntirish murakkab bo‘lsada bola ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Bolaga

uning tanasiga hech kimning tegishga haqqi yo‘qligi, begonalarga yaqin bormasligi, qo‘rquv paytida yoki begona shaxslarni uchratganda qanday yordam chaqirish kerakligini o‘rgatish profilaktikaning birinchi qadamidir. Bundan tashqari bu orqali bolada shaxsiy chegara ham shakllanadi. Biz ko‘p hollarda o‘zimiz bilmagan holda bolaning shaxsiy chegaralarini buzib o‘tamiz. Masalan, bolani erkalatish uchun uni quchoqlashishadi va bola bunga qarshi bo‘lsa ham xatti-harakatlarni davom ettirshadi. Bu bolaning fiziologik va psixologik chegaralarini buzilishiga sabab bo‘ladi. Ularni kuchsizlantiradi. Bolani kichiklik vaqtidan munosabatlarga javob reaksiyasini inobatga olish lozim. Aynan o‘sha vaqtda bolaning qarshiligi inobatga olinsa, keyingi safar begonalar uning chegarasini buzishiga qarshilik qiladi. O‘rganishlarga ko‘ra, pedofiliya qurboni bo‘lgan bolalarda nafaqat jismoniy balki psixologik o‘zgarishlar ham kuzatiladi. O‘zini kerkasiz his qilish, qiziqishning so‘nishi, o‘zini kasal deb o‘ylash, o‘zidan jirkanish holatlari kuzatiladi. Shuning uchun ham yuqorida bola ulg‘ayish haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak ekanligini keltirib o‘tdik. Pedofiliya qurboni bo‘lgan boladagi o‘zgarishlar nafaqat bolaga balki, uning yaqinlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bolaning esa jamiyatga aralashuvi, kelajakda o‘zini ko‘ra bilishi yo‘qoladi. Bolalar har doim bu masalada nazoratda bo‘lishi, o‘zlari haqidagi ma’lumotlarni ularni psixikasiga ta’sir etmagan holda tushuntirilishi lozim.

Bizga ma’lumki, aholi himoyasida o‘z o‘zini boshqarish organlarining o‘rni yuqori. Agar har bir mahallarda Pedofillar ro‘yxati shakllantirilsa va bu ro‘yxat mahalla xodimlaridan boshqa shaxslarga oshkor etilmasdan umrbod nazorat amalga oshirilsa Pedofillar jinoyatining kamayishiga sabab bo‘lar edi. Respublikamizga Pedofil shaxslarning kirishini taqiqlashni ham bir chora sifatida ko‘rsak bo‘ladi. Pedofiliya tibbiy jihatdan o‘rganilib, pedofilliya aniqlangan shaxslarda majburiy davolash ishlarini olib borish ham zarur.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 2022 yil 14-mart yangi tahrirda qabul qilingan soni.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948 yil, 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan va e’lon qilingan.

SHARQDA FUQAROLARNI O’ZINI O’ZI BOSHQARISH ORGANLARINING RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI

Mumtozxon Abduvaliyeva
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish kafedrasi dotsenti v.b.,(PhD)

Diyora Farmonova
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti ijtimoiy ish yo’nalishi 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi mahallalar evolyutsiyasi, tarixiy, ijtimoiy va madaniy jihatlari o‘rganiladi. Manbalarda “Avesto” va viloyatning mashhur mualliflari Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Xojiba, Alisher Navoiy va boshqalarning asarlari keltirilgan. Asarlarda mahallalarning urf-odatlarni shakllantirish va ularni zamon talablariga moslashtirishdagi o‘rniga e’tibor qaratilib, ularning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi ahamiyati ta’kidlangan. Mazkur tadqiqot mahallalarning hududning madaniy-ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyati va ta’sirini yaxshiroq tushunish va baholash imkonini beradi.

Kalit so’zlar: mahalla, ijtimoiylashuv, elat, jamoa, oqsoqol, ijtimoiy himoya, insonparvarlik, g‘amxo‘rlik, qadriyatlar.

ANNOTATION:

This article explores the evolution, historical, social and cultural aspects of neighborhoods in Central Asia. The sources cite the works of” Avesto " and famous authors of the province, Mahmud Qoshgariy, Yusuf Khos Khojiba, Alisher Navoi and others. The works focus on the role of neighborhoods in shaping Customs and adapting them to the demands of the Times, emphasizing their importance in socio-cultural progress. This research will provide a better understanding and assessment of the importance and impact of neighborhoods on the cultural and social development of the area.

Keywords: neighborhood, socialization, elat, community, elder, social protection, humanity, care, values.

Ko'p asrlar davomida mahallalar - o'ziga xos ijtimoiy va madaniy tuzilishi bilan mashhur bo'lgan an'anaviy jamoalar yoki mahallalar Markaziy Osiyoning ko'plab mamlakatlari tarixidan mustahkam o'rin olgan. Bu mahalliy jamoalar nafaqat yashash joyi, balki ijtimoiy hayotning markazi bo‘lib, bu yerda alohida an’analar, urf-odatlar,

ijtimoiy normalar shakllanadi. Vaqt o‘tishi bilan mahallalar jamiyat uchun o‘z ahamiyati va ahamiyatini saqlab qolgan holda o‘zgarib borayotgan sharoit va zamon talablariga moslashib, evolyutsiyaga uchradi.

“Mahalla-arabcha “mahal”, “mahallatun” so’zlaridan kelib chiqib, birgalikdagi” degan ma’noni anglatadi [1]. O’rta Osiyo hududida yashovchi ko’plab millat va elatlarning jamoa bo’lib yashashlari turli nomlar bilan atalgan. Qoraqalpog’isda “koshebiy”lar- mahalliy jamoalar, Xorazmda “elat” ya’ni jamoalar mahalladek faoliyat yuritgan, asrlar davomida mohiyatini yo’qotmasdan saqlanib qolgan.

Eng dastlabki, insonparvarlik g’oyalari zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo’lmish “Avesto” da o’rin olgan. Unda to’rtta asosiy qarashlar, ya’ni inson huquqlarining ustuvorligi, jamiyatdagi ijtimoiy faolligi, xususiy mulk hamda insonlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi faol ishtirok etishi alohida ajratib ko’rsatiladi. “Avesto”da ilk bor, insonlarning jamoa bo’lib yashash tarzi va uning rivojlanishi, insonlar orasidagi munosabatlar, jamoaviylikning paydo bo’lishi va yana shu kabi munosabatlar keltirilgan. Tarixga nazar soladigan bo’lsak, Sopollitepa qishlog‘i aholi o‘troq dehqonchilik xo‘jaligi asosida tashkil topgan 8 ta katta oila jamoasi bo‘lib istiqomat qilishgan. Oqsoqollar o’z navbatida oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq bo‘lgan. Butun qishloq aholisining boshlig’i Oqsoqollar Boshqarmasi oqsoqoli bo’lgan. Oqsoqollar Boshqarmasining jamoa oldida mahaliy ishlarni bajarishdagi vakolatlari g‘oyatda keng bo‘lib, ularning qo’lida jamoaning to’g’risida fikr-mulohazalarni uchratishish mumkin [2].

“Mahalla” atamasini birinchi marotaba ilk uyg‘onish davri mutafakkirlaridan bo‘lgan, Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida uchratamiz. Bu davrda ushbu institutning asosiy vakolati – aholining turmush faoliyatini jamoa doirasida ijtimoiy-hududiy jihatdan tashkil etishdan iborat bo‘lgan [3].

Shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mavjudligi, faoliyati va ularning tashkiliy vazifa va vakolatlari xususida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida ham uchratishimiz mumkin. Xususan asarda ezgulik jamiyati va unga erishish yo’llarini ko’rsatib o’tiladi [4].

Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida jamiyat va inson munosabatlarini genetik va estetik muammolariga e'tiborini qaratgan. U o‘zining «*Xayratul – abror*» asarida Hirot shahrini 100 ta shaharchadan – mahallalardan tashkil topgan go‘zal joy deb talqin qiladi. Mahallalarning hududlari, har bir mahallalarda fuqarolarning hayot kechirishi, faoliyati bilan bog‘liq binolar: masjid,

bozor, choyxona, do‘kon, hammom, sartaroshxonalar va boshqalar haqida bayon qiladi [5].

Shuningdek, Navoiy o’zining «*Majolisun-nafois*» asarida mahallaning hayotda tutgan o‘rni va nufuzi, mahalladoshlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, tenglik, shohu-gadoning bir-biriga bo‘lgan munosabatida g‘amxo‘rlik qadrlanganligini yozadi [6].

Amir Temur tuzgan davlatda ham mahalla rivojlanishi, kundan kunga rivojlanib borgan. “Temur tuzuklari”da yozilishicha, Amir Temur o’zi barpo etgan qudratli saltanatni boshqarishda mahallaning mutasaddi shaxslarigatayanib, ular bilan muloqot qilgan, doimiy ravishda ularning faoliyati nazorat qilib qo’llab-quvvatlagan. Yetimlarga yordam bergan, ularni o’z himoyasiga olgan, uy-joy bilan ta’minlagan [7].

Abu Ali Ibn Sino asarlarida oilaga e’tibor qaratish, er-xotin munosabatlari, farzandlar tarbiyasi haqida alogida to’xtalib o’tilgan. Farzand kamoli uning rivojlanshi uchun oilaning o’rnini ko’rsatgan. Shuningdek, Ibn Sino rahbar xalqsiz bo‘la olmaganidek, xalq ham rahbarsiz bo‘la olmaydi, deb hisoblaydi. Xalqni nazorat qilib turadigan rahbar bo’lishi kerak degan fikrlarni ilgari suradi. «Insonlar jamoa bo‘lib, yashashlari uchun o‘zaro muloqotda, turli munosabatda bo‘lishlari, bir-birlarining ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilishlari va umumiy intilish, maqsadga ega bo‘lishlari lozim»[8].

Ushbu fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki, bu davrlarda ham mahallalar insonlarga yordam berish, ya'ni ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan vakolatlariga ega bo‘lgan.

Abu Rayxon Beruniy «*Hindiston*» asarida ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan birga bu mamlakat tarixi, geografiyasi etnografiyasi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Shuningdek, ushbu asarda aytilishicha: “Har bir xalqning udumlari ko‘p yillar tajribadan o‘tgan o‘sha xalqning yashash tarzi, dunyoqarashi bilan uyg‘unlashib ketgan, insonlar ma’lum bir ehtiyojlari tufayli birlashib, dushmandan himoyalanish uchun ham jamoa bolib birlashishga majbur bo’ladi” – degan qarashlarni bildiradi [9].

в рамках данной парадигмы, перестает быть не только реципиентом, безвластным объектом социальной политики, он становится в полной мере рефлексирующим субъектом, полностью интегрированным в социум, человеком с большой буквы, профессионалом, способным создавать свое будущее, практически неотличимое от будущего лиц без инвалидности [8].

Собственно, здесь важно упомянуть концепцию независимой жизни инвалидов, ориентированной на формирование среды равных возможностей. В нем центральной идеей становится обеспечение прав и свобод лиц с инвалидностью наравне с остальными гражданами государства. В рамках данной концепции разработаны две модели, которые отличаются подходом к обеспечению прав и свобод граждан с инвалидностью:

1. политико–правовая модель, акцентированная на четком законодательном закреплении гарантий равенства и социальной поддержки лиц с инвалидностью;
2. модель культурного плюрализма, определяющая инвалидность как культурное отличие человека наряду с различиями в цвете кожи, вероисповедании и традициях.

Философия независимой жизни связана с самоопределением, с тем, чтобы люди с инвалидности решали, что для них лучше. Важно упомянуть то, что для преодоления ими барьеров, существующих в социальном пространстве, необходимы не только пандусы, специальное оборудование и обученный персонал, но и изменение отношения людей.

Если подытожить, в данной статье рассматривались модели понимания инвалидности через такие концепции инвалидности как традиционная, посттрадиционная, а также концепция независимой жизни.

В традиционных моделях, инвалидность понимали, как результат греха; болезнь или дефект; социальная недостаточность, приводящая к ограничению жизнедеятельности или же полная, или частичная потеря трудоспособности. В нем внимание акцентировалось на отличие лиц с инвалидностью от остальных людей, что привело к изоляции и дискриминацию лиц с инвалидностью.

Противостоя этому концепцию, самими же людьми с инвалидностью была разработана социальная модель инвалидности, в качестве модели, представляющей их интерес и отношение к ним в обществе. Данная модель определяет причину инвалидности не в самом заболевании, как таковом, а в существующих в обществе физических, организационных и отношенческих барьерах, базирующихся на стереотипах и предрассудках. Она гласит то, что не люди с инвалидностью должны адаптироваться к неизменяемой среде, а

общество должна предпринимать меры по адаптации в соответствии с потребностями лиц с инвалидностью.

А в концепции независимой жизни инвалидов, инвалидность признаётся феноменом, имеющим социокультурное происхождение, обусловленное действие средовых и отношенческих барьеров. Исходя из данной концепции, каждое современное государство обязуется обеспечить права и свободы лиц с инвалидностью наравне с остальными гражданами государства. А также предпринять меры по устранению существующих средовых и отношенческих барьеров, чтобы люди с инвалидностью считая инвалидность - своей уникальностью, могли полноценно участвовать и реализовать свой потенциал, непосредственно внося свой вклад в развитие государства.

REFERENCES:

1. Всемирная организация здоровья. Инвалидность. URL:https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/disability-and-health (Дата обращения: 29.04.2024).
2. Закон Республики Узбекистан о правах лиц с инвалидностью.
URL: https://lex.uz/ru/docs/5049549 (Дата обращения: 29.04.2024).
3. Конвенция ООН о правах лиц с инвалидностью.URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disability.shtml (Дата обращения: 29.04.2024).
4. Социальные барьеры в процессе формирования инклюзивного общества //Историческая и социально-образовательная мысль. Том 14 № 5, 2022-С 114. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnye-bariery-v-protsesse-formirovaniya-inklyuzivnogo-obschestva/viewer
(Дата обращения:26.04.2024).
5. Воронцова М.В., Левченко Т.А. Социально-бытовая адаптация детей и подростков с множественными нарушениями в условиях дома-интерната // Учебное пособие. – 2014. – С 9-10.
6. Модели понимания инвалидности | Музей «Гараж». URL: https://garagemca.org/programs/inclusive-programs/diversity-and-inclusion/modeli-ponimaniya-invalidnosti-models-for-understanding-disability (Дата обращения:27.04.2024).
7. А.Шабунова, М.Морев, Н. Кондакова, О.Калачикова, Л.Фахрадова, Ю.Шматова. Проблемы социальной консолидации. Инвалиды в региональном сообществе // Монография 2019//
8. Воронцва М.В., Левченко Т.А. Социально-бытовая адаптация детей и подростков с множественными нарушениями в условиях дома-интерната // Учебное пособие. – 2014. – С 13-15.

O‘ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALARNI JAMIAYATGA INTEGRATSIYA QILISHNING O‘ZIGA HOS JIHATLARI

Aziza Jovli qizi Sodiqova
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish yo’nalishi 3 bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan davlatning ijtimoiy siyosati va ijtimoiy–iqtisodiy himoya va g‘amxo‘ligi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lamiz. Shuningdek, muruvvat internat muassalarining faoliyat yurutish tartibi O‘zbekistonda va xorij tajriba mislida o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar: Adaptatsiya, ijtimoiy himoya, internat uylari, muruvvat uyi, reabilitatsiya, nogironlik, ijtimoiy xizmat, yordam, integratsiya, ta’lim.

ANNOTATION:

In this article we will learn about the state's social policy and socio–economic protection and care for children with disabilities. We will also study the procedure for conducting activities of boarding institutions in Uzbekistan and in the example of foreign experience.

Keywords: adaptation, social protection, boarding houses, treatment House, rehabilitation, disability, social service, assistance, integration, education.

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida inson qadri- qimmati huquq va erkinliklarini ta’minlash bolalarning sog‘lig‘ini muhofoza qilish, bolaning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik, bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta’minlash bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Yangi O‘zbekiston- bu, “Xalq manfaati hamma narsadan ulug’” degan ezgu g‘oya amaliy ishlari bilan o‘z tasdig‘ini topmoqda [1]. Mehr -muruvvat oliy himmat xalqimizga xos xislat. Shu bois ham bu yurtda hech kim mehr va saxovatdan bebahra qolmaydi.Yonimizda oramizda shunday insonlar yashaydiki,ular doimo e’tiborga muruvvatga muhtoj. Yurtimizda ana shunday insonlar uchun “Muruvvat” uylari tashkil etilgan. Ular doimo g‘amxo‘rlikka va e’tiborga tashna. “Muruvvat” bolalar internat uylari O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo‘lgan, 4 yoshdan 18 yoshgacha, I va II guruh nogironligi bo‘lgan bolalar uchun tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatadigan davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu internat muassasa

faoliyati 2023-yil 1-iyunda tashkil etilgan “Ijtimoiy Himoya Milliy Agentligi” qoshiga o‘tkazildi. Bundan maqsad aynan ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalar (benefitsiar)ga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatishda samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbir amalga oshirishdan iborat [2].

Agentlik faoliyatining asosiy ustuvor jihati nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishida:

-Nogironlikni baholash va aniqlashning tibbiy modelidan ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tishni ta’minlash;

-Nogironligi bo‘lgan shaxslarni yuqori sifatli protez-ortopediya mahsulotlari va reabilitatsiyaning texnik vositalari bilan ta’minlash;

-Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya va abilitatsiya qilish sohasini rivojlantirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish;

-Jamiyatda ijtimoiy moslashuv va integratsiya uchun sharoit yaratish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni bandligini ta’minlashga ko‘maklashish, inklyuzivlikni ta’minlanishini muvofiqlashtirish hamda ularga qulay muhit shakllantirilganligini nazorat qilish;

-Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan jamiyat ongida sog‘lom fikrni shakllantirish;

-Nogironligi bo‘lgan shaxslarning mustaqil hayot kechirishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularga uy sharoitida ijtimoiy xizmatlarini tashkil qilish;

Nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlaydigan ixtisoslashtirilgan internat, ta’lim muassasalari va reabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirishdan iborat. 2023 yil 15 oktyabrdan boshlab, dastlab 28 ta tuman va shaharda eksperiment tariqasida, prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi va ijtimoiy xodimlar guruhi ko‘rsatadigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar tizimi yo‘lga qo‘yildi [3]. Joriy yilda Muruvvat uyi faoliyatini yanada takomillashtirish va boalalarning individual rivojlanishi uchun jamiyatga integratsiyani ta‘minlash maqsadida barcha “Muruvvat” uylarida “G‘amxo‘rlik guruhi” tashkil etilidi hozirda amalda ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Vazirlar Mahkamasining 46-sonli qaroriga asosan, “Alohida ta’lim ehtiyojlari ning ta’lim olishi bepul amalga oshirilabo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[4]

Unga ko‘ra:

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yo‘llash bo‘yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya hamda ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlarga yo‘llash bo‘yicha psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar negizida Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari huzurida yagona psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalari tashkil etiladi.Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, maktab-internatlarda qisqa muddatli ta’lim va tarbiya berishga mo‘ljallangan

“G‘amxo‘rlik” guruhlari:

2024-yil 1-fevraldan Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, maktab-internatlarda;

2024-yil 1-apreldan Toshkent viloyatidagi ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, maktab-internatlarda;

2024-yil 1-avgustdan respublikaning qolgan hududlaridagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, maktab-internatlarda

2024-yil 1-apreldan boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash hududiy markazlarida bolalar reabilitatsiyasi bo‘limlari tashkil etiladi. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida tashkil etilgan “G‘amxo‘rlik” guruhidagi bolalarning ta’lim olishi mutlaqo bepul tarzda amalga oshiriladi. Bundan tashqari O‘RQ-575-sonli 17.09.2021 O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida qarori qabul qilingan [5]. Bunda “Muruvvat” bolalar internat uylarining asosiy vazifalari va funksiyalari belgilanga va ular quyidagilar:

-Nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, ularni sog‘lomlashtirish va qo‘llab-quvvatlash, ularning sifatli tibbiy-ijtimoiy yordam olishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

-Nogironligi bo‘lgan bolalarning ijtimoiy-huquqiy himoya qilinishini ta’minlash;

Nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiy moslashtirish, ularga o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib kasb-hunar o‘rgatish;

-Dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash tizimining yuqori malakali mutaxassislarini jalb etgan holda nogironligi bo‘lgan bolalarni bepul har yili ikki marta tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, sog‘lomlashtirish va ixtisoslashtirilgan statsionarlarda davolashni tashkil qilish;

-Nogironligi bo‘lgan bolalarni protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiyaning texnik vositalari (eshitish apparatlari, nogironligi bo‘lgan shaxslar aravachalari, hassa va qo‘ltiqtayoqlar, yurish moslamalari), shaxsiy gigiyena vositalari bilan ta’minlash;

-Nogironligi bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni muntazam takomillashtirib borish;

-Ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlarni, shu jumladan konsert dasturlarini tashkil etish orqali nogironligi bo‘lgan shaxslarning madaniy hayotda faol ishtirok etishlarini ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Endi e’tiborli jihatlaridan biri,

Xorijda (AQSHda) muruvvat uyi tushunchasi mavjud emas,balki alohida ehtiyojga ega shaxslarning har tomonlama barkamol voyaga yetishlari uchun Maxsus bolalar internat maktablari mavjud. Aynan maxsus nom ostida yani “Mening sehrli bolam”, “Mening qimmatbaho bolam” Shimoliy Florida maxsus ta'lim maktabi 1992 yilda bir guruh ota-onalar o‘zlarining intellektual va rivojlanishidagi farqlari bo‘lgan farzandlari uchun ta'lim imkoniyatlarini yaxshilash zarurligini aniqlaganlaridan keyin tashkil etilgan. Floridadagi eng yaxshi maxsus ehtiyojli maktablardan biri bo‘lib, 6 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan aqliy va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga hizmat qiladi. AQSHda davlat maktablari inklyuziv barcha bolalar uchun ochiqdir. 2016 yil uchun Milliy ta'lim statistikasi markazi ma'lumotlariga ko‘ra, nogiron o‘quvchilarning qariyb 60 foizi maktab sinflarida sog‘lom tengdoshlari bilan birga o‘qigan [6].

STARS Autizm maktabi autizm bilan yashovchi bolalar uchun autizmga mos fan ta'lim tizimini taqdim etadi, bu ularga o‘z hayotlarida yuqori darajaga ko‘tarilish va oldinga siljish imkonini beradi. Hodimlar talabalarni mehribon va g‘amxo‘r muhitda texnologik va ko‘p tilli bilimlarga erishishga tayyorlashga intiladi. STARS o‘quv dasturlarini ishlab chiqish uchun Houghton Mifflin Harcourt dasturidan foydalanadi. STARS o‘quv dasturi muntazam ravishda ko‘rib chiqiladi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:[7]

- San'at, terapiya, raqs va sport
- Sport
- Yoga
- Robot va shaxmat dasturlari
- Aromaterapiya
- Kasbiy va jismoniy terapiya
- Nutq terapiyasi
- Yozgi oromgoh
- Oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Muruvvat uylari” tarbiyalanuvchilariga bo‘lgan e’tibor oshdi bunga yaqqol misol sifatida Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilgangnligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston va Xorij

tajribasida asosiy maqsad bolalarni imkon qadar reabilitatsiya qilish va hayotga moslashtirish,ota-onalarga psixologik yordam berishni o‘z ichiga oladi. Taklif sifatida muruvvat uyida ijtimoiy xodimlarni faoliyatini oshirish va ular har bir nuruvvat uyi tarbiyalanuvchisini bilan individual tarzda ishlab bolalari bu muassasaga kelib qolish sababini aniqlash avvalgi oilaviy sharoitini baholash hamda mavjud ota-onalar bilan bog‘langa holda bolalarni o‘z oilalarining bag‘riga imkon qadar qaytarish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Asosiysi bola mehrdan ortda qolmasligidir.

REFERENCES:

1. SH.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” 2021-yil.26-bet.
2. PF-82-sonli “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar” to‘g‘risida Prezident farmoni.01.06.2023-y
3. PF-82-sonli “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar” to‘g‘risida Prezident farmoni.01.06.2023-y
4. https://lex.uz/docs/-6779571 PQ-46-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident qarori.
5. O‘RQ-575-sonli 17.09.2021 O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to‘g‘risida president qarori.
6. Gilmour A. F. Has inclusion gone too far? Weighing its effects on students with disabilities, their peers, and teachers // Education next. 2018. Vol. 18, No. 4. P. 8-16. URL: https://www.educationnext.org/has-inclusion-gone-too-far-weighing-effects-students-with-disabilities-peers-teachers/ (дата обращения: 20.10.2019)
7. А.Мелия. “Мир Аутизма 16 супергероев” 2019-г 51-ст

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK MUAMMOSINI O‘RGANISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Mumtozxon Asilbekovna Abduvaliyeva
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish kafedrasi dotsenti v.b. (PhD)

Mehrina-bonu Jalilova
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish yo’nalishi 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada ayollarga nisbatan zo‘ravonlik muammosini turli madaniy va diniy matnlar prizmasidan tahlil qilishning nazariy va uslubiy asoslari, shuningdek, taniqli mutafakkir va sotsiologlarning asarlari va falsafiy asarlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada “Avesto”, “Qur’on” matnlari, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Fitrat asarlaridagi ushbu muammoga munosabat, shuningdek, sotsiologlar J. Xirn va M. Sheller, T. Parsons va V. Bronfenbreningning ekologik tizimlar nazariyasi prizmasi orqali. Maqolada, shuningdek, Leonora Uokerning o‘rganilgan nochorlik nazariyasi va mahalliy olimlarning ushbu mavzu bo‘yicha ishlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik**,** ayollar**,** reabilitatsiya, ijtimoiy himoya, ekologik tizimlar, nochorlik nazariyasi, patriarxat.

ABSTRACT:

This article examines the theoretical and methodological foundations of the analysis of the problem of violence against women through the prism of various cultural and religious texts, as well as the works and philosophical works of famous thinkers and sociologists. The article deals with this problem in the texts of "Avesta", "Quran", works of Ibn Sina, Alisher Navoi, Fitrat, as well as sociologists J. Hearn and M. Sheller, T. Parsons and V. Bronfenbrening through the prism of ecological systems theory. The article also analyzes Leonora Walker's theory of learned helplessness and the work of local scholars on this topic.

Keywords: violence, women, rehabilitation, social protection, ecological systems, theory of helplessness, patriarchy.

Bugungi kunda global miqyosda e‘tirof etilayotgan dolzarb ijtimoiy muammolardan biri butun dunyo bo‘ylab ayollarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari hisoblanadi.

Bu nafaqat bugungi kunda dolzarb muammo sifatida o‘rganilib qolmay, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, ularning erkaklar bilan munosabati hamda haq-huquqlari haqida insoniyat qadim davrlardan boshlab fikr yurita boshlagan.

Ayollarga nisbatan zo'ravonlik muammosiga turlicha yondashuvlarni o'rganish ushbu muammoni yaxshiroq tushunish va uni hal qilishning samarali usullarini aniqlash imkonini beradi. Turli madaniyatlar va dinlarga oid manbalarni, shuningdek, olimlar va faylasuflarning ishlarini tahlil qilish ayollarga nisbatan zo'ravonlik haqida turli xil qarashlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da oila-nikoh munosabatlari, ayollarga nisbatan munosabat xususida bir qator fikrlar bayon qilingan. Ushbu kitobda qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi qat‘iyan man etilgan [1].

Muqaddas Qur’oni Karimning “Niso” surasida xotin-qizlarga nisbatan munosabatlarning xususiyatlari batafsil belgilab berilgan [2].

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoyasi masalasiga sharq allomlari alohida e‘tibor qaratgan. Jumladan sharq mutafakkirlarining namoyondalaridan biri bo’lgan Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tadbiri manzil” asarida er-xotin munosabatlari, oilada ayollarga nisabatan sevgi va mehrning bo‘lishi hamda erkak kishi oila boshlig‘i hisoblanib, barcha burch va ma’suliyatni o‘z zimmasiga olmoqligi kerakligi haqida fikrlari diqqatga sazavordir [3].

Ulug’ alloma Alisher Navoiy ham ayollar haqida o‘zining qarashlarini ilgari suradi. “Mahbub-ul-qulub” asarining “Uylanish va xotinlar to‘g‘risida”gi faslida ayol kishining oiladagi o’rniga to’xtalib: «Yaxshi xotin-oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo’lsa- ko‘ngil yozig‘i, xushmuomala bo’lsa –jon ozig’idir. Ayol oqila bo’lsa ro’zg’orda tartib-intizom bo’ladi, asbob anjomlar pokiza va saranjom turadi” deydi [4].

XX asr Turkiston jadidchilik harakatining ulkan namoyondalaridan biri A. Fitrat o’zining asarlarida xotin-qizlarimizning o’qimishli bo’lishlari kerakligi haqida ko’plab ibratlarni fikrlarni keltirib o‘tgan [5].

Jamiyatda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik muammolari ortib borishi, zo‘ravonlik oqibatlarining jamiyatda ta’siri olimlarning diqqat e‘tiborini tortdi va buning natijasida turli xil nazariyalar va yondashuvlar ishlab chiqildi.

Zamonaviy sotsiologik fanlarda zo‘ravonlikning keng tarqalgan talqinlaridan biri bu tarkibiy nazariya J. Xirn, M. Sheller tomonidan ishlab chiqilgan bo’lib, unga ko'ra patriarxat madaniyati ijtimoiy-tarkibiy oqibatlarga ega bo’lib, erkak va ayolning jamiyatdagi va oiladagi mavqei o'rtasidagi doimiy farqni shakllantiradi va qayd etadi [6].

Ushbu omillarning ta'siri natijasida gender guruhlari ekspluatatorlar va ekspluatatsiya qilinganlar o‘rtasidagi munosabatlar sodir bo‘ladigan o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sinflarga aylanib, ijtimoiy-maqomning tabiati va xususiyatlariga ega bo‘ladilar. Shu nuqtai nazardan, oilaviy munosabatlardagi zo‘ravonlik ekspluatatsiya munosabatlaridan kelib chiqadi va bu oila boshlig'ining ustun mavqeini saqlab qolish va unga bog'liq foyda olish usulidir.

Ushbu nazariyaga ko‘ra zo‘ravonlik holatlari ma’lum bir pog‘onada amalga oshiriladi.

Birinchi pog‘ona jabrlanuvchini jabrlovchi juda ham qattiq nazorat qilishi;

Ikkinchi pog‘ona zo‘ravonlikni amalga oshirish;

Uchinchi pog‘ona zo‘ravonlikni amalga oshirgan shaxsga nisbatan jabrlanuvchining qaram bo‘lib qolishi va bu orqali ayollarga nisbatan zo‘ravonlik nafaqat jismoniy va balki psixologik, iqtisodiy va jinsiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Yana bir zo‘ravonlikka oid nazariya asoschisi T. Parsons hisoblanadi. T. Parsons o‘zining ijtimoiy harakatlar nazariyasini ishlab chiqadi va bu oila sotsiologiyasining nazariy qoidalari, oiladagi zo'ravonlikning gender jihatlari tushunchasi va zo'ravonlik omillarini shakllantiruvchi belgilar haqida talqin qiladi [7].

Uri Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga asoslangan kompleks yondashuv zo‘ravonlikni individual va ijtimoiy-madaniy omillarning o‘zaro ta'siriga asoslangan ko‘p qirrali hodisa deb biladi [8].

Nazariyaga asosan zo‘ravonlik hodisasini to‘rt darajada tahlil qilish mumkin. Birinchi daraja-individualdir, shaxslararo munosabatlarni tavsiflaydi. Shaxsiy darajada zo'ravonlikning sabablari shaxsiy munosabat, shuningdek jismoniy va psixologik salomatlik darajasidagi muammolar bo'lishi mumkin.

Ikkinchi daraja-bu oila. Oila ichidagi zo'ravonlik naqshlarining shakllanishiga ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar, oilaviy hayotni tashkil etish va oila ichidagi rollarni taqsimlash ta'sir qiladi.

Uchinchi daraja-ijtimoiy institutlarni, rasmiy va norasmiy ijtimoiy tuzilmalarni qamrab oladigan sotsiostruktura bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu darajada muhim omil-bu jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, shuningdek ishsizlik kabi iqtisodiy omillar. Uydagi zo'ravonlik, shuningdek, jamoat me'yorlari va bu masalaga qanday munosabatda bo'lishi (masalan, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati) ta'sir qilishi mumkin.

To‘rtinchi daraja-makro tizim umuman madaniyatga singib ketgan ijtimoiy munosabatlarni anglatadi. Ayollarga nisbatan oiladagi zo'ravonlik nuqtai nazaridan, bu munosabatlar ijtimoiy rollarning an’anaviy bo‘linishi sifatida qaraladi.

Leonora Uolker tomonidan ishlab chiqilgan o’rganilgan nochorlik nazariyasi sida keltirilishicha ayollarga nisbatan zo’ravonlik holatlarini va uning sabab, oqibatlarini inson psixikasi bilan bog’laydi [9]. Ushbu o’rganilgan nazariya psixikaning holatini anglatadi, unda xatti-harakatlar natijalarga ta'sir qilmaydi degan tushunchaga mos keladi. Yani ushbu nazariyada, vaziyatni o‘zgartirish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘lsa ham, odam tashabbus ko'rsatmaydi. Garchi bu nazariya feministik tushuntirish sifatida ishlab chiqilgan bo‘lsada, hozirgi kunda bu nazariya reduksionist sifatida keng tanqid qilinmoqda. Oddiy shaklda u oiladagi zo'ravonlikka olib kelishi mumkin bo'lgan ko'plab oqilona ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni hisobga olmaydi.

A. V. Lysova o’zining ilmiy izlanishlari davomida ayollarning 50 foizi kamida bir marta erkaklar tomonidan zo’ravonlikka uchraganini ko’rsatadi; 18 foizi muntazam ravishda va 60 foizdan ortig‘i turli darajadagi jarohatlarga duchor bo‘lgan hamda oiladagi zo‘ravonlik bu turli shaklda kuzatiladi va qasddan sodir etilgan qotilliklarning taxminan 30% rus oilasida sodir bo‘lishi haqida to‘xtalib o‘tgan [10].

A. Milshin o‘zining monografiyasida shunga o‘xshash ma’lumotlarni keltiradi, u barcha zo‘ravonlik jinoyatlarining 30-40 foizi oilada sodir etilishini ko’rsatadi. Oilaviy maishiy mojarolar tufayli vafot etgan yoki tan jarohati olgan shaxslar zo‘ravonlik jinoyatlaridan jabrlanganlarning turli toifalari orasida birinchi o‘rinni egallab turibdi degan qarashni ilgari suradi [11].

Yuqoridagi nazariyalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ayollar mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalaridagi jarayonlarda xotin-qizlarning ishtiroki va faolligi tobora ortib bormoqda. Bu, albatta, yurtimizda opa-singillarimizning o‘z salohiyatlarini to‘laqonli yuzaga chiqarishi uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar, umuman, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar samarasidir. Qolaversa, jamiyatimiz rivojida hayotimiz gultoji bo‘lgan xotin-qizlarning ma’naviy yetuk, tafakkuri keng, iqtisodiy, huquqiy jihatdan bilimdon va faol bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish o‘zbek xalqiga xos olijanob xususiyatlardan biridir. Shu ma’noda O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy- ma’naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo‘lgan munosabat va e’tibor bilan bog‘liq.

Mamlakatimiz olimlari ham bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan zo’ravonlik muammolari, sabab va oqibatlarini hamda ayollarni zo’ravonlik holatlaridan himoya qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlarini olib bormoqdalar.

Ularning fikricha, xalqaro amaliyotda oiladagi zo‘ravonlik qurbonlariga yordam ko‘rsatishning muhim miqdoriy va sifat standartlari mavjud bo’lib, eng ilg‘or bo‘lganlari Yevropa Parlamenti, Yevropa Kengashining ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash bo‘yicha ishchi guruhi va nohukumat tashkilotlarning zo‘ravonligiga qarshi ayollarning Yevropa tarmog‘i (WAVE) tavsiyalaridir.

Xorijda jamoat tashkilotlari ijtimoiy xizmatlar sifati tamoyillari va standartlarini ishlab chiqish va joriy etishda o‘rni yuqori bo‘lganligi hamda bunday standartlarga rioya qilish ayollar va ularning bolalariga nisbatan keyingi zo‘ravonlik harakatlarining oldini olish uchun jabrlanuvchilarga ko‘rsatilayotgan yordam sifatini ta’minlashi haqida qarashlarini ilgari surdilar [12].

Ularning fikricha, oilaviy zo'ravonlik qurbonlari kamdan-kam hollarda o‘z muammolari haqida ochiq gapirishga tayyorligi, buning sababi sifatida esa jabrlanuvchilarda ko‘pincha qo‘rquv, aybdorlik, uyat hissini boshdan kechirishlari va bu kabi holatlar yordam so'rashga to'sqinlik qilishidir.

Ular davlat idoralarida kadrlar almashinuvi ko‘p bo‘lganligi sababli ko‘pincha malakali mutaxassislar yetishmasligi, mutaxassislar mas’uliyatni to‘laqonli his qilmasligi, bu esa gender asosidagi zo‘ravonlik muammosiga salbiy ta'sir ko'rsatishini haqida alohida to‘xtalib o‘tadilar.

Xulosa qilib aytganda, sharq mutafakkirlari asarlaridan ma’lum bo‘lishicha, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi ko‘pincha madaniy va diniy jihatlar prizmasidan tahlil qilingan, bu muammoning jamiyatdagi chuqur ildizlarga ekanligini ko’rishimiz mumkin. Sotsiolog olimlarning asarlarida zo‘ravonlik konteksti va uning sabablarini shakllantiruvchi ijtimoiy omillar va normalarni o‘rganish muhimligini ta’kidlanadi. Psixologik tadqiqotlar psixologik mexanizmlarning jabrlanuvchiga va jinoyatchiga ta'sirini ta'kidlaydi, bu esa jamiyatda ushbu muammoning kelib chiqish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tushunishga yordam beradi.

REFERENCES:

1. Ashirov A. “Avesto” va zardushtiylarning oila turmush marosimlari haqida// O’zbekistonda ijtimoiy fanlar. -2002. -B.50**.**
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim (Ma’nolarning tarjimasi). – Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2007. -B. 77.
3. Abu Ali ibn Sino. Ta’lim va tarbiya haqida. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1967. -B. 99.

4. Alisher Navoiy. Mahbub-ul-qulub. – Toshkent: 1966. 13-jild. B. 244.
5. Abdurauf Fitrat. Oila. –Toshkent, Ma’naviyat, 1998. – 34 b.
6. Hearn J. The Gender of Oppression: Men, Masculinities and the Critique of Marxism. Wheatsheaf books, 1987.
7. Grathoff R., ed. Ijtimoiy harakatlar nazariyasi: Alfred Shuts va Talkott Parsonsning yozishmalari/ Bloomington; London: Indiana UP, 1978.
8. Bronfenbrenner U. Ecological systems theory// Annals of Child Development. - 1 989. - №6. - P.188.
9. Lenore E. A. Walker. The battered woman syndrome /. Description: Fourth Edition. | New York : Springer Publishing Company, 2016. | Revised edition of the author’s the battered woman syndrome.
10. Лысова А. В. Концептуально-теоретические предпосылки формирования реакции социальных институтов на насилие в семье: Дис. ... канд. соц. наук. Владивосток, 2002.
11. Мильшин А.О. Проблемы женщин, переживающих домашнее насилие. Научный журнал Вестник ассоциации вузов туризма и сервиса. 2010/ № 3. 68-74 С.
12. Narbaeva, T., Ganieva, M., Nurmatova, M., Latipova, N., Ziyaeva H. (2020). Mechanisms of improving social protection of women: Risk indicators and statistics (In the context of gender-based violence). Journal of Critical Reviews, 7(4), 38–41. https://doi.org/10.31838/jcr.07.04.09

O’ZBEKISTONDA YOSHLARGA QARATILGAN IJTIMOIY SIYOSATNING XUSUSIYATLARI

Qaxramon Abdulxamid o’g’li Axmedov
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish kafedrasi katta o’qituvchisi

Go’zal Imomxasanova
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish yo’nalishi 3 bosqich talabasi

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada O’zbekiston Respublikasining yoshlarga qaratilgan ijtimoiy siyosati hamda davlat siyosati yoritilgan, qonunchilik asoslari bilan kafolatlangan. Jamiyatimizda yoshlarning ijtimoiy va siyosiy jabhalarda yetakchi o‘rinlarni egallashiga qaratilgan tizimli islohotlar qayd etilgan. Shuningdek, mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning yoshlarga nisbatan e’tibori haqida ma’lumotlarga ega bo’lamiz.

Kalit so’zlar: Yoshlar, jamiyat, ijtimoiy siyosat, davlat siyosati, ijtimoiy himoya, ta’lim, oliy ta’lim, besh tashabbus, IT sohasi, konsepsiya, taraqqiyot strategiyasi, yoshlar strategiyasi, El-yurt umidi jamg’armasi, inson kapitali.

ABSTRACT:

This article describes the social policy of the Republic of Uzbekistan aimed at young people and the state policy, which is guaranteed by the legal framework. In our society, there have been systematic reforms aimed at young people taking leading positions in the social and political spheres. We will also get information about the attention of the President of our country Sh.M. Mirziyoyev towards the youth.

Keywords: Youth, society, social policy, state policy, social protection, education, higher education, five initiatives, IT sector, concept, development strategy, youth strategy, El-Yurt Umidi Fund, human capital.

Har bir davlatning o’ziga xos rivojlanish uslubi, bosib o’tgan yo’li va tajribasi mavjud. Shu boisdan mamlakatlar ham rivojlangan, rivojlanayotgan hamda eng kam rivojlangan mamlakatlar toifalariga bo’linadi. Bugungi kunda Respublikamiz rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridadir. Buning sababi, keng quloch yozayotgan zamonaviy sohalar, yo’nalishlar hamda kasblarga tamomila urg’u berib, e’tirof etayotganida va unib, o’sib kelayotgan yosh avlodning poydevori va kelajagiga o’z e’tiborini qaratayotganida desak mubolag’a bo’lmaydi. O’zbekiston Respublikasida mamlakatdagi yoshlar uchun davlat siyosati hamda ijtimoiy siyosat sezilarli darajada o’z ijrosini namoyon etmoqda. Bunga yaqqol namuna sifatida Mamlakatimizda o‘tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy

manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi. Hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi.

Yosh avlodning sog‘lom o‘sishi, sifatli ta’lim olishi va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishini ta’minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Besh muhim tashabbus”ni joriy etish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta’lim maskanlari — “Prezident maktablari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktablari” bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo‘lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilga rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, 2030-yilgacha mo‘ljallangan “Yoshlar strategiyasi”, Yoshlar manfaatlari bo‘yicha butunjahon harakatlar dasturi, 2020-yil dekabr oyida tashkil etilgan “O‘zbekiston yoshlari” forumida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqilgan.

Jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko‘plab talablarni qo‘ymoqda. Konsepsiyaning maqsadi-yoshlarni jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, ilmiy va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga faol jalb qilishdan iborat [1].

Qolaversa, O’zbekiston Respublikasining Yoshlarga oid davlat siyosati to’grisidagi qonunning 3-bob 23-moddasida Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish kafolatlari to’g’risida so’z boradi, xususan ularning huquqi va bir qancha ijtimoiy muhofazasi qo’llab-quvvatlanadi.

-bepul umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim olish;

-davlat ta’lim muassasalarida davlat grantlari doirasida bepul kasb-hunar va oliy ta’lim olish;

-davlat sport-sog‘lomlashtirish va madaniy-ma’rifiy muassasalariga borish uchun shart-sharoitlar yaratish;

-uy-joy qurish, olish va uni rekonstruksiya qilish uchun imtiyozli kreditlar berish;

-ta’lim muassasalarida o‘qish uchun imtiyozli kreditlar berish;

-yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni turar joylar bilan ta’minlash;

-o‘rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta’lim muassasasini bitirganidan keyin bandlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

-mehnat sohasida yoshga doir o‘ziga xosliklarni inobatga olgan holda imtiyozlar berish va ishni ta’lim bilan qo‘shib olib borish uchun shart-sharoitlar yaratish;

-ijtimoiy infratuzilma obyektlarini loyihalashtirish va qurish chog‘ida yoshlarning ehtiyojlarini hisobga olish;

-jamoat transportidan foydalanishda imtiyozlar berish.

Ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan yosh fuqarolarni ishga joylashtirishga yordam qo‘shimcha ish o‘rinlari va ixtisoslashtirilgan korxonalarni barpo etish, o‘qitish bo‘yicha maxsus dasturlarni tashkil etish, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan yoshlarni ishga joylashtirish uchun korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda ish joylarining eng kam miqdori zaxirasini yaratish yo‘li bilan ta’minlanadi [2].

Yosh avlodni har tomonlama keng qo’llab-quvvatlanayotgani ularga alohida urg’u berilayotgani hatto 2024-yilning Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash” yili deya e’tirof etilganida ham o’z aksini topadi.

Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, “yashil” va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi hamda yangi ish o’rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish e’tiborimiz markazida bo’ladi. Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori ko’paytirilishi, xotin-qizlar va nuroniylarni, yordamga muhtoj insonlarni qo’llab-quvvatlashga alohida ahamiyat beramiz. Ijtimoiy sohalar rivojini mutlaqo yangi bosqichga ko’taramiz deydi mamlakatmiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O’zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi nutqida [3].

Rivojlanayotgan mamlakatimiz taraqqiyotga erishish yo’lida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi dasturi yaratildi va uning 4-yo’nalishining 50-maqsadi aynan yoshlarga doir va quyidagicha talqin etiladi.

Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish 50-maqsad: “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy

oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o‘qitish.

Xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta’lim olish uchun ochiq saralash tanlovlarini o‘tkazish.

Xorijiy oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat, magistratura va doktorantura ta’lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamg‘arma tomonidan ochiq tanlov e’lon qilish va o‘tkazish [4]. Ushbu taraqqiyot strategiyasidan ma’lum bo’ladiki, har bir izlanuvchan va o’z ustida ishlaydigan yoshlarni davlat qo’llab-quvvatlashi va keng imkoniyatlar yaratib berishi ko’zda tutilgan.

Xulosa o’rnida shuni aytish, joizki, rivojlanaman, yetakchi va bozor iqtisodiyotida raqobatbardosh kadr bo’laman degan yoshlar bugungi kunning qahramonlari va iqtidorlari deya tamomila e’tirof etilmoqda. Hozirgi davrda zamon yoshlarniki deya bong urilayotgani mubolag’a emas, ayni haqiqatdir shu sababli buni anglab, tafakkur etish muhim va dolzarbdir.

Shu boisdan ushbu imkoniyatlardan unumli hamda oqilona foydalanmoq o’zini yuksaltiraman degan yosh avlod uchun g’urur va iftixor masalasidir.

REFERENCES:

1. O’zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son
2. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonunchilik O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406-son
3. https://president.uz/uz/lists/view/6956 Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O’zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi nutqi
4. 2022- 2026- yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida 28.01.2022 yildagi PF-60-son

TO‘LIQ BO‘LMAGAN OILA LAR BILAN ISHLASHDA IJTIMOIY ISH XODIMLARINING O‘RNI

G‘ulom Xolmurodov
O‘zbekiston Milliy Unversiteti o‘qituvchisi

Pardaxol Xafizova
O‘zbekiston Milliy Unversiteti talabasi

ANONOTATSIYA:

Ushbu maqolada to‘liq bo‘lmagan oila tushunchasining mohiyati, to‘liq bo‘lmagan oilalar bilan ishlashdagi asosiy vazifalari, rivojlangan mamlakatlarda, to‘liq bo‘lmagan oilalarni ijtimoiy himoya qilish yo‘nalishlari kabi jihatlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: to‘liq bo‘lmagan oila, diognastika, himoya, manzilli ijtimoiy himoya, iqtisodiy muommo, ishsizlik muommosi, disfuksiya, uy – joy muommosi, psixologik muommo.

ANNOTATION:

This article describes aspects such as the essence of the concept of a single-parent family, the main tasks in working with single-parent families, directions of social protection of single-parent families in developed countries.

Keywords: incomplete family, diagnosis, protection, targeted social protection, economic problem, unemployment problem, dysfunction, home-place problem, psychological problem.

To‘liq bo‘lmagan oila zamonaviy oilaning asosiy ijtimoiy-demografik turlaridan biridir. To‘liq bo‘lmagan oila - bu to‘liq bo‘lmagan aloqalarga ega bo‘lgan kichik guruh, bu yerda an’anaviy ona - ota-bola munosabatlari tizimi mavjud emas.

To‘liq bo‘lmagan oila - bu bitta ota-onadan va u bilan birga yashaydigan bolalardan iborat kichik ijtimoiy guruh.

Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, to‘liq bo‘lmagan oilalar - bitta ota-ona voyaga yetmagan bolasi (bolalari) bilan yashaydigan va u (ular) uchun asosiy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladigan oila.

To‘liq bo‘lmagan oila ajrashish, noqonuniy tug‘ilish, ota-onadan birining vafoti yoki ajralish natijasida vujudga keladi.

E.Ivert-Jalue to‘liq bo‘lmagan oilalar toifasiga hech qachon turmush o‘rtog‘i bo‘lmagan yoki o‘z farzandini boqib, tarbiyalayotgan oilalar kiradi deb ta’riflaydi[1].

T.A.Gurko voyaga yetmagan bolalari bilan faqat onasi yoki faqat otasi yashaydigan oilani to‘liq bo‘lmagan oiladir[2].

Amalda, to‘liq bo‘lmagan oilalarning shakllanishining eng keng tarqalgan sabablari turmush o‘rtoqlarning ajralishi va noqonuniy tug‘ilishdir.

Zamonaviy oila nafaqat o‘z a’zolarining kundalik hayoti, bolaning tug‘ilishi va tarbiyasi, qobiliyatsizlarni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni hal qilishga, balki inson uchun o‘ziga xos psixologik boshpana bo‘lishga ham chaqiriladi. Bu o‘z a’zolariga iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va jismoniy xavfsizlikni ta’minlaydi. Bugungi kunda ko‘plab oilalar jamiyat tomonidan belgilangan funksiyalarni to‘liq amalga oshirish uchun yordamga muhtoj.

To‘liq bo‘lmagan oilalarda ijtimoiy ish kundalik oilaviy muammolarni hal qilishga, ijobiy oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirishga, ichki resurslarni tiklashga, erishilgan ijobiy natijalarni barqarorlashtirishga, ijtimoiy-iqtisodiy mavqega va sotsializatsiya potensialini amalga oshirishga yo‘naltirilishi kerak. Ulardan kelib chiqqan holda, ijtimoiy ishchi quyidagi vazifalarni bajaradi:

diagnostika (oilaning xususiyatlarini o‘rganish, uning imkoniyatlarini aniqlash);

himoya (oilani huquqiy qo‘llab-quvvatlash, uning ijtimoiy kafolatlarini ta’minlash, uning huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun sharoit yaratish);

tashkiliy va kommunikativ (muloqotni tashkil etish, qo‘shma faoliyatni boshlash, birgalikda dam olish, ijodkorlik);

psixologik va pedagogik (oila a’zolarining psixologik va pedagogik ta’limi, shoshilinch psixologik yordam ko‘rsatish, profilaktika yordami va patronaj);

prognostik (vaziyatlarni modellashtirish va aniq manzilli yordam dasturlarini ishlab chiqish);

muvofiqlashtirish (oila va bolalarga yordam berishda aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘limlari, ichki ishlar organlarining oilaviy muammolar bo‘limlari, ta’lim muassasalari, reabilitatsiya markazlari hodimalari faoliyatini birlashtirish va qo‘llab-quvvatlash).

Hozirgi kunda rivojlangan mamalakatlarda to‘liq bo‘lmagan oilalarni ijtimoiy himoya qilishning to‘rtta asosiy shakli mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

- bolalarning tug‘ilishi, parvarishi va tarbiyasi munosabati bilan bolalar uchun oilaga naqd to‘lovlar (nafaqalar va pensiyalar);

- to‘liq bo‘lmagan oilalarga mehnat, kredit, soliq, uy-joy, tibbiy va boshqa imtiyozlar;

- huquqiy psixologik-pedagogik, tibbiy va iqtisodiy maslahat;

- maqsadli va ijtimoiy yordam dasturlaridir.

Bugungi kunda to‘liq bo‘lmagan oilalar bilan ijtimoiy ish amaliyotida 4 ta yo‘nalish oraqali yordam ko‘rsatiladi:

- oilani saqlab qolishga qaratilgan favqulodda, shoshilinch chora-tadbirlarni amalga oshirish (shoshilinch yordam ko‘rsatish, to‘liq bo‘lmagan oilaga bir martalik

moddiy yordam ko‘rsatish; bolalar kiyimi, poyabzal, o‘quv qurollari va boshqalarni ko‘rsatish kiradi).

- to‘liq bo‘lmagan oila barqarorligini saqlashga qaratilgan turli xarakterdagi o‘rta muddatli chora-tadbirlar tizimini yaratish (o‘rta muddatli ish doirasida to‘liq bo‘lmagan oilalarni qo‘llab-quvvatlashning muhim yo‘nalishlaridan biri ularga psixologik yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlashdir. To‘liq bo‘lmagan oilalarda, ayniqsa disfunksiyali oilalarda o‘sayotgan bolalar va o‘smirlar ko‘p hollarda ular bilan doimiy psixologik ish olib borishga juda muhtoj. Qoida tariqasida, ularning yolg‘iz ota-onalari yoki vasiylari ham psixologik yordamga keskin ehtiyoj sezadilar. To‘liq bo‘lmagan oilalarga individual psixologik yordam ko‘rsatish o‘rta va uzoq muddatli ijtimoiy ishlar doirasida, ijtimoiy homiylik yo‘li bilan hamda alohida individual murojaatlar bo‘yicha amalga oshiriladi).

- to‘liq bo‘lmagan oila va uning a’zolarini ijtimoiy rivojlantirishga qaratilgan turli xarakterdagi uzoq muddatli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- “tasodifiy” to‘liq bo‘lmagan oilalar paydo bo‘lishining oldini olishga qaratilgan boshqa xarakterdagi profilaktika chora-tadbirlarni amalga oshirish.

To‘liq bo‘lmagan oilalarning ijtimoiy-pedagogik muammolarga, oilada bolaga yetarlicha ta’sir ko‘rsatmaslik, bir tomonlama tarbiyaviy ta’sir, ota-onalarning muvozanatsiz his-tuyg‘ularining namoyon bo‘lishi, ota-onalarning bolalarni tarbiyalash imkoniyati yetarli darajada emasligini ko‘rishimiz mumkin.

To‘liq bo‘lmagan oilalarda tarbiyalangan bolalar oiladagi erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar namunasidan mahrum bo‘lib, bu ularning umuman ijtimoiylashuv va ayniqsa, kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorligiga salbiy ta’sir qiladi. Ijtimoiy pedagog bolalarni ota-onalari bilan birlashtirish ko‘rsatkichini oilaviy ta’lim samaradorligining asosiy mezonlaridan biri sifatida baholaydi. To‘liq bo‘lmagan oilada ta’lim jarayonining ushbu komponentini amalga oshirish ota-onadan birining yo‘qligi sababli deformatsiyalangan bo‘ladi. Ota tomonidan to‘liq bo‘lmagan oilalarda yuqoridagi muammolar onalik mehrining yetishmasligi bilan to‘ldiriladi, ularsiz bolalarni tarbiyalash ham to‘liq bo‘lmaydi.

Bunday holatlarning barchasida oiladagi tarbiyaviy muhit buzilib, bola shaxsining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, to‘liq bo‘lmagan oila, garchi u bir qator obyektiv qiyinchiliklarga duch kelsa ham, bolalarni to‘laqonli tarbiyalash uchun yetarli imkoniyatlarga ega emas. Vaziyatga ko‘ra to‘liq bo‘lmagan oilaning boshlig‘i bo‘lgan ota-ona yuzaga kelgan vaziyatning psixologik xususiyatlarini ehtiyotkorlik bilan bilishi va ularning salbiy oqibatlarga olib kelishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Ta’lim faoliyati doirasida ota-onalardan biri bolani to‘liq nazorat qilish va umuman, ularning xatti-harakatlariga ta’sir qilish qiyin. Samarali tarbiyaga bir qator obyektiv sabablar to‘sqinlik qiladi: oilada odatiy triada yo‘q qilinadi: ota + ona + bolalar, bolalarga yetarlicha e’tibor berishga imkon bermaydigan ishda ortiqcha bandlik.

Iqtisodiy muammo (oila boshidan kechirgan moddiy qiyinchiliklar). Umumiy oila byudjeti shaxsiy mehnat daromadlari, nafaqalar, pensiyalar, davlat tomonidan belgilanadigan kompensatsiya to‘lovlari va nafaqalar, ajrashgandan keyin bolalarni qo‘llab-quvvatlash, pul yoki narsalar bilan sovg‘alar, qarindoshlar va do‘stlarning oziq-ovqatlaridan iborat.

Moddiy muammolar. Agar oilaning bitta daromadi bo‘lsa, u kam ta’minlangan hisoblanadi. Ishlamaydigan ota-onalar bilan oila ishsizlik nafaqalari va bolalar nafaqalari hisobiga yashashga majbur. Bolalarga beriladigan nafaqalar kam, o‘z vaqtida to‘lanmaydi, boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi va ajrashgan taqdirda aliment to‘lashda muammolar paydo bo‘lishi mumkin.

Ish bilan ta’minlash muammosi. Bu muammoni, ayniqsa yolg‘iz ona tomonidan hal qilish qiyin, chunki yolg‘iz ota-onaga yaxshi maoshli ish, uyga yaqin, bepul jadvalga ega bo‘lish, uyda ishlash, xizmat safarlari va tungi vaqtlarsiz ishlash imkoniyati mavjud. Farzandlarining normal hayotini ta’minlash uchun yolg‘iz ota-ona ortiqcha ish yukini, ko‘pincha qo‘shimcha daromadlarni oladi.

Uy-joy muammosi. Bu barcha to‘liq ota-ona oilalarida, ayniqsa yashash joyini almashtirish imkoni bo‘lmaganda paydo bo‘lishi mumkin. Ajrashgan ota-onalar birgalikda yashashga majbur bo‘ladi, bu esa nizolarga sabab bo‘ladi. Farzandli yolg‘iz ona uy-joy ta’minoti yo‘qligi sababli ota-onasi bilan yashashga majbur.

Psixologik muammolar. "Ota-onalar muammosi" - bu vaziyatga qarab, bitta ota-ona boshqa ota-onaning funksiyalarini bajarishi kerak bo‘lgan rollarni birlashtirish muammosi. Ota tomonidan to‘liq bo‘lmagan oilalarda turmush tarzi betartib bo‘ladi, jamiyat bunday oilalarni yaxshi qabul qilmaydi. Oilaviy hayot tajribasining yetishmasligi, ayniqsa yolg‘iz onalar uchun, qarama-qarshi jins bilan normal oilaviy munosabatlar tizimini o‘z ichiga oladi.

REFERENCES:

1.Ye. A. Ippolitova, Family prospects of the youth in the changing world (Azbuka, Barnaul, 2012).

2. Gurko T.A. New family forms: tendencies of spreading and concepts. Sotsiologicheskie issledovaniya [Sociological Studies]. 2017. No 11. P. 99-110.

АДАПТАЦИЯ ДЕТЕЙ И МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЕ

Чикос Анастасия
Студентка 1-го курса, направление Социальная работа
Национальный университет Узбекистана Республики Узбекистана,

В. С. Алексеева
и.о.проф.кафедры Социальная работа

ANNOTATSIYA

Maqolada nogiron bolalar muammolari tahlil qilinadi, shuningdek, nogiron bolalar o'rtasida talabalarni o'rganish natijalari taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy moslashuv, integratsiya, nogiron bolalar, ijtimoiy moslashuv muammolari.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются проблемы детей с инвалидностью, а также приводятся результаты проведенного студенческого исследования среди детей с инвалидностью.

Ключевые слова: социальная адаптация, интеграция, дети с ограниченными возможностями, проблемы социальной адаптации.

Согласно данным Всемирного банка, в Узбекистане 13,5% всего населения в возрасте от 3 лет и старше имеют ту или иную форму инвалидности, а 3,5% имеют серьёзную форму инвалидности. Официально по состоянию на 2022 год людьми с инвалидностью были признаны 845,3 тысячи человек, или 2,3% от общей численности населения. В Узбекистане 142,3 тысячи детей-инвалидов до 18 лет. Данная проблема является актуальной и система социальной защиты в данном направлении достигла определенных успехов. в 2020 году в Узбекистане была принята и предложена концепция развития инклюзивного образования. Проект утвержден для реализации в течении 5 лет, целью его является включение всех людей, вне зависимости от их особенностей в полноценную общественную жизнь. К 2025 году планируется достичь инклюзивности в сфере образования минимум на 51%. Немаловажным для адаптации детей с ОВЗ и их родителям является социальная и материальная помощь, льготы на образование и медицину.

Так, в Узбекистане детям с инвалидностью до 18 лет полагается ежемесячное пособие в размере 621 000 сумов. Законному представителю, родителю или ухаживающему за ребенком с инвалидностью тоже положено пособие по уходу в размере 621 000 сум. Оба пособия назначаются Пенсионным фондом и установлены с официальной статистики минимальных потребительских расходов.

Дети с инвалидностью – это дети в возрасте от 0 до 18 лет, признанные в установленном порядке детьми-инвалидами, но имеющие временные или постоянные отклонения в физическом и (или) психическом развитии и нуждающиеся в создании специальных условий обучения и воспитания. К основным категориям детей с инвалидностью относятся: дети с нарушением слуха (слабослышащие, позднооглохшие); дети с нарушением зрения (незрячие, слабовидящие); дети с нарушением речи (логопаты); дети с нарушением опорно-двигательного аппарата; дети с умственной отсталостью; дети с задержкой психического развития; дети с нарушением поведения и общения; дети с комплексными нарушениями психофизического развития, с так называемыми сложными дефектами (например, дети с умственной отсталостью и проблемами со зрением, слухом).

Особое значение имеет социальная адаптация подрастающего поколения – процесс и результат согласования индивидуальных возможностей и состояния ребенка с окружающим миром, приспособления его к изменившейся среде, новым условиям жизнедеятельности, структуре отношений в определенных социально-психологических общностях, установления соответствия поведения принятым в них нормам и правилам. Социальная адаптация- процесс приспособления личности или группы к социальной среде для здорового взаимодействия, обретения психо-эмоциональной устойчивости индивидума или группы лиц в обществе для самостоятельного существования без вреда для ментального и физического здоровья в новых условиях.

В условиях реализации социальной политики государства в отношении людей с инвалидностью делается очень много, но проблема адаптации в социальной среде всё еще остается актуальной. Несмотря на то, правительство воспитывает в людях толерантность к людям с людьми, они всё ещё остаются уязвимыми в обществе, из-за существующего непонимания проблем детей с инвалидностью. Это связано с тем, что общество стереотипно мыслит в отношении детей с инвалидностью, такие семьи считаются бедными и маргинальными. Страна несмотря на развитие улучшения качества жизни людей с инвалидностью и оказания им профессиональной помощи не может

продвинуться вперед из-за отсутствия у общества толерантности, гуманизма и человеческих факторов. Для адаптации детей с инвалидностью в первую очередь должны быть приняты меры для борьбы с буллингом в социальной среде. Поэтому для совершенствования условий адаптации людей с инвалидностью необходимо изменять отношение в обществе.

Для наиболее эффективной адаптации детей с инвалидностью необходима разработка государственных проектов с учетом всех особенностей этого процента населения. Так же, следует осуществить интеграцию детей в обычное общество. Иными словами, создать методику образования и развития, которая будет учитывать и специфичные особенности и потребности детей с инвалидностью, и являться универсальной по содержанию. Однако, процесс интеграции долгий и не простой. Адаптационные изменения затрагивают как детей, так и социум, в который они интегрируются.

Во многих развитых странах накоплен большой опыт по реабилитации и интеграции детей с инвалидностью, по защите интересов и прав данной категории граждан. Социальный подход – комплексный, к работе с семьей, воспитывающей ребенка с инвалидностью подключается сразу несколько специалистов разных областей- врач, психолог, социальный работник.

В США при разработке и реализации программы раннего вмешательства выполняются две основные задачи:

1) как можно раньше выявить детей с отставанием в психическом развитии и / или с подозрением на сенсорные нарушения;

2) подобрать методы оказания необходимой помощи нуждающимся детям и их родителям.

В США именно специализированные фонды и организации осуществляют значительную часть услуг, положенных ребенку с инвалидностью по закону, за финансовые средства, предоставленные муниципалитетом.

В США не отказываются и от специальных школ, но помещение туда ребенка осуществляется лишь в крайних случаях.

В Великобритании помощь детям с инвалидностью оказывают три группы организаций: частные владельцы домов, обеспечивающих уход за определенную плату; общественный сектор; местные власти, которые обеспечивают большую часть социальных услуг.

Перспективные направления в адаптации и развитии детей с инвалидностью:

1. Создание высокоэффективной системы в организации оздоровительно-физкультурной работы, задачей которой является проведение физкультурно-оздоровительных мероприятий с учетом всех нюансов и факторов.

2. Учеба. Создание необходимых условий для эффективной помощи ребенку в построении целостной картины мира, для повышения социальной роли личности ребенка как носителя национальной художественной культуры. Реализация дополнительных образовательных программ по художественно – эстетическому творчеству, естественно – научному и т.д.

3.Естественно-научное направление обучения. Обучение детей с ОВЗ навыкам работе на компьютере: (умение пользоваться интернетом, word, excel, фотошоп и т.д)

4. Культурно-патриотическое направление обучения. Воспитание в ребенке патриотизма, привития уважения к традициям и культуре, эстетическо-социальное просвещение.

В процессе тренировок и занятий развивается чувство коллективизма, эмоциональное, коммуникативное и интеллектуальное развитие, что позитивно сказывается на общем здоровье ребенка.

Для написания данной статьи был проведен неформальный диалог-опрос. В опросе участвовало 10 человек от 11 до 22 лет с различными заболеваниями: ДЦП, СМА (спинальная мышечная атрофия), кифозом (искривление позвоночника), нейросенсорной потерей слуха и с приобретенной деформацией глаз (косоглазие). Вопросы задавались в форме обычной беседы. Перед началом исследования, была проведена консультация с психологом, чтобы избежать последствий в виде психологических травм и ухудшения общего состояния интервьюируемого. Исходя из диалога было выяснено, что только 3 из 10 оценили свою жизнь как удовлетворительную. Дети с позитивом относились к своему недугу, взрослые – с большим пессимизмом и тревожность, которая обусловлена низкой самооценкой, непринятием со стороны общества и нежеланием быть обузой для своих родителей. Необычным выводом являлось и то, что несмотря на разную форму болезней у опрашиваемых – самокритичное отношение к себе.

«Я чувствую себя счастливым, когда имею возможность быть таким как все» – примерно таким ответом поделись ребята. Дети с инвалидностью так же умны, способны и талантливы, как и обычные дети, но в то же время они более уязвимы. Они нуждаются лишь в том, чтобы им помогли проявить свои возможности и оказали поддержку – как педагоги, так и семья, в которой они воспитываются. Главное в работе с «особенными» детьми – это принятие

ценности ребенка самого по себе, его равного права на жизнь, свободу, выбор; индивидуальность независимо от возраста, пола, языка, социального происхождения, физического состояния. Ребенок осознает свои возможности и определяется: «Это я делаю, это я могу», принимает помощь взрослого человека в саморазвитии и самообразовании. Часто в силу своих заболеваний дети с инвалидностью не могут вести активный образ жизни, сверстники могут избегать общения с ними, не включают их в свои игры. Возникает ситуация рассогласованности между необходимостью осуществления нормальной жизнедеятельности ребенка и невозможностью её полноценной реализации. Поэтому необходимо создание клуба, где дети с инвалидностью смогут вести полноценный образ жизни.

REFERENCES:

1.Гасанова Х.К., Валиева П.В. ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ИНВАЛИДОВ // Материалы V Международной студенческой научной конференции «Студенческий научный форум»// scienceforum.ru/2013/article/2013006274;

2. Хамова Д.Л. СОЦИАЛЬНАЯ АДАПТАЦИЯ ДЕТЕЙ С С ИНВАЛИДНОСТЬЮ // Старт в науке. – 2018. – № 5-5.// URL: https://science-start.ru/ru/article/view?id=1190 (дата обращения: 24.04.2024).

3. https://www.gazeta.uz/ru/2019/03/02/disabled/

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO`RAVONLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH OMILLARI

Dildora Olimjonovna Axmedova
O‘zMU, PhD sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori , katta o‘qituvchi

E`zoza O`tkir qizi O`tkirova
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy ish yo’nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik turlari kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish mexanizmlari o‘rganilgan. Bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish bo‘yicha dunyoda va mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy huquqiy jaorayonlar yoritishga xarakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Zo‘ravonlik, konvensiya, ruxiy zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, empatiya, xissiy kuyish.

ABSTRACT:

This article examines the causes of violence against women and the mechanisms of their elimination. An attempt has been made to shed light on the socio-political legal processes in the world and in our country to prevent violence against women.

Keywords: Violence, convention, mental violence, economic violence, sexual violence, empathy, emotional burnout.

Bugungi kunda butun dunyo bo’ylab dolzarb ijtimoiy muammolardan biri ayollarga nisbatan tazyiq va zo’ravonlik holatlari hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat ustuvor vazifalaridan biri xotin-qizlarga nisbatan ijtimoiy adolat teng huquqlilik va to‘laqonli inson sifatida g‘amho‘rlik qilish hisoblanadi. Biroq, aksariyat holatlarda jamiyatda erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan u yoki bu shakldagi zo‘ravonlik sodir etilayotgani kuzatiladi.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida taxminan 736 million ayol (deyarli har uch ayoldan biri) umri davomida kamida bir marotaba u yoki bu shaklda zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan. Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik asosan ularning oila a’zolari turmush o‘rtoqlari, jinsiy sheriklari yoki sobiq erlari tomonidan zo‘ravonlik holatlariga uchrashgan[1]. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra xotin-qizlarning faqatgina 40 foizdan kamrog‘i zo‘ravonlikka uchragan xolatlarda yordam so‘rab murojaat

qiladi [2]. Demak amaliyotda bunday holatlar 3-4 barobar ko‘proq sodir etilishi mumkin.

Zo‘ravonlik - shaxsga nisbatan ogrik, zarar (shikast) yetkazish degani. Jaxon Soglikni Saklash Tashkilotining «Sog‘liqni saqlash va zo‘ravonlikka bag‘ishlangan xisobotida» zo‘ravonlikka to‘liq tarif berilgan[3]. Xisobotda o‘z-hziga shikast yetkazish, o‘zaro yoki jamoaviy, jismoniy, jinsiy, psixologik zo‘ravonlik yetarlicha e’tiborning yo‘qligidan kelib chiqishi aytib o‘tilgan.

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, BMTning tarificha, «Jismoniy, jinsiy yoki psixologik (manaviy) shikast yetkazib qolmay, balki ularni ijtimoiy yoki shaxsiy xayotida jinoiy xatti-xarakatlar kilishlariga majbur qiladi»[4]

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunida quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi[5]:

jinsiy zo‘ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli, shuningdek zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash;

jismoniy zo‘ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazishning o‘zga choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli;

zo‘ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik);

iqtisodiy zo‘ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo‘ravonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlanishga bo‘lgan huquqini, mulk huquqini, ta’lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik);

ish joyi — o‘zi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq mehnat majburiyatlarini amalga oshirish yoki xizmat vazifalarini bajarish uchun bo‘lishi yoki borishi lozim bo‘lgan, ish beruvchi tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan joy;

ruhiy zo‘ravonlik — xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik);

tazyiq — sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik; kabi turlari keltirigan.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki zo‘ravonlikning qaysi turi bo‘lishidan qat’iy nazar ayol va uning farzandlari uchun og‘ir ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. Bunday vaziyatda xotin-qizlar o‘rtasida ruhiy tushkunlik, depressiya, o‘z joniga qasd qilish kabi ko‘plab salbiy oqibatlar vujudga keladi bu o‘z o‘rnida insonning ijtimoiy taraqqiyotida salbiy iz qoldiradi.

G.N. Kireev zo‘ravonlikni shunday ta’riflaydi: «Zo‘ravonlik-bu odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos turi bo‘lib, ular mavjudligining tabiiy, ob’ektiv sharoitlariga qarama-qarshi munosabat asosida shakllanadi va egalik qilish, bostirish, sub’ekt irodasiga bo‘ysunish, uning ustidan hukmronlik qilish»[6].

F.M.Javadov zo‘ravonlikni “inson tanasiga uning irodasiga qarshi sodir etilgan, hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazishga qaratilgan ijtimoiy xavfli qonunga xilof ravishda qasddan ta’sir qilish” deb ta’riflaydi»[7]. L.V.Serdyukning ta’kidlashicha, “zo‘ravonlik – shaxsga (yoki bir guruh shaxslarga) uning irodasiga qo‘shimcha ravishda yoki unga qarshi amalga oshiriladigan va unga organik, fiziologik va ruhiy jarohat yetkazishi, erkinligini cheklashi mumkin bo‘lgan tashqi qasddan va noqonuniy ta’sir ko‘rsatishdir[8].

Shuningdek, zo‘ravonlik holati insonni va jamiyatni rivojiga jiddiy salbiy ta’sir etib, uning iqtisodiy hamda ijtimoiy zararlarini aniq sonda ifodalashning imkoniyati yo‘q.

Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jahonning 155 mamlakatida oilaviy zo‘ravonlik to‘g‘risida qonunlar qabul qilingan. Buni oldini olish maqsadida ko`plab qonun deklaratsiyalar qabul qilingan. 1993-yilgi BMTning “Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to`g`risidagi deklaratsiyasi” (DEVAW) ayollarga nisbatan zo`ravonlikni aniq belgilab beruvchi va

hal qiluvchi birinchi hujjat bo`lgan. Huddi shu yilda 1993-yilgi Inson huquqlari bo`yicha Jahon konfirensiyasida ayollarga nisbatan zo`ravonlik holatlarini inson huquqlarining buzilishi sifatida tan olinishi va BMTning yuqoridagi deklaratsiyaga qo`shilishi. 1999-yilda BMT tomonidan “ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to`g`risidagi konvensiya”ga Fakultativ protocol qabul qilinishi, hamda 25-noyabr Xalqaro ayollarga nisbatan zo`ravonlikka barham berish kuni sifatida belgilanishi. 2013-yilda BMT Bosh Assambleyasi ayollarning inson huquqlari himoyachilarini himoya qilishga chaqiruvchi o`zining birinchi rezolyutsiyasini qabul qilinishi. Ayollarga nisbatan zo`ravonlikni har qanday turini oldini olishga harakat qiladigan hujjatlar hisoblanadi. Umuman xalqaro hujjatlardan tashqari mamlakatimizdagi qonun hujjatlarida ham aynan ayollar zo`ravonligiga qarshi ko`plab qonunlar mavjud.

O‘zbekistonda ham 2019-yil 2-sentyabr kuni “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan boo‘lib, unda “jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zoo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilinishini ta’minlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash [9]” xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan etib belgilangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sotsiologik so‘rov tahlillari va kuzatuvlarimizga ko‘ra xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning kelib chiqish sabablarini quyidagicha tahlil qildik: oiladagi nosog‘lom psixologik muhit, oilaviy munosabatlarga uchinchi shaxsning aralashuvi, alkogolli yoki giyohvand moddalarga ruju qo‘yishi, ma’naviy axloqiy tarbiyaning zaifligi, turmush o‘rtog‘ini noadekvat rashk qilishi, erkak yoki ayolning xiyonati, jamiyatdagi stereotip fikrlash tarzidir. Mazkur muammoning oldini olish uchun OAV va ijtimoiy tarmoqlarda ma’naviy tarbiyaviy ruhda ijtimoiy reklamalarni ko‘paytirish, maktablarda tarbiya darslari davomida bolalarda xotin-qizlarga nisbatan hurmat va ehtirom kayfiyatini ko‘tarish, maxallalarda, masjidlarda va turli hil tadbirlarda zo‘ravonlik nisbatan keskin choralar ko‘rish va insonlarda zo‘ravonlikka qarshi kurashish qadriyatini rivojlantirish kerak.

REFERENCES:

1. Доклад Всемирной конференции для обзора и оценки достижений Десятилетия женщины Организации Объединенных Наций: равенство, развитие и мир, Найроби, 15-26 июля 1985 года (издание Организации Объединенных Наций, в продаже под Nº R.85.IV.10), глава I, раздел A.

2. O‘sha manba.
3. https://healthpartnersipve.org/uz/health-centers-care-about-domestic-violence/
4. „Resolutions adopted by the General Assembly at its 48th session:“.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.04.2023 yildagi O‘RQ-829-son https://lex.uz/uz/docs/-6430272
6.Киреев Г.Н. Сущност насилия. - М.: 1990. 18-бс
7.Джавадов Ф.М. Квалификация насилственных преступлений, совершенных с применением оружия. Автореф. дисс. канд. юрид. наук. - М.: 1985. С. 31. 9.
8.Сердюк Л.В. Насилие. Криминологическое и уголовно-правовое исследование. - М.: 2002. С. 179
9. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-son Qonuni. - https://lex.uz/docs/4494709

O`ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO`LGAN SHAXSLARGA QULAY MUHIT YARATISHDA IJTIMOIY ISH XODIMINING RO`LI

Shohrux Shavkat o‘g‘li Qudratov
O’zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish kafedrasi
1- kurs magistri

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqola O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va inklyuziv muhitni yaratishda ijtimoiy xodimlarning hal qiluvchi rolini ko'rib chiqadi. Ijtimoiy munosabatlar va infratuzilmaviy to'siqlar ko'pincha nogironlarning to'liq integratsiyalashuviga to'sqinlik qiladigan mamlakatda ijtimoiy ishchilar o'zgarishlarni himoya qilish va muhim yordam ko'rsatishda birinchi o'rinda turadilar. Sifatli va miqdoriy tahlillar orqali ushbu tadqiqot ijtimoiy ish aralashuvining turli yo'nalishlarini, jumladan, siyosiy himoya qilish, to'g'ridan-to'g'ri yordam, jamiyat integratsiyasi va nogironlik huquqlarini rag'batlantirishni o'rganadi. Natijalar sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishni osonlashtirish orqali nogironlar uchun hayot sifatini yaxshilashda ijtimoiy xodimlarning muhim ta'sirini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, maqolada ushbu sohada ijtimoiy ishchilar duch keladigan muammolar muhokama qilinadi va hamma uchun yanada inklyuziv jamiyat yaratishda ularning rolini kuchaytirish strategiyalari taklif etiladi. Suhbatlar, amaliy tadqiqotlar va siyosat tahlillariga tayangan holda, ushbu tadqiqot O‘zbekistonda nogironlarni qo‘llab-quvvatlash kontekstida ijtimoiy xodimlar xizmat qiladigan muhim vazifani chuqurroq tushunishga yordam beradi, ilg‘or tajribalar va kelajakda takomillashtirish yo‘nalishlari haqida tushuncha beradi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy ish, inklyuziv muhit, jamiyat integratsiyasi, nogironlar huquqlari, Siyosiy himoya, hayot sifati.

ANNOTATION:

this article examines the decisive role of social workers in creating a comfortable and inclusive environment for persons with disabilities in Uzbekistan. In a country where social relations and infrastructural barriers often prevent the full integration of people with disabilities, social workers are at the forefront of protecting change and providing critical assistance. Through qualitative and quantitative analysis, this study explores various areas of social work intervention, including political advocacy, direct assistance, community integration, and the promotion of

disability rights. The results highlight the significant impact of social workers in improving the quality of life for people with disabilities by facilitating the use of health care, education, employment and social services. In addition, the article discusses the problems faced by social workers in this area and proposes strategies to strengthen their role in creating a more inclusive society for everyone. Relying on interviews, case studies and policy analysis, this study will help to deeper understand the important task that social workers serve in the context of supporting people with disabilities in Uzbekistan, provide insight into advanced experiences and future areas of improvement.

Keywords: Social Work, inclusive environment, community integration, disability rights, political protection, quality of life.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatga integratsiyalashuvi va qo‘llab-quvvatlashi muhim muammolar va imkoniyatlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu kontekstda ijtimoiy ishchilarning roli juda muhim, chunki ular ijtimoiy umidlar, siyosat asoslari va nogironlarning ehtiyojlari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etadi. Ushbu maqola mamlakatning madaniy, iqtisodiy va qonunchilik landshaftini hisobga olgan holda O'zbekistonda nogironlar uchun qulay va inklyuziv muhit yaratishda ijtimoiy xodimlarning ko'p qirrali rolini o'rganishga qaratilgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasida voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquq va erkinliklari davlat himoyasida ekanligi belgilab qo'yilgan.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda nogironlar hayotini yaxshilash, jumladan, nogironlik huquqlari va inklyuzivligini rag‘batlantirishga qaratilgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish va milliy qonunchilikni isloh qilish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirildi. "Yangi O'zbekiston-yangicha dunyoqarash "bu jumlalar yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlarni inson farovonligini bilan ham asoslanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021-saylov dasturining asosiy maqsadi "Inson qadri uchun" deb atalganligi bejiz emas. Har bir inson O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ekan jamiyatda yaratilgan barcha imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish huquqiga egadir. Ming afsuski jamiyatimizdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar o'z huquq va erkinliklarini bilmasligi sababli juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shunday ekan biz ijtimoiy ish xodimlari ularga yaratilgan imkoniyatlardan boxabar qilishimiz zarur.

Ijtimoiy ishchilar ushbu muammolarni hal qilishda, nogironlarning farovonligi va integratsiyasini yaxshilashga qaratilgan yordam, advokatlik va xizmatlarni taqdim etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O‘zbekistondagi ijtimoiy ishchilarning faoliyati alohida shaxslar va oilalarga bevosita yordam ko‘rsatishdan tortib, jamoatchilik dasturlarini ishlab chiqish va siyosatni targ‘ibot qilishgacha bo‘lgan keng ko‘lamli faoliyatni o‘z ichiga oladi. Ushbu mutaxassislarga nafaqat nogironlarning bevosita ehtiyojlarini qondirish, balki jamiyatni qamrab olish kabi uzoq muddatli maqsadga hissa qo'shish vazifasi yuklangan. Bunga aholining xabardorligini oshirish, ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish, nogironlar huquqlarini hurmat qilish va ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar kiradi.

To'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash va aralashuv.

Ijtimoiy ishchilar nogironlar va ularning oilalariga to’g’ridan-to’g’ri yordam ko’rsatadilar, ko’rsatmalar, maslahatlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taklif qiladilar. Ushbu yordam har bir shaxsning jismoniy, hissiy va ijtimoiy farovonligini hisobga olgan holda o’ziga xos ehtiyojlariga moslashtiriladi. Masalan, ijtimoiy ishchilar nogironlarga ta’lim, sog’liqni saqlash va ish bilan ta’minlash imkoniyatlaridan foydalanishga imkon beruvchi individual rejalarni ishlab chiqishda yordam beradi va shu bilan ularning mustaqilligi va jamiyatdagi ishtirokini rag’batlantiradi.

Qiyinchiliklar va imkoniyatlar.

O‘zbekistonda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, ijtimoiy soha xodimlari nogironlar uchun qulay sharoit yaratish borasidagi sa’y-harakatlarida qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Cheklangan resurslar, jamiyatdagi qoralash va siyosatni amalga oshirishdagi bo'shliqlar hal qilinishi kerak bo'lgan to'siqlardandir. Biroq, bu qiyinchiliklar innovatsiyalar, hamkorlik va targ'ibot uchun imkoniyatlarni ham taqdim etadi, bu esa inklyuzivlik va mavjudlik uchun kun tartibini ilgari suradi. Umrini nogiron farzandiga qarash, uni parvarish qilishga bag`ishlagan onalarga ijtimoiy nafaqa to'lanmas edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “...Nogironligi bo'lgan bolalar va ularning oila a`zolarini, boquvchisini yo'qotganlarni o'n olti yoshgacha ijtimoiy muhofaza qilish masalasi doimo e`tiborimiz markazida turishi kerak. Umrini nogiron farzandiga qarash, uni parvarish qilishga bag`ishlagan onalar uchun alohida ijtimoiy nafaqa turini joriy etamiz”, - deb alohida ta`kidlab o`tdilar.

O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay sharoitlar yaratishda ijtimoiy xodimlarning o‘rni muhim. To'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash, targ'ibot, hamkorlik va siyosat bilan shug'ullanish orqali ijtimoiy ishchilar nogironligi bo'lgan shaxslar munosib hayot kechirishlari uchun hurmat va hurmat bilan yashashlarini

ta'minlashga intiladi. O'zbekiston nogironlarni inklyuziv qilish bo'yicha sa'y-harakatlarini ilgari surishda davom etar ekan, ijtimoiy xodimlarning ishi, ularning qobiliyatlaridan qat'i nazar, uning barcha a'zolarini qadrlaydigan va qo'llab-quvvatlaydigan jamiyatga erishish uchun muhim bo'lib qoladi.

O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan odamlar uchun qulay va inklyuziv muhitni yaratishda ijtimoiy xodimlarning muhim rolini baholab bo‘lmaydi. Ijtimoiy ishchilar o'zlarining fidoyiligi va ko'p qirrali yondashuvi orqali nogironlarning huquqlari, farovonligi va qo'shilishi uchun himoya qiluvchi o'zgarishlarning ajralmas agentlariga aylandilar. Ularning to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, jamoatchilik ishtiroki va siyosatni ishlab chiqishdagi sa'y-harakatlari to'siqlarni bartaraf etish va xilma-xillik va tenglikni qadrlaydigan jamiyatni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Ushbu urinishda duch keladigan muammolar, masalan, ijtimoiy stigma, cheklangan resurslar va siyosatdagi bo'shliqlar, ijtimoiy ish sohasida doimiy majburiyat va innovatsiyalar zarurligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, yanada inklyuziv muhit yaratishda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari jamoaviy sa'y-harakatlar va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi strategik hamkorlik orqali erishish mumkin bo'lgan ijobiy o'zgarishlar potentsialini ta'kidlaydi.

O'zbekiston nogironlarni to'liq qamrab olish yo'lida oldinga siljishda davom etar ekan, ijtimoiy xodimlarning roli, shubhasiz, o'sib boradi. Bu doimiy ta'lim, salohiyatni oshirish va paydo bo'lgan ehtiyoj va muammolarni hal qilish uchun targ'ibotni talab qiladi. Biroq, hozirgi sa'y-harakatlar bilan qo'yilgan poydevor nogironlar teng imkoniyatlardan bahramand bo'lishi va baxtli hayot kechirishi mumkin bo'lgan jamiyat qurishning istiqbolli rejasini taqdim etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistondagi ijtimoiy soha xodimlari nogironlik inklyuziviyasi yo'lida hal qiluvchi rol o'ynaydi va har bir inson o'z imkoniyatlaridan qat'i nazar, qulay va munosib yashashi mumkin bo'lgan jamiyatni yaratish yo'lida tinimsiz mehnat qiladi. Ularning ijtimoiy adolat, inson huquqlari va jamiyat farovonligini ta’minlashga intilishi nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda yanada keng qamrovli kelajakka umid chirog‘i bo‘lib xizmat qilmoqda

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi https://constitution.uz/oz/clause/index

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь. https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-olij-mazhlisgamurozhaatnomasi

3. Qayumov, B. A., & Xolmirxayev, S. S. (2023). NOGIRONLAR UCHUN AVTOMOBILLARNI MODIFIKATSIYALASH VA ERGONOMIKA. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 784-791.

4. Nishonov, M., & Azimova, D. (2023). MEHNAT BOZORINING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI VA UNING IQTISODIY AHAMIYATI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(25), 123-126.
5. Ikromova, S. O. Q., Abduxamidova, I. M. Q., & Suyumova, M. S. Q. (2022). YANGI O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI HIMOYASINI TA’MINLASH ISTIQBOLLARI. Scientific progress, 3(4), 1289-1291.
6. Хакимов, О. (2023). Imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga moslashtirishda ijtimoiy xizmat ko ‘rsatishning o ‘ziga xos xususiyatlari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 408-413.
7. Salomovna, S. M. (2022). OILAVIY MUNOSABATLAR DESTRUKSIYASIDA NOGIRONLIGI BOR FARZANGNING ROLI VA ULARNI RUHIY REABILITATSIYA QILISH CHORATADBIRLARI TAHLILI. Science and innovation, 1(B4), 30-35.

TA’LIM MUASSASALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIY – MA’NAVIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA NODAVLAT-NOTIJORAT TASHKILOTLARNING O‘RNI

Elyor Ilhomovich G‘oyibov
Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash institute tayanch doktaranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonning turli xil sohalarida yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, o‘z salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun qulay imkoniyatlar yaratish, jamiyat va davlat ishida ishtirokini kengaytirish, hamda ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda ularda ijtimoiy manaviy faolligini oshirish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Kalit so’zlari: Vatanparvarlik, ijtimoiy – ma’naviy faollik, nodavlat notijorat tashkilotlar, qonuniy manfaat, siyosat, jamiyat, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanga sadoqat, ustuvor yo‘nalishlar.

ABSTRACT

In this article, it is necessary to ensure the rights and legal interests of young people in various fields of Uzbekistan, to create favorable opportunities for the full realization of their potential, to expand their participation in society and state work, and to educate them in the spirit of respect for universal and national values, loyalty to the motherland, and in them social and spiritual increasing its activity is a priority.

Keywords: Patriotism, social-spiritual activity, non-governmental non-profit organizations, legal interest, politics, society, universal and national values, loyalty to the motherland, priorities.

Bugun jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar va tub islohotlar jarayoni fuqarolik jamiyati institutlari deya ta’riflanadigan nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalaridan ham ijtimoiy faollikni talab etmoqda. Xo‘sh, ijtimoiy faollik o‘zi nima? Ijtimoiy faollik deganda kishi qaysi kasbning egasi bo‘lishidan, qanday lavozimda ishlashidan qat’iy nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga, zamondan ortda qolmaslikka bo‘lgan harakatini tushunish mumkin. Mana shu jarayonda u o‘zini shaxs va fuqaro sifatida namoyon qiladi. Bugun yurtdoshlarimizning ijtimoiy faollashayotganini ko‘rib turibmiz. Ijtimoiy tushkunlik,

o‘zgarishlarga, islohotlarga loqaydlik davri o‘tdi, yurtdoshlarimizda tashabbusni, yangilikka bo‘lgan intilishlarni guvohimiz. “Ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy faollikni kuchaytirib yubordi”, degan mazmundagi fikrlarni ham mavjud.

So‘nggi yilarda mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash, ularga qulayliklar yaratish, faoliyati erkinligini kafolatlash, davlat organlari va ular o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda

Ta’kidlash lozimki, nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat tomonidan qulaylik va yengilliklar yaratish, ular faoliyatining erkinligini ta’minlash sohasida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlari uchun ajratiladigan davlat ijtimoiy buyurtmalari sonini oshirish, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarini ijtimoiy ahamiyatga ega grant loyihalarini tayyorlash hamda ularni amalga oshirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadga muvofiq.

Shu bilan bir qatorda, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining huquqiy bilim va savodxonligini oshirish, qonunchilikda belgilangan talablardan xabardor etish maqsadida nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini jalb etgan holda malaka oshirish kurslari va turkum seminar tadbirlarini tashkil etish lozim.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mavzusi hech bir davrda o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmaydigan masaladir. Unga davlatning muhim, dolzarb ijtimoiy masalasi, deb qaraladi.

2022-yil 29-yanvar kuni “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” qabul etilgani to‘g‘risida xabar tarqaldi. Hujjatning 70-maqsadi: “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” etib belgilangan. Xususan, bunda “Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash” mas’uliyati yuklatilgan.

Demak, davlat rahbari takroran bundan buyon ham yoshlarning harbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish ishlarini jadal davom ettirilishini urg‘ulamoqda.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi umumiy tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, yoshlarda Vatanni sevish, uni fidokorona himoya qilishga tayyorgarlik va bunga qodirlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Uning ma’naviy-ma’rifiy va nazariy asosi Vatanni himoya qilish to‘g‘risidagi zamonaviy tegishli ilm-fan sohalarining xulosalari, xalqimizning Vatan va uni himoya qilish haqidagi tarixiy va zamonaviy

amaliy tajribasi, ilmiy merosi hamda mazkur masala bilan bog‘liq umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy talablar hisoblanadi.

Yoshlarni turli yot g‘oya va tahdidlardan asrash, o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash eng asosiy maqsadlardan biriga aylanmog‘i lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlanganidek, “Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash, tafakkur va zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi”.

Bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan azmu shijoatli yoshlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini yaratish barcha vatandoshlarimizning ezgu orzu umidlaridan biriga aylanmog‘i kerak.

Darhaqiqat, “Yangi O‘zbekiston – barchamizning ezgu orzuimiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi. Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o‘ziga xos tarzda aks etmoqda. Uzoq o‘tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g‘oya va amaliy harakatlarda o‘z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O‘zbekiston tushunchasiga jamuljam bo‘ldi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan mehnat qilsak, albatta hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi”, deydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlash va davlatning xavfsizligini ta’minlash barcha zamonaviy davlatlari qatori O‘zbekiston uchun ham hayotiy zaruratdir. Shularni nazarda tutib, O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat va xalqaro munosabatlarning sub’yekti sifatida o‘zining mudofaa siyosatini barcha mamlakatlarning tinch-totuv yashashi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning mustaqilligini, shuningdek, davlatlararo tarkib topgan chegaralarning buzilmasligi va o‘zgarmasligini hurmat qilish prinsiplariga asoslaydi.

Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to‘laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to‘liq namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo‘lish jamiyatda ro‘y

berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlari va mavjud muammolarning yechimini chuqur anglashni taqozo etadi. Demak, biz yoshlarimizda fuqaroviy ongni shakllantirishimiz kerak. Fuqaroviy ong jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladi, umumiy manfaatlar yo‘lida fuqarolar o‘rtasida kelishuv bo‘lishiga xizmat qiladi. Jamiyatda ro‘y beradigan turli ijtimoiymadaniy omillar ta’sirida fuqaroviy ong o‘zgarib boradi va fuqaroviylik to‘g‘risidagi g‘oyalar taraqqiyotida o‘z aksini topadi. Yoshlarni fuqaroviy ongi qanchalik rivojlangan bo’lsa ular jamiyatdagi ijtimoiy faolligi shunchalik faollashadi.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-01132 Academic Research, O‘zbekistan 885 www.ares.uz Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O,,zbekiston, 2017. - 488 b.
3. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. - T.: “Ma’naviyat”, 2003.
4. Aliqulov X. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003. 260 b.
5. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an’ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G‘.G‘. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.
6. A.Allayarov, G‘.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. - 114 bet.

СЕМЕЙНОЕ НАСИЛИЕ И ЕГО ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ЗДОРОВЬЕ И БЛАГОПОЛУЧИЕ ДЕТЕЙ

К. Инақов
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

Фериде Зейналова
Магистр НУУз

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена воздействию семейного насилия на здоровье и благополучие детей. Рассматриваются различные формы семейного насилия и их влияние на эмоциональное, физическое и психологическое благополучие детей. В данной статье освещены психологические трудности, с которыми сталкиваются дети, которые стали-свидетелями или жертвами насилия в семье, также обсуждаются социальные аспекты и последствия, влияющие на их адаптацию и будущее. Представлен анализ вызовов, которые представляют собой семейное насилие для здоровья детей и предлагаются пути для предотвращения данной проблемы и оказания поддержки тем, кто стал жертвой семейного насилия.

Ключевые слова: Семейное насилие, дети, здоровье детей, благополучие, последствия насилия в семье, эмоциональные травмы, физические последствия.

На основе анализа социологического исследования выявлены стереотипы, которые влияют на построение семьи среди женщин, имеющих инвалидность, а также определены некоторые механизмы социальной защиты, женщин с инвалидностью в создании семейных отношений.

В Узбекистане вопрос семейного насилия и его воздействие на детей является важным для обсуждения и решения. Роль общества, особенно через образование и повышение осведомленности об этой проблеме, играет ключевую роль в профилактике насилия. Это связано, прежде всего, с социальной защитой. Социальная защита является основополагающим правом человека на социальное обеспечение и остаётся нереализованным для подавляющего большинства населения [1]. Вместе с тем необходимо отметить эффективные образовательные программы, нацеленные на социальную защиту от семейного насилия, которые в свою очередь могут существенно повлиять на

уровень осведомленности населения. Эти программы могут включать в себя обучение о правах детей, формирование навыков безопасности и воспитание толерантности через проведение уроков и групповых дискуссий.

Повышение осведомленности общества о вреде семейного насилия может быть достигнуто через разнообразные информационные кампании. Сотрудничество с образовательными учреждениями для внедрения программ и обучения по данной теме в учебные планы становится важным элементом борьбы с этой проблемой.

Государственная поддержка и участие неправительственных организаций также необходимы для финансирования и развития таких программ. Создание более осведомленного общества и обеспечение безопасной среды для детей требует усилий всех уровней общества и государства.

В Узбекистане законодательство, направленное на защиту детей от семейного насилия, играет фундаментальную роль в обеспечении их безопасности и защите прав. Важно обсудить законы и меры, предусмотренные для борьбы с этой проблемой, их эффективность и необходимость.

Эффективные законы, призванные защищать права детей, включают в себя нормативные акты, которые устанавливают строгие наказания и санкции за случаи семейного насилия. Важно также рассмотреть законодательные изменения, направленные на обеспечение безопасности детей и предоставление поддержки жертвам семейного насилия.

Законодательство должно не только предоставлять правовую защиту, но и включать в себя механизмы для реализации и применения законов в практических ситуациях. Это может быть достигнуто через разработку и внедрение процедур, которые обеспечивают быструю и эффективную реакцию на случаи семейного насилия [2].

Особое внимание также должно быть уделено программам и мерам реабилитации для жертв семейного насилия, а также расширению доступа к услугам поддержки и защиты.

Действенное законодательство и меры защиты прав детей от семейного насилия играют ключевую роль в создании безопасной среды и обеспечении благополучия детей.

Домашнее насилие - это физическое, психологическое, экономическое воздействие или угроза его регулярного применения одним или несколькими членами семьи против жизни, здоровья, свободы, чести, пола, достоинства и охраняемых законом прав и законных интересов (независимо от того,

официально зарегистрирован брак или разведен) другого члена семьи или иного лица [3].

Семейное насилие является многоаспектной и травматичной проблемой, охватывающей различные формы, включая физическое, эмоциональное и сексуальное насилие. Физическое насилие в семье может проявляться через умышленные травмы, угрозы, изоляцию или физические наказания, что приводит к тяжелым последствиям для детей, таким как травмы, ожоги или даже потеря жизни [4].

Эмоциональное насилие, хотя и невидимо физически, но имеет свои разрушительные последствия. Оно включает угрозы, унижения, постоянную критику, изоляцию и даже игнорирование чувств. Эмоциональное насилие может привести к сильным эмоциональным травмам у детей, оказывая негативное воздействие на их самооценку, психическое здоровье и способность формировать здоровые отношения.

Сексуальное насилие в семье, включая нежелательные контакты, изнасилование или эксплуатацию, имеет тяжелые последствия для детей, вызывая травматические эмоциональные состояния, нарушения в поведении и внутренние конфликты.

Психологические, физические и социальные последствия этих форм семейного насилия могут оказаться длительными и серьезными. У детей могут возникнуть посттравматические стрессы, депрессия, тревожность, проблемы с обучением, поведенческие расстройства, а также они могут столкнуться с проблемами адаптации в обществе и формированием отношений в будущем. Разнообразные формы семейного насилия не только оказывают негативное воздействие на здоровье и развитие детей, но и могут сказываться на их общественной и психологической жизни на протяжении многих лет.

Эмоциональные и психологические последствия являются значительными, создавая тяжелую ношу для психического здоровья детей, подвергшихся насилию в семье. Внутренний конфликт, страхи, тревожность и посттравматический стресс становятся частью их повседневной жизни. Эти эмоциональные трудности могут оказаться препятствием для нормального психологического развития и социальной адаптации детей.

Семейное насилие может вызвать у детей депрессию, низкую самооценку и проблемы с формированием здоровых отношений. Постоянный стресс и тревожность, вызванные такими ситуациями, могут отрицательно сказываться на их поведении и настроении, а также угрожать их дальнейшему развитию и успеху в школе.

Помимо этого, дети, столкнувшиеся с семейным насилием, часто испытывают трудности в установлении здоровых взаимоотношений, доверии и восприятии окружающего мира как безопасного места. Это создает трудности для их социальной адаптации и способности строить стабильные отношения в будущем.

Физическое благополучие детей, сталкивающихся с семейным насилием, становится предметом серьезной озабоченности в контексте анализа воздействия насилия на их здоровье. Физические травмы и последствия семейного насилия могут проявляться в виде ушибов, переломов, ссадин, ожогов, и тяжелых травм, которые оказывают непосредственное воздействие на физическое состояние детей.

Семейное насилие может приводить к хроническим заболеваниям, психосоматическим расстройствам и осложнениям, которые имеют долгосрочные последствия для здоровья. Постоянный стресс, вызванный семейным насилием, может повышать уровень адреналина и кортизола в организме, что в свою очередь может увеличить уязвимость к различным болезням и нарушениям в работе иммунной системы.

Кроме того, дети, подвергшиеся семейному насилию, могут столкнуться с внутренними травмами, такими как травмы внутренних органов или сердечно-сосудистые проблемы, которые могут быть вызваны стрессом и длительным психологическим давлением.

Физические последствия семейного насилия могут привести к длительным и хроническим проблемам со здоровьем детей, а также к необходимости медицинской помощи и реабилитации для нормализации их физического состояния.

Социальные аспекты семейного насилия играют ключевую роль в жизни детей, подвергшихся этому виду травмы. Эти последствия простираются на все аспекты их социальной жизни и включают в себя серьезные вызовы во взаимоотношениях со сверстниками и обществом в целом.

Дети, испытавшие семейное насилие, могут испытывать трудности в установлении и поддержании здоровых взаимоотношений с другими детьми и сверстниками. Они могут столкнуться с социальной изоляцией, избегать общения или испытывать трудности в построении доверительных отношений из-за негативного опыта в семье.

Эти дети также часто испытывают сложности в обучении. В результате травматического опыта семейного насилия они могут иметь проблемы с концентрацией, адаптацией к школьной среде и достижением успеха в учебе.

Это может привести к низкой школьной успеваемости и затруднениям в усвоении материала [5].

Кроме того, социальные последствия семейного насилия могут негативно сказываться на перспективах детей на будущее. Сложности в установлении здоровых отношений и в обучении могут создавать барьеры для успешной социальной адаптации и профессионального развития.

Этот аспект семейного насилия оказывает значительное влияние на социальное благополучие детей и их возможности в будущем, представляя вызовы для их интеграции в общество и учебно-профессиональное развитие.

Психологическая поддержка играет ключевую роль в оказании помощи детям, подвергшимся семейному насилию, и помогает им преодолеть травмы, вызванные этим опытом. Важно описать различные методики терапии и поддержки, способствующие восстановлению психического здоровья детей.

Одной из важных методик является психотерапия, которая может быть основана на различных подходах, таких как когнитивно-поведенческая терапия, игровая терапия, травматическая терапия и т.д. Эти методики помогают детям выражать свои эмоции, развивать стратегии справления с травмой и восстанавливать свою психологическую устойчивость[6].

Кроме того, групповая терапия также может быть эффективным методом, поскольку позволяет детям находить поддержку в общении с другими, пережившими подобное, и развивать навыки взаимодействия и поддержки друг друга.

Специалисты по психологической поддержке также могут использовать техники арт-терапии, медитации и релаксации для помощи детям в справлении с тревогой и стрессом.

Помимо терапии, важно учитывать создание безопасной и поддерживающей среды для детей, где они могут чувствовать себя защищенными и поддержанными. Это включает в себя установление теплых и доверительных отношений с педагогами, семьей и окружающими взрослыми, которые могут предоставлять эмоциональную поддержку.

Программы интервенции и профилактики, направленные на предотвращение и борьбу с семейным насилием, являются важным инструментом для обеспечения безопасности и защиты пострадавших.

Различные программы профилактики включают в себя образовательные мероприятия, направленные на повышение осведомленности о семейном насилии и формирование навыков предотвращения насилия. Эти программы могут включать в себя тренинги для обучения навыкам безопасности, уроки о

соблюдении прав детей и знания о том, куда обратиться в случае возникновения семейного насилия [6].

Групповые сессии и кризисные центры играют важную роль в оказании поддержки пострадавшим. Они предоставляют безопасное место, куда пострадавшие могут обратиться за помощью, получить консультации, психологическую поддержку, информацию о своих правах и помощь в разработке планов безопасности.

Одним из важных аспектов является также развитие системы сотрудничества между правоохранительными органами, медицинскими учреждениями и образовательными учреждениями для эффективного реагирования на случаи семейного насилия и оказания помощи пострадавшим.

Такие программы и ресурсы играют важную роль в предотвращении семейного насилия и предоставлении поддержки тем, кто стал жертвой этого негативного явления.

Семейное насилие имеет далеко идущие последствия для здоровья и благополучия детей, оставляя глубокий и долгосрочный отпечаток в их жизни. Понимание этих последствий является критически важным шагом в борьбе с проблемой семейного насилия и обеспечении поддержки тем, кто стал жертвой этого негативного явления.

Статья подчеркивает необходимость общественного сознания о различных аспектах семейного насилия и его воздействии на детей. Это позволяет развивать эффективные стратегии профилактики и оказания помощи пострадавшим, а также способствует формированию более дружественной и безопасной среды для детей в обществе.

Предоставление ресурсов, образования и поддержки для детей, подвергшихся семейному насилию, а также активная работа по преодолению этой проблемы на уровне общества, институтов и законодательства, являются важными шагами для предотвращения подобных случаев в будущем и защиты прав детей на безопасную и здоровую жизнь.

REFERENCES:

1. Латипова Н. современная система социальной защиты населения: понятие и модели. Ж. Общественное мнение. права человека. №3[95] / 2021 . – С..63-64.
2. Влияние политической активности граждан на процесс становления гражданского общества в Узбекистане. Вестник науки и образования. № 13 [67]. Часть 1, 2019. С. 99-101.

3. Нарбаева, Танзила, Латипова, Нодира, Ганиева МЕЧАНИСМС ОФ ИМПРОВИНГ СОСИАЛ ПРОТЕСТИОН ОФ WOMEН: РИСК ИНДИСАТОРС АНД СТАТИСТИСС [ИН ТҲЕ СОНТЕХТ ОФ ГЕНДЕР-БАСЕД ВИОЛЕНСЕ]. ҳттпс://www.ресеарчгате.нет/публисатион/340646082_
4. Домашнее насилие. [Электронный ресурс] // Википедия: свободная энциклопедия. Режим доступа: ҳттп://ру.википедиа.орг/вики/ [дата обращения: 20.05.2020].
5. Вафаева Д.Б. Результаты исследования по проблемам домашнего насилия в современных условиях. Журнал «Наука, образование, культура». Москва. Изд-во «Проблемы науки», 2020. № 5. С. 79-83.
6. Вафаева Д.Б. Сравнительный анализ социального партнерства между негосударственными некоммерческими организациями Узбекистана и России. Журнал «Наука, техника и образование». Москва. Издательство «Проблемы науки»№ 5 [69], 2020.
7. Вафаева Д.Б. Роль комитетов женщин Узбекистана в повышении активности женщин. Журнал «Гуманитарный трактат». Россия.№ 49, 2019. С. 19-22.
8. Влияние политической активности граждан на процесс становления гражданского общества в Узбекистане. Вестник науки и образования. № 13 [67]. Часть 1, 2019. С. 99-101.
9. Попова И.В. Опыт исследования проблемы семейного насилия // Журнал История. Социология. Культурология. Этнография. Выпуск № 4, 2012.
10. Домашнее насилие. [Электронный ресурс] // Википедия: свободная энциклопедия. Режим доступа: ҳттп://ру.википедиа.орг/вики/ [дата обращения: 20.05.2020].

O’ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH, AYOLLARNING IJTIMOIY, IQTISODIY, SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB JIHATLARI

Umidjon Xomidjonov
O‘zMU Ijtimoiy ish kafedrasi o‘qituvchisi,

Mexribon Sharifova
Ijtimoiy ish yo‘nalishi sirtqi ta’limn 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada Respublikamizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o’z qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun yaratilgan zarur shart -sharoitlar, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni ta’minlash borasida olib borilayotgan keng qamrovli ishlar to’g’risida va hozirgi kunda yuzaga kelayotgan ayrim muammolar haqidagi tahlillar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Gender tenglik, gender strategiyasi, xotin-qizlar, ijtimoiy-siyosiy faollik, tazyiq va zo‘ravonlik, himoya qilish, xotin-qizlar bandligi.

ABSTRACT:

This article covers the analysis on the necessary conditions created in order to increase the socio-political activity of women in our Republic, to show their abilities in various fields and networks, on the comprehensive work carried out to protect their rights and legitimate interests, to ensure gender equality, and on some problems currently occurring.

Keywords: Gender equality, gender strategy, Women, socio-political activism, harassment and violence, advocacy, women's employment.

So‘nggi yillarda Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ularning huquqiy va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tengligini ta’minlash yo‘lida amaliy say-harakatlar kuchaytirilmoqda. Muxtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasida so’zlagan nutqida xalqaro miqyosda “Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi”[1] deb ta’kidladilar.

“Ayol-bir qo‘lida beshikni, ikkinchi qo‘lida esa dunyoni tebratadi “ deyishgan dono xalqimiz, bu bejizga emas, xozirgi kun ayoli butun boshli ro‘zg‘or ishlarini bajarish barobarida, davlat boshqaruvining turli yo‘nalishlarida o‘z shijoatini namoyon qilmoqda. Tarixga nazar solsak To‘maris, Bibixonim, Uvaysiy, Nodirabegim va ko‘plab o‘zbek

ayollarining yurt ravnaqiga qo‘shgan hissalari oradan necha asrlar o’tsada har bir o’zbek ayol qizlari uchun ibrat bo’lib kelmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan boshlab xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga bo‘lgan e’tibor kuchaytirildi. Respublikamizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur shart -sharoitlarni yaratish, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro amaliyotda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi davlat tashkilotlari kam uchraydi.

Alohida ta’kidlash lozimki, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi respublikamizdagi xotin-qizlar masalasi bo‘yicha davlat siyosatini yurituvchi yagona tashkilot bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda faoliyat olib bormoqda:

- xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqlarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini ifodalash;
- erkaklar va xotin-qizlarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta’minlash, xotin-qizlar va oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga oid qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- davlat xizmati, ta’lim, ilm-fan va innovatsiya, sport, sog‘liqni saqlash hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- iqtidorli xotin-qizlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;
- xotin-qizlarning kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga ko‘maklashish va boshqalar. Bu esa, yurtimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimining samarali tashkil etilishiga zamin yaratadi.

2023 yil 21 dekabr kuni Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ -401- son[1] qarori qabul qilindi. Mazkur qaror har bir oiladagi xotin-qizlarning manfaatlarini to‘liq himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir. Barchamizga ma’lumki, respublikamizda olib borilayotgan ma’muriy islohotlar davomida bir necha marotaba xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyati takomillashtirildi. Davlatimiz rahbari “Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xoxlasak, avvalo mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa jamiyat rozi bo‘ladi” deya ta’kidlagan edi. Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda yurtimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligi oshirish

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401-son Qarori https://lex.uz/en/docs/6704819.

borasida tinimsiz islohotlar olib borilmoqda, olib borilayotgan kompleks ishlar ommaviy axborot vositalari orqali har kuni e’lon qilib borilmoqda.

Gender tenglik tushunchasi va gender tenglikni ta’minlashning asosiy tamoyillari nimalardan iborat? Qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va oshkoralik gender tenglikni ta’minlashning asosiy tamoyillaridir. Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi-“jamiyat xayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi”[1]. Gender tenglik mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma’naviy xayotida, muhim qarorlar qabul qilinishida xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli ravishda kengayib borishiga turtki bo‘lmoqda. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, qisqa davr ichida sohaga oid xalqaro standartlarga mos milliy qonunchilik bazasi shakllantirilishiga erishildi. “Xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi muhim qonunlar, qator normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilindi va amaliyotga joriy etildi.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida O‘zbekistonda xotin-qizlarning boy salohiyatidan foydalanish, jamiyat xayotining barcha jabhalarida ularning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda tajriba almashish bo‘yicha Osiyo xotin-qizlari forumini o‘tkazish haqidagi taklifini bildirgan edi. Shunga asosan, joriy yilning 13-14 may kunlari “Xotin qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga mintaqaviy yondoshuv” mavzusidagi Osiyo xotin-qizlari forumi Samarqand shahrida bo‘lib o‘tdi.

Forum doirasida berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar yaratish, huquqlarini himoya qilish borasida sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi, jumladan, xotin qizlarning boshqaruv sohasidagi ulushi 35%, siyosiy partiyalarda 49%, Oliy ta’lim sohasida 50%, sog‘liqni saqlash tizimida 77%, ta’lim sohasida 74%, savdo-sotiq sohasida 49%, iqtisodiyot, sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlarida 46%, madaniyat va sport sohalarida 45% ga yaqin, qishloq xo‘jaligi sog‘alarida 42 %dan ortiq, axborot va kommunikatsiya sohalarida 35 % ni tashkil qilmoqda. Respublikamiz bu ko‘rsatkichlar bilan nafaqat Osiyoga balki butun dunyoga ibrat bo‘la oladi.

Respublikamizda xozirgi kunda eng rivojlanayotgan sohalardan biri ayollar tadbirkorligi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 28.05.2021 yildagi “2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-son qarori. https://lex.uz/docs/5466673.

quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-122-sonli[1] qarori qabul qilingan, tadbirkor ayollarimizni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bunday imkoniyatlar o‘z natijasini berayotgani, ular tomonidan minglab yangi ish o‘rinlari yaratilib, aynan ijtimoiy ximoyaga muxtoj, ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta’minlanayotgani, ishbilarmon ayollar safi esa kundan kunga ortib borayotgani yurtimizda gender tenglik siyosati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganiga yaqqol misol bo‘la oladi.

Shuningdek, Xotin qizlar qo‘mitasining rasmiy veb saytiga joylangan manbaaga ko‘ra, ”So‘nggi 5 yil ichida ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 ming nafardan oshdi.2023- yilda 279 mingdan ziyod tadbirkorlik loyihalariga 13 trillion so‘mdan ortiq kredit, qariyb 57 ming nafar xotin-qizga salkam 300 milliard so‘m subsidiya ajratildi. 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi. 400 mingdan ortiq xotin-qizlar ish bilan ta’minlandi”[2]- deb ma’lumot beradi. Qisqa muddatlarda bunday yuqori ko‘rsatkichlarga “Ayollar daftari”ning joriy etilishi natijasida erishildi va xozirgi kunda ham daftarga kiritilgan xotin-qizlarning muammolari tizimli hal etilmoqda. Bundan tashqari, qishloq ayollariga alohida e’tibor qaratilib, ularga berilayotgan imtiyozlar soni kundan-kunga ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mutaxassisligi bo‘yicha kamida bes h yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibini tasdiqlash haqida” 2022 yil 9-iyundagi 322-son [3] qarori bilan davlat muassasalarida faoliyat yuritib kelayotgan xotin-qizlar imtiyozli ravishda o‘qishga qabul qilinmoqda. Ularning ishlash, yashash va oilaviy sharoiti inobatga olingan holda sirtqi ta’lim shaklida o‘qitilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, yanada keng imkoniyatlarni yaratdi. Chunki ona, qaynona, rafiqa, opa-singil, kelinlik vazifalari har bir o‘zbek ayolning odatiy turmush tarzi hisoblanadi, ona sifatida farzandlariga, rafiqa sifatida erining oilasi oldidagi mas’uliyat azaliy qadriyatlarimiz hisoblanadi. O‘zbek oilasini ushbu an’ana va qadriyatlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, ayollarimiz jamiyatda ham o‘z o‘rnini topishga intilishdan to‘xtayotgani yo‘q, ro‘zg‘or ishlariyu, tashvishlaridan ortib o‘qishga, ilm olishga xarakat qilayotgani tahsinga loyiq. Davlatimiz tomonidan esa xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlab, oliy ta’lim dargohlarida o‘qish imkoniyatlari kengaytirilayotgani esa ayni muddao, shuning uchun ham yildan yilga oliy ta’lim olishni istovchi xotin-qizlar

[1] O‘zbekiston respublikasi prezidentining 07.03.2024 yildagi “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-122-son qarori. https://lex.uz/docs/6831827/

[2] “Ayoli ezozlangan yurt 5 yil ichida ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengaydi” https://wcu.uz/oz/lists/view/679. O’Zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo’mitasining rasmiy veb sayti. https://wcu.uz/oz/lists/view/679.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.06.2022 yildagi “Mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibini tasdiqlash haqida” ги 322-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/6056269

safi kengaymoqda. Biroq, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori Z.Xalilovaning “Tafakkur” jurnalining 2023 yil 2-sonida chop etilgan “Ma’rifatdan mahrum ma’sumlar”[1] maqolasida, 1918 yilda chop etilgan “Mehnatkashlar tovushi” gazetasining 24 dekabrdagi sonida berilgan maqoladan parcha keltirgan, unda shunday deyilgan: “Yigitlarni yetishdirguvchi, jamiyati bashariyani tarbiya etguvchi xotun-qizlarimizni ta’lim va tarbiyadan mahrum etsak, alarda bo‘lg‘on iste’dod va o‘ngunliklardan foydalanmasak, bizning holimiz ne bo‘lajak? Turkistonda xotun-qizlarg‘a maxsus na bir maktab, na bir jamiyat va na bir qiroatxona bor. Bizning Turkistonda xotun-qiz dunyosi eng tuban darajada bo‘lub, butun huquqlarindan mahrum etilib, to‘rt devor orasinda qamalub qo‘yulg‘on mahbusa kabidir. Bashariyat dunyosinda yashamoq uchun barcha a’zoning salomat bo‘lushi shartdir. Shunday bo‘lsa biz o‘n milyunli turkistonliklarning yarmindan ko‘bini tashkil etgan xotun-qizlarimizni ta’lim va tarbiyadan, ulum va maorifdan mahrum etib, alarg‘a ong va fikr bermasak – o‘qutmasak bizning holimiz ne bo‘lur?” -deyilgan, bundan ko‘rinib turibdiki o‘sha davrlarda ham ayollar savodli bo‘lsagina oilada farzandlar saloxiyatli bo‘lishi, jamiyat rivojlanishi haqida fikr yuritilgan, buni qarangki oradan asrlar o‘tib o‘zbek halqining azaliy orzusi ruyobga chiqishni boshladi. Muxtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan xotin-qizlarga keng imkoniyatlar eshiklari ochildi va xalqimizning yuz yillik armonlari ushaldi.

Barchamizga tarixdan ma’lumki, muqaddas Islom dini kirib kelguniga qadar ba’zi davlatlarida yangi tug‘ilgan chaqaloq qiz bo‘lsa tiriklayin ko‘mishgan. Fikrimizcha, bunday qabih ishlar ortida albatta ilmsizlik маърифатсизлик мавжуд. O‘z nasl nasabining tugashiga olib kelishi haqida fikr yuritishga qodir bo‘lmaganlar. Islom dini kirib kelganidan keyingina bunday mudxish ishlarga chek qo‘yilgan. Chunki insoniyat bu dunyoga aslida nasl qoldirish uchungina keladi, farzandlarni dunyoga keltirib, ularni voyaga yetkazib yana nasl-nasabi davom etishi uchun ularni nikox to‘ylarini o‘tkazishga va nevaralar ko‘rishga oshiqadi, so‘ng esa “orqamda qolinglar” deb duo qilishadi, umr esa qisqa. Bugungi kungacha o‘nlagan opa-singillarimiz O‘zbekiston qahramoni unvoni bilan taqdirlangan, kasb faoliyatida erishgan yutuqlari uchun orden va ko‘krak nishonlari bilan taqdirlanayotgan soni har yili minglab kupaymoqda. Shuningdek, Sudyalik lavozimlariga, Oliy Majlis Senati, Huquqni muxofaza qilish organlarida, vazirlik va idoralarda, madaniyat va san’at sohalarida ham ulushi ancha ko‘tarildi. Oldingi vaqtlarda faqatgina ta’lim-tarbiya sohasi vakillari sanalgan ayollar bugungi kunda butun dunyoga o‘z iqtidorlarini namoyon qilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, olib borilayotgan izchil isloxotlar yetarli, ammo natijalar biz kutgan darajada emas, rivojlanish bilan bir qatorda orqada qolayotgan masalalar ham bor, ayollar mardikorligi, ularning zo‘ravonlik qurboniga aylanishlari, aldanishlari, turli salbiy yo‘llarga kirib ketishi xolatlari xali ham kuzatilmoqda. Shunday

[1] Z.Xalilova “Ma’rifatdan mahrum ma’sumlar”.“Tafakkur” jurnali 2023 yil 2-son.

ekan, endi muammolarning oqibati bilan emas oldini olishga qat’iy kirishish kerak. Buning uchun har bir maxallada joriy etilgan “maxalla yettiligi”ning samarali ish olib borishi bilan to‘liq amalga oshirish mumkin, chunki mahalla xodimlari har biri o‘ziga berilgan ishonchni oqlash uchun sidqidildan faoliyat olib borsa, masalaga kompleks yondashib, har bir xonadon,oila bilan alohida shug‘ullansa maqsadga muqofiq natijaga erishsa bo‘ladi, tarbiya esa oiladan boshlanadi, dono xalqimiz “qush uyasida ko‘rganini qiladi”deb bejizga aytmagan, bu borada esa qilinadigan ishlar hali juda ko‘p.

Aslida mavjud muammolarning barchasini oiladagi tarbiyani to‘g‘ri tashkil qilish orqali hal etish mumkin. Odamlarning daxldorlik hissini oshirish, davlatga, oilasiga, jamiyatga nisbatan munosabatini o‘zgartirish, mas’uliyatni his qilishga o‘rgatish esa o‘zaro ahillikni, davlatimizning xalqchil siyosati ostida jipslashishini talab qiladi. Shunday ekan, shu yurt fuqarosi bo‘lgan har birimiz xotin-qizlarning muammolariga befarq bo‘lishimiz aslo mumkin emas.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401-son Qarori https://lex.uz/en/docs/6704819.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 28.05.2021 yildagi “2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi sq-297-IV-son qarori. https://lex.uz/docs/5466673.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2024 yildagi “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-122-son qarori. https://lex.uz/docs/6831827/
4. Ayoli ezozlangan yurt 5 yil ichida ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengaydi” https://wcu.uz/oz/lists/view/679. O’zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo’mitasining rasmiy veb sayti. https://wcu.uz/oz/lists/view/679.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.06.2022 yildagi “Mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibini tasdiqlash haqida” ги 322-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/6056269
6. Z.Xalilova “Ma’rifatdan mahrum ma’sumlar”.“Tafakkur” jurnali 2023 yil 2-son.

TA’LIM TIZIMIDA RAHBARLIK VA BOSHQARUV MADANIYATINING IJTIMOIY OMILLARI

Samatov Erkin ug‘li Shoxjaxon
Maktabgacha va maktab talimi vazirligi Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshkarmasi yetakchi mutaxassisi

“Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q”
Sh.M.Mirziyoyev

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada ta’lim tizimida rahbarlik va boshqaruv madaniyatining ijtimoiy omillari, rahbar madaniyati, rahbarlik etiketi, ta’limni boshqarishda o‘ziga hos hususiyatlar boshqaruv psixologiyasi, pedagogik jamoda rahbar shaxsining ma’suliyati to‘g‘risida fiklar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: rahbar, rahbar madaniyati, lider, jamoa, tashabbus, boshqaruv, nazorat, takomillashtirish, ta’lim jarayoni, islohat.

ABSTRACT:

The article discusses social factors of leadership and management culture in the education system, leadership culture, leadership etiquette, features of education management, management psychology, and the responsibility of a leader in the teaching staff.

Keywords: leader, leadership culture, leader, team, initiative, management, control, improvement, educational process, reform.

So‘nggi yillarda muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilinishidagi katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta’limni rivojlantirmay turib qilingan boshqa siyosi-ijtimoiy, iqtisoliy islohatlar asossiz ekanligini 25 yillik tajriba isbotladi. Bugun jamiyat ilmsiz taraqqiyot, ta’lim-tarbiyasiz kelajak yo‘qligini anglagan holda dastalb o‘z vaqtida qabul qilingan bugunga kelib amaliyotda qo‘llanilmayotgan huquqiy normativ hujjatlar qayta ko‘rib chiqildi.”Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri 2020-yil 23-sentyabrda № O‘RQ-637-son qabul qilinishi, “O‘zbekiston-2030” taraqqiyot stategiyasining birinchi ustuvor masalasida 12 ta kechiktirib bo‘lmas vazifalarni qo‘yilishida mamlakatimizda ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilganligini

na’munasidir. 2023-yilni ham, “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”-deb e’lon qilini ham bugun Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida siatli ta’lim jarayonini tashkil etish uchun yil doirasida davlat dasturlarida belgilangan vazifalar ijrosi ta’minlashga qaratildi. Bevosita ta’lim tashkilotlari ham bo‘gun yangicha tafakkur va kreativ yondashuv asosida sog‘lom raqobat asosida ta’lim-taribiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda rahbar kadrlarining solohiyatiga ham chabarchas bog‘liq. Tahlimni barcha bo‘g‘inlarida quyidan torib, yuqori bo‘g‘inigacha rahbar kadrlarning boqaruvchanlik madaniyati va salohiyatini oshirish vazifasini yuklaydi. Ta’limni boshqaruvchi rahbarning “menejrelik” qobilyati boshqaruv strategiyasining mavjudligi, rahbarlik madaniyati yuqoriligi ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil eish va natijadorligini kafolatlaydi. Ho‘sh rahbar **madaniyati nima va u nimalarda ko‘rinadi? Eng avvalo rahbar** –rahbar xodimlar, yetakchilar, yo‘lboshchilarga xos ma’naviy qiyofa, axloq-odob, muomala va boshqaruv madaniyatini ifodalovchi so‘z birikmasi. Madaniyat, avvalo, ma’naviy boylik hosilasi. Siyosiy madaniyati yuksak rahbar millat, davlat, xalq manfaati nuqtayi nazaridan ish tutadi, umummanfaatni o‘z shaxsiy ehtiyoj va manfaatlaridan ustun qo‘yadi. Rahbar va rahbarlikka da’vogar shaxs alohida xulq-atvorga, ma’naviyat va madaniyatga ega bo‘lishi, uni doimiy ravishda takomillashtirib borishi lozim. Buning uchun siyosiy hayotdan xabardor bo‘lish yoki iqtisodiy va kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishning o‘zigina kifoya qilmaydi. Ular jahon tajribalari asosida shakllangan ilg‘or boshqaruv malakalarini ham o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak. Bugungi rahbar bunga zimmasidagi vazifalarga yuksak mas’uliyat bilan yondashish, o‘ziga nisbatan talabchanlik orqali erishadi. Masalan, u har kuni gazeta-jurnallar o‘qishi, radio va oynai jahon yangiliklaridan xabardor bo‘lish orqali ham ma’lum darajada bilim olishi mumkin. Siyosat, iqtisod va ma’naviyatga daxldor kitoblar, mumtoz adabiyot, tarixiy jarayonlarni chuqur mushohada qilish ham uning dunyoqarashini kengaytiradi. Agar aql-zakovati, tafakkuri, ma’naviy kamoloti, madaniyati bilan rahbar mustaqil fikrlashdan, mushohada qilishdan, kundalik voqea-hodisalarni teran tahlil etib borishdan uzoqlashsa, rahbarlik talab etgan ma’naviyatdan uzoqlashib boradi.

Boshqaruv ma’naviyati–ma’naviyat tamoyillarining boshqaruv sohasida namoyon bo‘lishi, rahbarga xos ma’naviy fazilatlar, jamiyat va davlat hayoti, barcha sohalardagi boshqaruvning ma’naviyat talablariga mos bo‘lishini anglatuvchi tushunchadir. Boshqaruv uslublari muammosini o‘rganishda biz shu masala bo‘yicha ilgari surilgan fikr va qarashlar Abu Nasr Farobiyning “Aql to‘g‘risida”gi risolasi, Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari, Alisher Navoiy asarlarida va zamonamiz olimlaridan N.Boymurodovning “Rahbarlik psixologiyasi”, M.Qoplonova,

O.Avlayevning “Boshqaruv psixologiyasi”, J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonovning “Ta’lim menejmenti”, R.Sh.Ahlidinovning “Maktab boshqaruvida ichki nazorat”, N.Komilov, A.Begmatov, M.Quronovning “Rahbar va xodim” kabi ilmiy asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Abu Nasr Farobiyning “Aql to‘g‘risida”gi risolasida rahbarlikka xos bo‘lgan quyidagi ayrim fikrlar bayon etilgan. Aqlli deb, shunday kishiga aytamizki, unda o‘tkir zehn-idrok bo‘lishi bilan birga, fazilati ham bo‘lsin. Bunday kishi o‘zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o‘zini saqlashga va tortishga qaratgan bo‘lmog‘i lozim. Ular fazilatli, o‘tkir muhokamali, yaxshi, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste’dodga ega. Yomon ishlardan o‘zlarini chetga olib yuradilar. Shunday odamnigina aqlli va to‘g‘ri fikr yurituvchi, deb atash mumkin3. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur o‘zining “Temur tuzuklari”da mansabdor shaxsning o‘z mansabini suiiste’mol qilishi, adolatsizligi, yolg‘onchiligi, ikkiyuzlamachiligi, o‘z so‘zining uddasidan chiqmasligini qattiq qoralagan, “Kuch–adolatda” g‘oyasini ilgari surgan Rahbar o‘zining ma’naviy faoliyatini fikrlash orqali shakllantirib boradi. G‘arb olimlaridan. Amerikalik mashhur olim va ixtirochi Tomas Edison “Taraqqiyotning buyuk vazifasi odamni fikrlashga o‘rgatishdir”, degan edi. Vujud yalqovligi fikrlash yalqovligidan boshlanadi, fikrlash to‘xtagan joyda rahbarning ma’naviyati ham, madaniyati ham zaiflashib boradi.

Har bir muassasaning faoliyatidagi samaradorlik, birinchi navbatda, jamoadagi shaxslararo munosabatlarning qanchalik to‘g‘ri tashkil etilgani yoki etilmaganligiga bog‘liq. Boshqacha aytganda, ishning qanday tashkil etilishi rahbarlik, boshqaruvchilikning tashkil etilishi darajasiga bog‘liq. Har bir rahbar pedagogik tizimni boshqarar ekan, eng avvalo, undagi muammolar va bu tizimdagi a’zolarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini bilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Rahbarlik uslublari va uning mazmunmohiyatiga rahbar o‘z boshqaruv faoliyatida afzal bilgan va asoslangan barcha usullar va harakatlarning taktika va strategiyalaridan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Bunda, bir tomondan, strategiyalar bilan boshqaruv faoliyati mazmuni, ikkinchi tomondan, bu tizimning o‘zi, inson faoliyati muhitida turli ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlar va shu qatorda professional faoliyat boshqaruv subyektining rivojlanishi, mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarning unga bo‘ysunuvchilarga nisbatan ta’sir ko‘rsatishi va ko‘zlangan maqsadga erishishga ularni undashida o‘zaro munosabatlar quyidagilarga asosan aniqlanadi: - qarorlar qabul qilish jarayonida bo‘ysunuvchilarning ishtirok etish darajasi; - bo‘ysunuvchilarning ma’lumotlar va axborotlar bilan ta’minlanishi; - rahbar tomonidan qo‘llanilayotgan ish uslublari, ya’ni u yoki bu masalani hal qilishda uning o‘ziga xos yondashishi.

Liderlik – bu shaxsning shaxsiy yetukligining (shaxsiy yetuklik – shaxsiy kamolot, individual yuksak ma’naviyat, shaxsning ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy barkamolligini anglatuvchi tushuncha 1) odamlar xulq-atvoriga ta’siriga asoslangan guruh, jamoadagi tabiiy ijtimoiy-psixologik jarayonidir. Liderlik asosan uch xususiyatga ega: 1. Emotsional lider. 2. Ishonchli lider. 3. Informativ lider. Rahbar amalga oshiradigan boshqaruv funksiyalari quyidagilar hisoblanadi: rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat. **Rejalashtirish** – boshqaruv faoliyatining boshlanishi va asosidir. Tayyor rejalar nima qachon va kim tomonidan bajarilishini ko‘rsatib turadi. Rejalashtirish o‘tmishdagi rivojlanish, hozirgi sharoitlarni tahlil qilish va kelajakka real vazifalarni qo‘yishni nazarda tutadi. **Tashkillashtirish** – tizimni yuzaga keltirishdir, bunda quyidagi uch komponent: intiluvchi guruhlar, iqtisodiy munosabatlar va texnik vositalar mantiqiy ravishda birbiriga bog‘langan bo‘ladi. **Nazorat**–ish faoliyatini tartibga keltirish, tasniflash, hodisalarni oldindan belgilangan shakli bo‘yicha baholashdir. Nazorat yordamida ijtimoiy-psixologik obyektlar, ular uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarning yorqin darajasiga qarab (ekspert baholash) dastlabki tasniflash amalga oshiriladi. Rahbarlikda ba’zida o‘z e’tiborini faqat vazifalarga, ishga qaratgan yoki faqat xodimlarga qaratgan rahbarni ko‘rish mumkin. Albatta, bunday ko‘rinishdagi rahbarlarning ikkalasi ham jiddiy kamchiliklarga ega, deb baholanadi.

Xulosa qilib aytganda zamonviy rahbar tahlimni qaysi bo‘g‘inini boshqarishjan kat’iy nazar liderlik qobilyati, ishni to‘g‘ri tashkil eta olishi, jamoada sog‘lom ilmiy-pedagogik muhit va sharoitni yaratishilozim. Zero ta’lim muassasasining reytingni, unda ta’lim oluvchilarning natijadorligi unda rahbarning hodilarga qo‘ygan vazifasi va yaratgan imtiyozlari asosida natijadorlikga erishiladi. Buni biz bugun mamlakatimiz miqyosida reytingi baland bog‘chalar, umumiy ta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalari misolida ko‘rishimiz mumkin. Qaysiki, bu muassasalarda haqiqiy rahbarlar o‘z kasb burchi va ma’suliyatini to‘g‘ri anglagan xolda mamlakali rahbarlar faoliyatini o‘rganishni taqazo etadi.

REFERENCES:

1. Boymuradov N. Rahbar psixologiyasi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2007.y
2. Karimjonov A. Pedagogik tizimni boshqarish asoslari. O‘quv qo‘llanma – T., 2008.
3. .Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
4. Hoshimov K., Safo O. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 2010

BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK IJTIMOIY MUAMMOSI SIFATIDA

Dildora Olimjonovna Axmedova
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi, PhD sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Muxlisa Raxim qizi Abdumalikova
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy ish yo‘nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash bugungi kunning dolzarb masalasidan biri ekanligi bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning turlari kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish mexanizmlari yoritishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Zo‘ravonlik, konvensiya, ruhiy zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, empatiya, hissiy kuyish.

ABSTRACT:

In this article, the fight against violence against children is one of today’s urgent issues, the causes of the types of violence against children and the mechanisms of their elimination are tried to be clarified.

Keywords: Violence, convention, mental violence, economic violence, sexual violence, empathy, emotional burnout.

Dunyo bo‘ylab zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan va murakkab ko‘rinishi – bu bolalarga nisbatan zo‘ravonlikdir. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik har joyda: maktabda, oilada, tengdoshlar orasida sodir bo‘lishi mumkin. Ammo, eng keng tarqalgan ko‘rinishi – bu oiladagi zo‘ravonlik. U bolaning yaqin qarindoshlari tomonidan amalga oshiriladi. 2018-yilda AQShda bolalarga nisbatan zo‘ravonliklarning 76 foizi jabrdiydalarning ota-onalari tomonidan sodir etilgan[1].

Statistik ma’lumotlarga qaraganda, har yili qotillik oqibatida yarim million odam bu dunyoda ko‘z yumadi; yoshlarning har 3 tadan bittasi bezorilik qurboni bo‘ladi; har 17 ta ayoldan bittasi umrida davomida jinsiy zo‘ravonlikka uchragan. Eng achinarli ma’lumot esa har 2 ta boladan biri zo‘ravonlik qurboni bo‘lmoqda[2]. Xalqaro Mehnat Tashkilotining hisobotida esa har yili 1,2 million nafar voyaga yetmagan bola odam savdosi qurboni bo‘lishi ta’kidlangan[3].

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik jismoniy, jinsiy va hissiy zo‘ravonlik, beparvo munosabat va ekspluatatsiyaning barcha shakllarini o‘z ichiga oladi. JSST hisobotiga ko‘ra zo‘ravonlikka uchragan bolalarning 36% psixologik, 23% jismoniy, 18% (qizlar)

va 8% (o‘g‘il bolalar) jinsiy zo‘ravonlikka uchrash holatlari aniqlangan[4]. Bolalar aholining eng himoyaga muhtoj qatlami hisoblanadi, shu bilan birga zo‘ravonlikka eng ko‘p uchraydigan qatlami desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Jahon miqyosida 2-17 yoshlilarning 1 milliardi zo‘ravonlikning qaysidir turiga (jismoniy, jinsiy, psixologik yoki e’tiborsizlik) uchraganligi taxmin qilinadi. Shu bilan birgalikda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik to‘liq oldini olish mumkin bo‘lgan zo‘ravonlik sifatida e’tirof etiladi. Bolaning yoshligida zo‘ravonlikdan aziyat chekishi uning kelajak hayotida, farovonligida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Emotsional yoki psixologik zo‘ravonlik bolaning harakatini cheklash, haqorat qilish, masxara qilish, tahdid va qo‘rqitish, kamsitish, rad etish va boshqa jismoniy bo‘lmagan dushmanona munosabatni o‘z ichiga oladi.

Jismoniy zo‘ravonlik esa tanaga shikast yetkazish, tan jarohati yoki boshqa har qanday azobni keltirib chiqaruvchi qasddan qilingan kuch ishlatish hisoblanadi. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra bolalarga nisbatan zo‘ravonlik: o‘limga, og‘ir tan jarohatlar, miya va asab tizimi rivojlanishida muammolar, sog‘liq uchun xavfli xatti-harakatlarga moyillik(ichish, chekish, giyohvand moddalarni iste’mol qilish), kelajak farovonligining salbiy tomonga o‘zgarishiga(zo‘ravonlikka uchragan bola maktabni tashlab ketishi, keyinchalik o‘zi ham zo‘ravonlik sodir etishi ehtimoli yuqori) ta’sir qiladi.Bolalikdagi har qanday jismoniy zo‘ravonlik natijasi albatta bo‘ladi, chunki jismoniy zo‘ravonlik bevosita ruhiyatga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.Bolaning yaqinlari tomonidan kaltaklanishi boshqalarga bo‘lgan ishonch hissi yo‘qolishiga, maktabda do‘stlar orttirishda, tengdoshlarini va jamiyatdagi boshqa insonlar bilan muloqotga kirishish jarayonidagi qiyinchiliklarni paydo qiladi.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik atamasining tarixiga qaraydigan bo‘lsak, 19-asrning oxirlarida kattalar tomonidan bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish odatiy va keng tarqalgan bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda jismoniy jazolash odatiy hol edi. Ammo, 19-asrning birinchi yarmida filitsid (ota-onalar tomonidan bolalarning o‘ldirilishi) aynan otalik g‘azabi, takroriy jismoniy zo‘ravonlik, ochlik va jinsiy zo‘ravonlikdan o‘lim holatlari bilan birgalikda xabar berila boshlandi. 1860 yilda fransuz sud-tibbiyot eksperti Auguste Ambroise Tardieu bolalarning ota-onalar tomonidan o‘ldirilishi bo‘yicha 32 ta holatni jamladi[5], ulardan 18 tasida bolalar ochlikdan yoki takroriy jismoniy zo‘ravonlikdan vafot etgan. Tard o‘z izlanishlari davomida 8 yoshida bobosi va buvisi tomonidan ota-onasiga qaytarib berilgan Adeline Defert ishi uni e’tiborini jalb qiladi, Adeline Defert 9 yil davomida ota-onasi tomonidan qiynoqqa solingan — har kuni qamchilangan, bosh barmoqlariga osib qo‘yilgan va mixlangan taxta bilan kaltaklangan. Uning yaralari nitrat kislota bilan yuvilgan edi. Tardieu ota-onasidan olib qo‘yilgan bolalar uyiga tashrif buyurdi va yangi muhitni bolalarga ta’sirini kuzatadi: himoyaga olingan bolalarda yuzlaridagi qayg‘u va qo‘rquv yo‘qolganini payqadi. U shunday dedi: “Biz har kuni va deyarli soatlab vahshiyliklarga,

tasavvur qilib bo‘lmaydigan qiynoqlarga va og‘ir mahrumliklarga duchor bo‘lgan bu bechora himoyasiz mavjudotlarning yoshlik davrini hisobga olsak, ularning umri bir umrlik shahidlikdir – va ularning azoblovchilari aynan onalar ekanligi, hamma insonni ham adolat vijdonini bezovta qiladigan dahshatli muammolardan biriga duch kelganimizni bildiradi[6]” Tardieuning o‘sha paytdagi fikri hozir ham o‘zining dolzarbligini va ahamiyatini yo‘qotmagan. Ota-onalar tomonidan bolalarning qiynoqqa solinishi, shafqatsiz munosabatda bo‘linishi har qanday toshyurak insonning ham achinishini uyg‘ota oladi. O‘z bolasiga nisbatan “shaxsiy mulk” deb qaralishi bu inson erkinliklarini nafaqat cheklash balki uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri mensimaslikdir. Ruhiy jihatdan nosog‘lom insonlar uchun ota-onalikni cheklash eng to‘g‘ri qaror bo‘ladi.

Tardieuning fikrlaridan qariyb 100 yil keyin bu muammo bilan davomli kurash boshlandi. 1962-yil iyulida nashr qilingan pediatr C.Genri Kempening maqolasida bolalarga nisbatan yomon munosabatda bo‘lish bolalik travmalarini keltirib chiqarishi haqida yozadi. Aynan Kempening maqolasidan bolalardagi shikastlanishlar, takroriy suyak sinishlari qasddan qilingan jarohat natijasi bo‘lishi mumkinligi tan olingan. Ungacha bu qandaydir suyak kasalligi yoki qo‘shni bezorilar bilan urishish degan ma’lumotlar olingan edi[7].

Bolalarga zo‘ravonlik aksariyat hollarda aynan ularning yaqinlari tomonidan amalga oshiriladi .Bolaga qilingan har qanday zo‘ravonlikning jismoniy va ruhiy jihatdan keltirib chiqargan travmalari kelajakda juda katta salbiy oqibatlarga olib keladi. Shunday bo‘lsada zo‘ravonlikka uchragan bola aksariyat hollarda zo‘ravonlikdan keyin yordam so‘ramaydi yoki so‘ray olmaydi. Bolaning doimiy jismoniy yoki ruhiy bosim ostida voyaga yetishi, unga bunday holat odatiy ekanligini uqtirishi va kelajakda ham kichik bolalarga zo‘ravonlik qilishi ehtimolini oshiradi. Bola oilada yoki maktabda zo‘ravonlikni odatiy hol deb bilishi jamiyatning tanazzulga yuz tutayotganini bildiradi.

Amerikada tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki bola zo‘ravonlikning bir turiga uchrashi uning yana zo‘ravonlikka uchrashining ehtimoli yuqori ekanligini bildiradi. Bolaligidan zo‘ravonlikka uchrash kelajak hayotdagi omadsizliklar yoki qiyinchiliklar, jinoiy xatti-harakatlarga aralashib qolishiga sabab bo‘lib xizmat qiladi.

Bolalar zo‘ravonligi aynan bir xalqning muammosini emaski, u haqda boshqa davlatlar qayg‘urmasa. Bu global muammo, butun insoniyatga tegishli muammo. Shuning uchun ham xalqaro tashkilotlar tomonidan bolalar huquqlari har doim birinchi o‘ringa qo‘yib kelinadi va bu huquqlarni ta’minlash uchun xalqaro qonunchilik bazasini ham shakllantirib kelinmoqda.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya[8] bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni butunlay tugatish maqsadidagi xalqaro shartnoma hisoblanadi. Ushbu konvensiya eng ko‘p imzolagan bo‘lishiga qaramasdan hozirgi kunda hech qaysi davlat to‘liq bolalar zo‘ravonligini oldini olganini ayta olmaydi. The Economist Intelligence Unit[9] va World Childhood Foundation tashkilot[10] ining “Soyadan tashqarida[11]” deb

nomlangan hisobotida 60 ta yuqori daromadli mamlakatlarning bolalar jinsiy zo‘ravonligi va ekspluatatsiyasini oldini olish chora-tadbirlari bo‘yicha indeks jadvali tuzgan bo‘lib, unda davlatlarga 100 ballik tizimda baho berilgan. Ushbu indeks ro‘yxatiga ko‘ra Buyuk Britaniya (77.2) Fransiya (76.3) Shvetsiya (76.0), Kanada (75,4), Janubiy Koreya (72.2), Avstraliya (71.8), Germaniya (67.1), AQSh (63.7) bilan tasniflanadi. Ko‘rib turganimizdek davlat qanchalik rivojlangan bo‘lmasin, u davlatda ham bolalar zo‘ravonlikning qaysidir turidan aziyat chekmoqda.

Zo‘ravonlik insoniyatning ajralmas bo‘lagi emas. So‘nggi o‘n yillikdagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlikni oldini olish mumkin. Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) 2015-yil sentyabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining sammitida qabul qilingan. U 17 maqsad va 169 ta yo‘nalishdan iborat universal to‘plam bo‘lib, mamlakatlar 2030-yilgacha rivojlanish siyosatini ishlab chiqishda foydalanishi mumkin. BRMning uchta maqsadi bevosita zo‘ravonlikka qaratilgan: 5.2-maqsad. ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka chek qo‘yish; 16.1 hamma joyda zo‘ravonlikning barcha shakllarini kamaytirish; va 16.2 bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni tugatish. BRM bolalar zo‘ravonligi barqaror rivojlanishga to‘siq bo‘lishini va uni tugatish muhimligini ta’kidlaydi.

YUNICEF- bolalar huquqlarini ta’minlash va himoya qilish bo‘yicha xalqaro tashkilot hisoblanadi[12]. YUNICEF barcha sharoitlarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va ularga javob berish uchun butun dunyo bo‘ylab hukumatlar bilan hamkorlik qiladi. JSST boshchiligida 10 ta xalqaro agentlikdan iborat guruh INSPIRE: Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berishning yettita strategiyasi deb nomlangan dalillarga asoslangan texnik paketni ishlab chiqdi va tasdiqladi. INSPIRE nomi belgilab olingan 7 ta strategiyaning bosh harflarini anglatadi:

- I(implementation)- qonunlarni amalga oshirish va ijro etish
- N(Norms)-normalar va qadriyatlarni o‘zgartirish (masalan, qizlarning jinsiy zo‘ravonligini yoki o‘g‘il bolalarning tajovuzkor xatti-harakatlarini ma’qullaydigan me’yorlarni o‘zgartirish)
- S(Safe)-Sog‘lom muhitlar (masalan, zo‘ravonlik rivojlangan muhitlarni o‘rganish va sog‘lomlashtirish)
- P(Parental and caregiver support)-ota-ona va tarbiyachilarni qayta o‘qitish
- I(Income)-daromad va iqtisodiy mustahkamlash
- R(Response)-yordam berish xizmatlarini taqdim etish (masalan, zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan bolalar samarali shoshilinch tibbiy yordam olish va tegishli psixo-ijtimoiy yordam olishlarini ta’minlash)
- E(Education)-Ta’lim va hayotiy ko‘nikmalar (masalan, bolalarning maktabga borishini ta’minlash, hayotiy va ijtimoiy ko‘nikmalarga o‘rgatish).

Bu strategiyalar guruhi bolalar zo‘ravonligini oldini olish uchun har tomonlama vazifalarni belgilab bergan: qonun hujjatlaridan tortib bolaning bilim olish darajasi, oiladagi muhitgacha hammasini bolalar manfaatiga moslab, zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishgandan beri bolalar zo‘ravonligi bo‘yicha qonunchilik bazasi yangilanib, kengaytirilib bormoqda. Xususan, 2008-yildan boshlab kuchga kirgan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun to‘g‘ridan-to‘g‘ri bola huquqlarini kafolatlaydigan hujjat hisoblanadi. Bundan tashqari so‘nggi yillarda qabul qilinayotgan qonunchilikka qaraydigan bo‘lsak, bolalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qiladigan “Bolalarni zo‘ravonliklarning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasida bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga mas’ul davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, ularning vakolatlari belgilanmoqda, shuningdek, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishda ota-onalarning (yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning) ishtiroki, ularning majburiyatlari, ta’lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka yo‘l qo‘yilmaslik qonun bilan qat’iyan belgilab qo‘yilmoqda. Aynan shu qonun loyihasida bolalarga ham ular zo‘ravonlikka uchragandan so‘ng keyingi 24 soat ichida himoya orderi berish tizimi ishlab chiqilmoqda. Ushbu qonun loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan dastlabki ko‘rib chiqish jarayonida. Agar shu qonun qabul qilinsa O‘zbekiston sharoitida ham bolalar zo‘ravonligi soni keskin kamayishi kutilmoqda.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni kamaytirish uchun asosiy e’tibor oila institutini mustahkamlash va sog‘lomlashtirishga qaratilishi kerak. Bilamizki, oila- muqaddas dargoh. Bola dunyoning eng dahshatli manzarasiga ya’ni zo‘ravonlikka uyida guvoh bo‘lishi, ota-onasini asabiy, jahldor va eng yomoni uni kaltaklayotgan holatda ko‘rishi juda achinarli holat. Zo‘ravonlikka uchragan bolalarda atrofdagilarga nisbatan nafrat shakllanadi. Bu xuddi,uning mitti dunyosi bo‘lgan oilasidagi eng yaqin insonlari ota-onasi unga baqirishi, haqoratli so‘zlar bilan atashi, doimiy bosim o‘tkazishi va qattiq nazoratda ushlashi, butun dunyo bu bolani qabul qilishni xohlamasligini anglatgandek. Oqibatda bolaligida mehr-muhabbatsiz, kamsitishlar bilan katta bo‘lgan bola butun dunyoga nafrat ko‘zi bilan qaraydi va o‘zi ham nafrat manbaiga aylanadi. Bu nafrat bolaning jamiyatga integratsiyasi jarayonida o‘z ta’sirini ko‘rsatishni boshlaydi.

Zo‘ravonlik bolaning ham ruhiy ham jismoniy rivojlanishida katta travma qoldiradi. Agar bunga vaqtida yordam ko‘rsatilmasa, bu travma bolaning butun umri davomida unga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro va mahalliy huquqda zo‘ravonlik taqiqlanishiga qaramasdan, bolalar o‘rtasida asosan zo‘ravonlikning psixologik va e’tiborsizlik shakllari juda ko‘p uchraydi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, zo‘ravonlikka uchragan bola zo‘ravonlik doirasi kengaytirishi, o‘zi ham zo‘ravonlik ijrochisiga

aylanishi mumkin. Shunday ekan bolalar zo‘ravonligini oldini olish faqatgina bolalar huquqlarini ta’minlash emas, balki sog‘lom va farovon kelajak poydevorini qurish hisoblanadi.

REFERENCES:

1. Статистика жестокого обращения с детьми. Статистика жестокого обращения с детьми — Childhelp
2. JSST global salomatlik hisoblari (2019 yil yangilanishi)
3. webapps.ilo.org/ipecinfo/product/viewProduct.do?productId=742
4. Tardieu A (1860) Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va shafqatsiz munosabat bo‘yicha tibbiy-huquqiy tadqiqot. Gigiena yilnomalari 15: 361–398.
5. Tardieu A (1860) Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va shafqatsiz munosabat bo‘yicha tibbiy-huquqiy tadqiqot. Gigiena yilnomalari 15: 361–398.
6. Young-Bruel, Elizabet (2012). Bolalik: bolalarga nisbatan noto‘g‘ri qarashlarga qarshi turish . Nyu-Xeyven, Konnektikut: Yel universiteti nashriyoti.
7. BMT tomonidan 1989-yil 20-noyabr kuni qabul qilingan.
8. The Economist Intelligence Unit- iqtisodiy prognozlash, tahlil va tadqiqotlar olib boradigan birlashma
9. World Childhood Foundation Butunjahon bolalik jamg‘armasi 1999-yil Shvetsiya qirolichasi Silviliya tomonidan butun dunyo bo‘ylab xavf ostida bo‘lgan bolalarga erishish va ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan.
10. Soyadan chiqish indeksi — mamlakatlar bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi va zo‘ravonligiga qanday munosabatda bo‘layotganiga qaraydigan birinchi global mezondir.
11. UNICEFF-1946 yil 11 dekabr BMT tomonidan tuzilgan,192 ta davlat a’zo.
12. INSPIRE -bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni kamaytirish uchun eng katta salohiyatga ega bo‘lgan profilaktika dasturi/2016-yil Shvetsariya

AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA IJTIMOIY ISH KASBINING AHAMIYATI

Elbek Erkinjon o’gli Ro’zimatov
O’ZMU “Ijtimoiy ish” kafedrasi o’qituvchisi

Go‘zal Inomjon qizi Umatqulova
"Ijtimoiy ish" yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA:

Inson yashar ekan hayoti davomida turli xil muammolarga duch keladi. Bu muammolarni yengib o‘tishda kimdandur qandaydur ma`limotlar olish, yordam so‘rashi mumkin bo‘ladi. O‘zbek xalqi azal-azaldan shaxsiy muammolarini ota-onaga aytib ular bilan birgalikda yechishgan. Hozirgi kunga kelib zamonaviy jamiyatga mos ravishda insonlarning ham muammolari o‘zgarib bormoqda

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy ish, ijtimoiy xodim, ijtimoiy ish tarixi, Itimoiy himoya milliy agentligi, ijtimoiy ishchilar “Axloq kodeksi”.

ABSTRACT:

A person faces various problems during his life. It will be possible to get some information and ask for help in overcoming these problems. Since time immemorial, the Uzbek people have solved their personal problems together with their parents. Nowadays, people's problems are changing in accordance with the modern society

Keywords: Social work, social worker, history of social work, National Social Protection Agency, social workers "Code of Ethics".

Ijtimoiy ish juda qadimdan mavjud bo‘lib insonlarning qon-qoniga singib ketgan. Misol uchun o‘zimizning ajdodlarimiz yashab o‘tgan davrlarga qaytsak. Turkiy xalqlarga islom dini kirib kelgunga qadar insonlar Zardushtiylik diniga sig‘inishgan. Zardushtiylik dining muqaddas kitobi “Avesto”da ilgari surilgan g’oyaga e`tibor qaratsak asosiy g‘oya “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal”. Insonlar shu g‘oyalar asosida yashashgan, bir-birlariga yordam berishgan. Islom dini kirib kelgandan so‘ng yetim, beva, keksa, kambag‘allarga chin ko‘ngildan yordam berishgan va qo‘llab-quvvatlashgan. Muqaddas kitobimiz Qur`oni Karimda ham ijtimoiy ish terminlari bilan aytganda ijtimoiy himoya va yordamga muhtoj bo‘lgan insonlar yordam berish haqida aytib o‘tilgan. Masalan, Islom dini kirib kelgach, yetim bolalar haqiga xiyonat qilmaslik, ularga ozor yetkazmaslik, aksincha,

g‘amxo‘rlik qilish shariat arkonlaridan biriga aylandi. Xususan, Qur’oni Karimning “Niso” surasi 10-oyatida “Yetimlarning mol-mulkini zulm yo‘li bilan yeydigan kimsalar, albatta, qorinlarida olov yegan bo‘lurlar va albatta, do‘zaxda toblanurlar”, 22-oyatida “(voyaga yetgan) yetimlarning mol-mulklarini (qaytarib) beringiz, pok narsani nopok narsaga almashtirmangiz! Ularning mollarini o‘z mollaringizga qo‘shib ham yemangiz!. Zero, bu katta gunohdir!”, deb ta’kidlandi. [3]

Janubiy Yevropa davlatlaridan Qadimgi Rim, Misr va Gretsiyada ilk ijtimoiy ish harakatlari paydo bo‘lgan. Keyinchalik AQSH kabi davlatlarda ham rivojlana boshlagan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniyada vujudga kelgan Uyushgan xayriya jamiyati va Turar joy harakati kabi tashkilotlar professional ijtimoiy ishning paydo bo‘lishi uchun asos tayyorladilar. 1887-yilda asos solingan Uyushgan xayriya jamiyati, 1886-yilda Nyu-Yorkda tashkil topgan Qo‘shnilar gildiyasi andozalari asosida 1880-yillarda AQShning Baffalo shahrida ham xayriya tashkiloti tashkil topdi. Bu tashkilotlarning ikkalasi ham kambag‘allarga amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, ularning ishida aholining yuqori va o‘rta qatlamlaridan bo‘lgan o‘qimishli kishilar qatnashgan. Bunday tadbirlar, ayniqsa, ijtimoiy ishni o‘zlarining ijtimoiy mavqeini yaxshilash va iqtisodiy mustaqillikka erishish imkoniyati sifatida ko‘rgan yosh ayollarni o‘ziga tortardi

1892-yilga kelib, AQSH va Kanadaning yirik shaharlarida ushbu turdagi 92 ta xayriya tashkilotlari tashkil etildi. Baltimordagi uyushgan xayriya jamiyatida ishlagan Meri Richmond xayriya ishlarini yaxshilash masalalarini hal qilishda ta’limni birinchi o‘ringa qo‘ygan. Shu bilan birga, u ikkita yo‘nalishni ajratib ko‘rsatdi: ma’rifiy ishlar (maqolalar chop etish, davriy nashrlar tashkil etish, ommaviy nutqlar, seminarlar, jamoatchilik, o‘quvchilar va talabalar bilan uchrashuvlar) va xayriya ishlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarni tayyorlash, kasbiy ta’lim berish. 1898-yilda Nyu-Yorkda Ijtimoiy ish maktabi ochildi.

1899-yilda Amsterdamda ikki yillik o‘quv dasturi bo‘yicha Ijtimoiy ishchilarni tayyorlash instituti ochildi. Shu yili Berlinda ijtimoiy sohada ishlashni istagan yosh ayollarni bir yillik tayyorlash dasturi ish boshladi. 1910-yilga kelib, dunyoda 15 dan ortiq (ulardan 5 tasi AQShda) ijtimoiy ishchilarni tayyorlaydigan ta’lim muassasalari mavjud edi. [4]

Ijtimoiy ish — kasbiy faoliyat sifatida, yordamga muhtojlarga (og‘ir yashash sharoitida bo‘lganlarga), o‘z hayotiy muammolarini tashqi yordamsiz hal qila olmaydigan va ko‘p hollarda hatto, yashay olmaydigan odamlarga yordam berishga qaratilgan (Pavlenok P. D.).

Har qanday faoliyat, shu jumladan ijtimoiy ish ham o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, unda har bir element uzviy bog‘langan va boshqalar bilan o‘zaro ta’sirlashadi, o‘z vazifalarini bajaradi. Ijtimoiy ish ajralmas tuzilma bo‘lib, quyidagi elementlardan iborat: subyektlar; funksiyalar orqali ochiladigan tarkib; vositalar (tashkiliy-texnik, moliyaviy va boshqalar), nazorat va maqsadlar.

Ijtimoiy ishning kasbiy faoliyat sifatidagi maqsadi, bir tomondan, mijozning manfaatlarini qondirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatda barqarorlikni saqlashdir. Ushbu muammoning eng maqbul yechimi bu ikki maqsad o‘rtasida murosaga erishishdir. Ijtimoiy ish xodimining vazifalarni bajarishida maxsus Axloq kodeksi asosida ish yuritadi. Unga ko‘ra ijtimoiy ish xodimi quyidagilarga amalqilishi lozim:

1. Ijtimoiy xodimi benifitsiar manfaatlarini qo‘llab-quvvatlashni asosiy kasbiy burch deb hisoblashlari lozim;

2. Ijtimoiy xodim o‘zlari xizmat ko‘rsatayotgan odamlarga xos bo‘lgan qadriyatlarni yoki ular bilan o‘rnatiladigan professional munosabatlarni hurmat qilish lozim;

3. Ijtimoiy xodim o‘zining kasbiy burch va majburiyatlarini to‘liq va ob‘ektiv ravishda bajarishlari lozim;

4. Ijtimoiy xodim ijtimoiy ish benifitsiar ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida yuqori malakaga ega bo‘lishi lozim;

5. Ijtimoiy xodim benifitsiar bilan munosabatlardan shaxsiy manfaatlari, o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanmasliklari lozim;

6. Ijtimoiy xodim kasbi ortidan egallangan ma‘lumotlarning maxfiyligini himoya qilishni ta‘minlashlari lozim. U bu kabi ma‘lumotlarni faqatgina qonunan ruxsat etilganda yoki benifitsiarning o‘zi ushbu ma‘lumotlarning ma‘lum qilinishiga rozi bo‘lganliklarida ochishi mumkin;

7. Boshqa kasb, mashg‘ulotlarda, uyushma yoki jamoalarda ishtirok etuvchi ijtimoiy xodim o‘z faoliyati davomida mazkur tashqi qiziqishlarning ijtimoiy ishga benifitsiarlar bilan mehnat munosabatlariga ta‘sir ko‘rsatmasligini ta‘minlashi zarur;

8. Ijtimoiy xodim ijtimoiy ish, ijtimoiy ta‘minot yoki ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni ijtimoiy ish kasbiga ziyon yetkazadigan usulda amalga oshirmasliklari yoki jamoatning mazkur faoliyat yoki har qanday boshqa kasbga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan tarzda amalga oshirmasliklari talab etiladi;

9. Ijtimoiy xodim Axloqiy kodeks va Ijtimoiy xodimlar amaliyot standartlariga muvofiq bo‘lgan ishchi o‘rni va siyosati shart sharoitlarini himoya qilishi lozim;

10. Ijtimoiy xodim o‘z kasbiga ustun jihatlarni egallagan bo‘lishlari lozim.

11. Ijtimoiy xodimi benifitsiar manfaatlari yo‘lidagi va jamiyat, ijtimoiy muhit va global uyushmalar foydasi yo‘lida amalga oshiriladigan o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlashlari va himoya qilishlari lozim. [5]

Ijtimoiy ish xodimining faoliyat jarayoni volantyorlik faoliyati bilan chambarchars bog‘liq faoliyat deb hisoblasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Nega deganda ijtimoiy ish xodimi insonlarga o‘z “Axloq kodeksi”ga ko‘ra kelgan benifitsiarlarning shaxsini, u haqidagi har qanday ma`lumotlarini hech kimga, hech qachon berishi mumkin emas. Volontyorlik faoliyatida ham xuddi shunday konfidensiallikka asoslangan bo‘ladi, hamda bu ikki faoliyat bir-birini to‘ldirib ketish imkoniga ham ega.

Jamiyatimizda ijtmoiy ish va ishtimoiy xodim haqida hali ma`lumotga ega bo‘lmagan insonlar ham mavjud bo‘lib ularni faoliyatimizdan xabardor qilib boorish va ma`lumotlarini oshirish lozim. Buning uchun quyidagilardan foydalanishimiz mumkin:

- OAV (TV, radio, gazeta, jurnal)
- Ijtimoiy tarmoq va messenjerlar (Telegram, Instagram, Feysbuk, You Tube)
- Reklama (tashqi reklama, yo‘llardagi reklama va bannerlar)
- Tarqatma materiallar (flaer, reklama bukleti, qadoqlardagi reklamalar)
- MFYlarda bannerlar ko‘proq foyda beradi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, ijtimoiy ishning asosiy komponenti kadrlardir. Bular ijtimoiy himoya tizimida ishlovchi, xizmat vazifalarini bajaruvchi hamda muayyan burch, huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan shaxslardir. Ijtimoiy himoyaning yangi modelining paydo bo'lishi sodir bo'layotgan o'zgarishlarni chuqur anglaydigan va aholining turli toifalarini ijtimoiy himoya qilishning ko'p qirrali muammolarini professional tarzda hal etishga tayyor bo'lgan yangi kadrlar mavjudligini taqozo etadi. Shu munosabat bilan, ijtimoiy sohada aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari bilan ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar bilan ta'minlash va shunga mos ravishda "ijtimoiy xodim" kasbiy faoliyatini yanada rivojlantirish va ijtimoiy ish bo’yicha aholi habardorligini oshirish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ijtimoiy ishni keng rivojlantirish maqsadida, ijtimoiy ish haqida aholining habardorligini oshirish usullarini turli yo‘llarini ko‘rib tizimli yo’lga qo’yish zarur. Hususan ulardan eng samaralisi ijtimoiy tarmoqlarga e`lon, reklama va ma`lumotnomalar qo‘yilishi, MFYlarda mahallaga tegishli bo‘lgan telegram sahifalarida ma`lumotlar qo‘yilishi degan fikrga keldik. Bu bilan biz ijtimoiy ish faoliyati bo‘yicha olib borilayaotgan siyosat, yangiliklar, qonunlar, o‘zgarishlar haqida ma`lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Aholining keksa qatlamlariga OAVning televideniya orqali qo‘yiladigan

ijtimoiy ahamoyatga molik bo‘lgan ko‘rsatuvlar, radio eshittirishlar orqali habardor qilish eng samarali yo‘l deb o‘ylayman.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2023-yil 23-oktabrdagi 63-son buyrug‘i
2. N.Latipova “Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o‘qitishning dolzarb muammolari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to’plami. 2023-yil 87-bet. https://www.researchgate.net/publication/376209162_OSOBENNOSTI_RAZVITIA_SOCILNOJ_RABOTY_V_UZBEKISTANE
3. E.X.ZAITOV., G‘. O‘. XOLMURODOV. Ota-Ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti. [Darslik]. —Toshkent: “GRAND KONDOR PRINT”, 2024.
4. Ijtimoiy ish - Vikipediya (wikipedia.org) https://uz.wikipedia
5. M.X. Ganiyeva, Q.N. Kayumov, M.B. SHerov Ijtimoiy ishga kirish Darslik qo‘llanmasi «MALK PRINT CO» TOSHKENT - 2021

NOGIRONLIGI BO’LGAN BOLALARNI QO’LLAB- QUVVATLASH INSON KAPITALI SIFATIDA

Azizaxon Muxtorxon qizi Maxsudova
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish kafedrasi o’qituvchisi

Muxlisa Mamadiyorova
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish kafedrasi talabasi

ANNOTATSIYA:

Maqolada nogiron bolalarni ijtimoiy va inson kapitaliga qo'shgan hissasi kontekstida qo'llab-quvvatlashning roli ko'rib chiqiladi. Muallif ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning imkoniyati cheklangan bolalar rivojlanishi va salohiyatiga ta’siri, shuningdek, ularning ta’lim va mehnat bozoridagi imkoniyatlarini tahlil qiladi. Alohida ehtiyojli bolalarni qamrab olish va rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha samarali qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini ko‘rib chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maqolada, shuningdek, hayotning turli sohalarida nogiron bolalarni qo'llab-quvvatlashga yondashuvlarni amalga oshirishning amaliy jihatlari muhokama qilinadi. Xulosa yanada inklyuziv va samarali jamiyatlarni yaratish uchun nogiron bolalarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga sarmoya kiritish muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: qo'llab-quvvatlash, nogiron bolalar, inson kapitali, ijtimoiy integratsiya, ta'lim, mehnat bozori, qo'llab-quvvatlash strategiyalari, investitsiyalar, inklyuziv jamiyat.

ABSTRACT:

The article examines the role of supporting children with disabilities in the context of their contribution to social and human capital. The author analyzes the impact of social support on the development and potential of children with disabilities, as well as their opportunities in education and the labor market. Particular attention is paid to the consideration of effective support strategies to promote the inclusion and development of children with special needs. The article also discusses practical aspects of implementing approaches to supporting children with disabilities in various areas of life. The conclusion highlights the importance of investing in the support and development of children with disabilities to create more inclusive and productive societies.

Keywords: support, children with disabilities, human capital, social integration, education, labor market, support strategies, investments, inclusive society.

Dunyo bo'ylab 600 milliondan ortiq bola asosiy o'qish va arifmetika bilan kurashmoqda. Tayyorlangan o'qituvchilarning yetishmasligi, o'quv materiallarining

yetarli emasligi va yomon infratuzilma o'rganishga to'sqinlik qiladi. Talabalar och qolganda, uylarini tark etishga majburlanganda yoki ishdan yoki uy yumushlaridan charchab darsga kelganlarida bu mahrumlik yanada kuchayadi.Ta'lim va malaka oshirish iqtisodiy o'sishning kuchli omili hisoblanadi. Ammo ko‘plab bolalar va yoshlar mehnatga qo‘shilish, tadbirkor bo‘lish, oilasi, jamiyati va dunyoga hissa qo‘shishi uchun zarur bo‘lgan ta’limni olmagan.

UNICEF Innocenti - Global tadqiqot va prognoz idorasi bolalar va yoshlarni o'z kelajagidan maksimal darajada foydalanishga tayyorlaydigan echimlarni aniqlash uchun ma'lumotlar, dalillar va prognozlardan foydalanadi. Innovatsiyalar va texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotga intilayotgan har qanday mamlakat uchun birinchi navbatda texnologik yutuqlarni o'zlashtiradigan va ta'limni yanada mustahkamlab unga rivoj qo'shadigan bu - inson kapitalining sifatidir. Xozirgi kunda bilimlarni ishlab chiqarish, ularni tarqatish va ulardan foydalanish xar qachongidan ham muhimdir.Inson kapitali rivojlanishining asosiy xissasi va hal qiluvchi omili, xususan yetuk darajalarga erishishning asosiy omili bu- sifatli ta'limdir. Butun dunyoda 240 millionga yaqin nogiron bolalar bor. Barcha bolalar singari, imkoniyati cheklangan bolalar ham o‘z kelajagiga intilish va orzularga ega. Barcha bolalar singari ular ham o‘z mahoratlarini rivojlantirish va o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun sifatli ta’limga muhtoj.

Shunga qaramay, nogiron bolalar ko'pincha siyosatni ishlab chiqishda e'tibordan chetda qolib, ularning ta'lim olish va ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlarini cheklaydi. Butun dunyo bo'ylab bu bolalar maktabga bormaslik ehtimoli yuqori. Ular kamsitish, stigma va qaror qabul qiluvchilarning nogironlikni maktab xizmatlariga qo'shishda muntazam muvaffaqiyatsizligi tufayli ta'lim yo'lidagi doimiy to'siqlarga duch kelishmoqda.

Nogironlik butun dunyo bo‘ylab ta’lim olishdagi eng jiddiy to‘siqlardan biridir. Ta'lim olish huquqidan mahrum bo'lgan nogiron bolalar ko'pincha o'z jamoalarida, ishchi kuchida va ularga eng ko'p ta'sir qiladigan qarorlarda ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'lishadi. Inklyuziv ta’lim barcha bolalarga maktabga borish, o‘rganish va rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun adolatli imkoniyat berishning eng samarali usuli hisoblanadi. Nogiron bolalar uchun ta'limdagi tafovutni bartaraf etish uchun UNICEF hukumatning inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish va monitoring qilish bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Bizning ishimiz to'rtta asosiy yo'nalishga qaratilgan:

Advokatlik: UNICEF siyosatchilar va keng jamoatchilikka qaratilgan muhokamalar, yuqori darajadagi tadbirlar va targ‘ibotning boshqa shakllarida inklyuziv ta’limni targ‘ib qiladi.

Ogohlikni oshirish: UNICEF tadqiqot o‘tkazish va davlat hamkorlari uchun davra suhbatlari, seminarlar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish orqali nogiron bolalarning ehtiyojlariga e’tibor qaratadi.

Imkoniyatlarni oshirish: UNICEF o'qituvchilar, ma'murlar va jamoalarni o'qitish va hukumatlarga texnik yordam ko'rsatish orqali hamkor mamlakatlarda ta'lim tizimlari salohiyatini oshiradi.

Amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash: UNICEF siyosat va amaliyot o‘rtasidagi tatbiq tafovutini bartaraf etish uchun hamkor mamlakatlarda monitoring va baholashda yordam beradi.

Nogironligi bo'lgan odamlarni kundalik faoliyatga qo'shish jismoniy, muloqot va munosabat kabi to'siqlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan amaliyot va siyosatlarni o'z ichiga oladi, bu esa nogironlar kabi shaxslarning jamiyatda to'liq ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi. Inklyuziya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Boshqalardan adolatli munosabatda bo'lish (diskriminatsiya qilmaslik);
- Mahsulotlar, aloqa vositalari va jismoniy muhitni iloji boricha ko'proq odamlar foydalanishi mumkin qilish (universal dizayn);
- Nogironligi bo'lgan shaxsga ulardan maksimal darajada foydalanishga imkon beradigan narsalar, protseduralar yoki tizimlarni o'zgartirish (oqilona turar joy) va

nogiron odamlarning nosog'lom yoki biror narsa qilishga qodir emasligi haqidagi ishonchni yo'q qilish (stigma, stereotiplar).

Nogiron bolalar va ularning oilalari uchun turli xil sog'liqni saqlash dasturlari va xizmatlari mavjud. Qachonki mavjud va yetarli darajada sifatli bo'lsa, ushbu dastur va xizmatlar nogiron bolalar va ularning oilalariga hayotiy yordam beradi va optimal yaqin va uzoq muddatli natijalarga erishish istiqbollarini oshiradi. Bolalar o‘rtasida aqliy salomatlik buzilishi, jismoniy va ruhiy salomatlik holatining tez-tez birga bo‘lishi va mavjud ruhiy salomatlik xizmatlarining cheklanishi tufayli nogironlikning yuqori tarqalishi ruhiy salomatlik xizmatlarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish va aqliy integratsiyani kuchaytirish bo‘yicha jiddiy ishlarni talab qiladi. Nogiron bolalarning sog‘lig‘i, faoliyati va farovonligini optimallashtirish, shu bilan birga ularning o‘z uylarida yashashlari va jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish uchun kasana va jamoat xizmatlari juda muhimdir.

Nogironlar uchun xavfsiz va qulay uy yaratish ularning jismoniy va hissiy farovonligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Bunday muhit shaxsning alohida ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan bo'lishi kerak, shu bilan birga ularga munosib va mustaqil hayot kechirishi uchun zarur yordam va resurslarni taqdim etishi kerak. Nogiron bolalar uchun dasturlar va xizmatlar uchun dalil bazasini ish bilan

ta'minlash, mustaqil hayot va o'zini o'zi ta'minlashga qaratilgan oldingi va hozirgi yo'nalishlaridan tashqari ko'rgazmali loyihalarini kengaytirish va boshqa federal idoralar bilan hamkorlik orqali yaxshilash imkoniyatiga ega. nogiron bolalarga xizmat ko'rsatadigan.

REFERENCES

1. Kameron, D. L. va B. G. Kuk. 2007. Infuzion tayyorlash dasturiga kiritilgan o'qituvchilarning aqliy zaifligi bo'lgan talabalarni rejalashtirish va joylashtirishga munosabati. Rivojlanish nogironligi bo'yicha ta'lim va ta'lim 42 (3): 353-363.
2. Devis, M. va N. Koroloff. 2006. Katta bo'linish: Qanday qilib ruhiy salomatlik siyosati yoshlarni muvaffaqiyatsizlikka uchratadi. Bolalar va o'smirlar uchun jamiyatga asoslangan ruhiy salomatlik xizmatlari bo'yicha tadqiqotlar.
3. W. J. Fisher tomonidan tahrirlangan. Bingley, Buyuk Britaniya: Emerald Group Publishing Limited. Pp. 53–74.

BOLALARGA NISBATAN ZO’RAVONLIK MUAMMOSI

Nargis Yuldashevna Razzakova
O’zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti, Ijtimoiy ish kafedrasi o’qituvchisi
e-mail: nargisrazzakova2020@gmail.com

Zilola Ulug’bek qizi Ergasheva
O’zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti, “Ijtimoiy ish Oila va bolalar bilan ishlash” sirtqi 2-bosqich talabasi

ANNATATSIYA:

Mazkur mavzudagi maqola mualliflar tomonidan to’liq va atroflicha yoritib berilgan. Bunda jamiyatimizda muhim sanalgan voyaga yetmagan o’g’il-qizlarimizga nisbatan o’z oilasida, yon-atrofida, o’qish jarayonida, umuman, jamiyatda turli ko’rinishda tazyiq va zo’ravonlik bo’yicha ilmiy yondashuvlar ta’kidlangan. Bolalarni zo’ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari, bolalarni zo’ravonlikdan himoya qilishga mas’ul davlat organlari va tashkilotlar, ularning vakolatlari mavjudligi haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so’zlar: Jamiyat, bolalar, bolalarga nisbatan zo’ravonlik, yoshlar, yoshlarni qo’llab-quvvatlash, inson, mahalla, loyiha, tadqiqot.

ANNOTATION:

The article on this topic is fully and comprehensively covered by the authors. In this regard, scientific approaches to harassment and violence in their family, side by side, in the process of study, in society as a whole, in different ways, are emphasized in relation to our underage boys and girls, which are considered important in our society. The main directions of state policy in the field of protection of children from violence, state bodies and organizations aimed at protecting children from violence, the presence of their powers have been commented on.

Keywords: Society, Children, Child Abuse, youth, youth support, human, Neighborhood, Project, research.

Jahonning ko’pgina mamlakatlarida xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo’ravonlik holatlari alohida toifaga kiritiladi. Chunki bunday holatlarning oldini olish ham, ularning oqibatlarini bartaraf etish ham o’ziga xos farqli jihatlarga ega. Ekspertlarning fikricha, uy sharoitidagi zo’ravonlik va oilaviy zo’ravonlik bu noxush vaziyatlarning shunday bir turiki, ularga ayollar va bolalar erkaklarga nisbatan ko’proq duch keladilar. Boisi oddiy – ular aynan ayol, yosh va ishonuvchan bolalar bo’lganliklari uchun ko’p hollarda zo’ravonlik qurbonlariga aylanadilar.

Bolalarga nisbatan zo’ravonlik, 18 yoshgacha bo’lgan odamlarga nisbatan ota-onalar yoki boshqa vasiylari, tengdoshlari yoki begonalar tomonidan qilinadigan zo’ravonlikning barcha turlarini o’z ichiga oladi.

Dunyo bo’yicha o’tgan yili 2-17 yoshgacha bo’lgan 1 milliardgacha bolalar jismoniy, jinsiy yoki ruxiy zo’ravonlikka uchragan yoki e’tiborsiz qoldirilgan. Bolalik davrida o’tkazilgan zo’ravonlik butun hayot davomida sog’liq va farovonlikka ta’sir qiladi.

Dunyo bo’ylab har to’rt boladan biri zo’ravonlikka duchor bo’ladi va har besh daqiqada bir bola uning turli shakllari tufayli vafot etadi. Voqealarni erta aniqlash, ishonch telefonlari va maktablar zo’ravonlikka qarshi kurashda samarali ekanligi isbotlangan. Yo’naltirish mexanizmi bolalarni himoya qilish tizimini mustahkamlashning muhim boshlang’ich nuqtasi bo’lib, bolalarga nisbatan zo’ravonlikning oldini olish, aniqlash va ularga qarshi kurashishda ta’lim, sog’liqni saqlash, ijtimoiy himoya va adliya sohalari mutaxassislarining roli va mas’uliyatini aniq belgilashi kerak.

Hozirda O’zbekistonda UNICEF zo’ravonlik holatlarining oldini olish va ularga qarshi kurashish sohasidagi davlat tuzilmalarining sa’y-harakatlarini qo’llab-quvvatlamoqda. Masalan, Sog’liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda olib borilgan ishlar natijasida butun mamlakat bo’ylab 50 000 nafar tibbiy tashrif buyuruvchi hamshiralar oilalarni ziyorat qilish uchun zarur ko’nikma va materiallarga ega bo’lib, ular boshqa narsalar qatorida bola tarbiyasini qo’llab-quvvatlash, bolalarning qarovsizligi va jismoniy zo’ravonlik holatlarini aniqlashlari mumkin.

UNICEF, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining Ta’lim va sog’liqni saqlash kotibiyatining yangi Bolalarni himoya qilish sektori, Milliy bolalar komissiyasi va Bolalar ombudsmanı bilan hamkorlikda bolalarga nisbatan zo’ravonlik holatlarini aniqlash va ularga javob berish bo’yicha standart tartiblarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishlamoqda.

Bundan tashqari, UNICEF mamlakatda oilalar ehtiyojlarini yahlit ko’rib chiqish, xavflarni aniqlash va ularni har tomonlama qo’llab-quvvatlash uchun tegishli xizmatlar bilan bog’laydigan ishlarni boshqarish tizimini joriy etishda yordam bermoqda[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Tarixning burilish pallalarida jamiyat poydevori bo’lgan oila va uning taqdiri haqida ana shunday umumlashmalar va tadqiqotlar yaratishga urinish bo’yicha juda ko’p misollar bor bo’lib, bu borada jadid ma’rifatparvarlarining xizmatlarini alohida aytib o’tishga to’g’ri keladi. Jadidchilik namoyandalari inson va mamlakat taqdiri, ularning kelajakda yutuq va yoki baxtsizligi, yuksalishi yoki tanazzuli oilaviy muhit bilan uzviy bog’liqligini chuqur his etdilar hamda oilaning jamiyatda tutgan mavqei, oila tarbiyasi va ma’naviyati xususida ilmiy tadqiqotlar yaratishga kirishdilar, badiiy asarlarida bu dolzarb masalaga alohida e’tibor qaratdilar.[2]

Entoni Giddens esa “Oila yosh avlod uchun jamiyat, undagi madaniyatning tipi qanday bo’lishiga qaramay, uning himoyasi va o’zaro turmush imkonini yaratuvchi ijtimoiy muhit” tarzida hisoblagan[3].

Jadidchilik namoyandalari Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar tomonidan e’lon qilingan bir qator maqolalarda jamiyatning mahnaviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog’liqligi atroflicha tahlil etildi. Ma’rifatchilar shundan kelib chiqib, jamiyat taqdiri oilalar muhitiga bog’liq bo’lsa, oila ma’naviyatining o’zi kimga yoki nimaga bog’liq, degan haqli savolni o’rtaga qo’ydilar. Ularning fikricha, agar oilada sog’lom turmush tarzi ustuvor bo’lib, farzand har jihatdan to’g’ri tarbiya topgan bo’lsa, u shubhasiz o’zidagi ijobiy fazilatlarni xizmat jarayoniga ko’chiradi, ijtimoiy mehnat faoliyatida qo’llaydi, natijada jamiyatdagi barcha munosabatlarga ta’sir o’tkazadi. Binobarin, oilaning go’zal odob-axloq, xushmuomalalik, samimiylik, mehnatsevarlik, ilm-ma’rifatga hurmat asosiga qurilgan bo’lishi g’oyat muhim masala bo’lib, bu ijtimoiy munosabatlarga muntazam ta’sir etib, unga kuch-quvvat berib turuvchi yagona omilga aylanadi. Tarbiya ko’rgan shaxsning yurish-turishi, madaniy muomalasi, go’zal xulq-atvori jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar xarakteriga ta’sir eta borib, Farobiy aytganidek, fozil odamlar jamoasining shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Bu o’rinda, ayniqsa, Mahmudxo’ja Behbudiyning “Sag’irlar haqinda”, “Hifzi sihati oila” (“Oila sog’lig’ining himoyasi”), Abdusalom Azimiyning “Ta’lim va tarbiya”, Ibratning “Millatni kim isloh etar?”, Abdurauf Fitratning “Buxoro hukumatining islohkorona qadamlari”, Mirmuhsinning “Ahvoli zorimiz” kabi “Oyina” jurnalida chop etilgan maqolalari oila tarbiyasiga oid muhim muammolarni ko’tarib chiqqanini ta’kidlash zarur.[4] Jumladan, A. Azimiyning “Ta’lim va tarbiya” maqolasidan shunday satrlarni o’qiymiz: “… bolaga ona birinchi omil va murabbiydir. Onani ta’siri bolaga, otani ta’siridan ziyodadur. Chunki, ona bolani bir necha oylar qani birla ozig’landurur. Va tavallud sanalarcha suti birla parvarish etar. Va muddatlarcha og’ushi mushfiqonasiga tarbiya etar. Bu sababli bola ona tarbiyasida bo’lg’usi ovonlarda muhitiga muvofiq holda tabiatlanur, ki bul tabiat va odat agar nomahqul holda bo’lunsa katta bo’lganidan so’ng islohi mushkuldir”.

Jadidchi ma’rifatchilar yangi davr va yangi tuzum uchun kurashni, eng avvalo, oilani isloh qilishdan boshlamoq zarur, deb hisobladilar. Ularning fikricha, oila asosini to’g’ri qurmay turib va yosh avlodni to’laqonli to’g’ri yo’lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo’naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog’liq.[5] Bu g’oya, tadqiqotchi D. Alimova to’g’ri belgilganidek, Fitratning 1915 yilda e’lon qilgan “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” asarida o’z ifodasini topdi. Fitrat nuqtai nazariga ko’ra, farzandning har jihatdan to’laqonli inson bo’lib shakllanishi uchun unga jismoniy, aqliy va ma’naviy yo’nalishlarda ko’p tarkibli tarbiya berish lozim bo’ladi. Muallif bu o’rinda

yuqoridagilar bilan kifoyalanmay, bola ruhi ham tarbiyalanishga muhtoj ekanligini alohida uqtiradi: “Odamning fe’l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash lozim, – deb yozadi olim. Bolalarni o’ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o’z qadr-qimmati, shaxsini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shuning bilan birga, yon atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o’rgatmoq kerak. Bolalarni shunday tarbiya etmoq lozimki, baxtga bo’lgan intilishlari hech qachon xazon bo’lmasin, so’nmasin, balki ko’karsin”.[6]

Tadqiqot metodologiyasi

Oilalarda shaxslar omillarini aro munosabatlarni o’rganish bo’yicha olib borilgan izlanishlarimiz davomida tadqiqot metodologiyasining tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash kabi usullar qo’llanilgan. Natijada, mamlakatimiz aholisi orasida turli nizo va oilaga salbiy ta’sir qiluvchi manbalardan saqlashda avvalambor, xalqning turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni yanada qo’llab-quvvatlash hamda oiladagi vaziyatni barqarorlashtirishga doir ishlar tahlili ilmiy xulosalar shakllantirishga asos bo’ldi.

Eng diqqatga sazovori ota-onalarning farzand tarbiyasiga oid ijobiy ko’nikmalarini shakllantirish masalalariga bag’ishlangan tadqiqot ishi bo’lsa kerak.

Loyihaning maqsadi o’smirlar, yoshlar, yosh ota-onalar bilan ularning ibratli ota-onalik ko’nikmalariga oid bilimlarini rivojlantirish bo’yicha ishlar samaradorligini oshirish; ota-onalar bilan nogironligi bo’lgan farzandlarni to’g’ri parvarishlash va tarbiyalash bo’yicha metodik hamda amaliy qo’llanmalarni ishlab chiqish; bolalar va yoshlar uchun oila, madaniyat va tarbiya masalalari bo’yicha o’quv dasturlarini tayyorlash va joriy qilishdan iborat.

Loyiha oldiga quyidagi dolzarb vazifalar qo’yildi:

- ota-onalarning ibratli ota-ona ko’nikmalari tizimini ishlab chiqish;
- ota-onalarning farzand tarbiyasi uchun zarur bo’lgan ilmiy, tibbiy, ijtimoiy, ma’naviy-ahloqiy bilim, ko’nikma, malaka va kompetentsiyalarini rivojlantirish;
- an’anaviy oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlikni yo’lga qo’yish;
- tadqiqot mavzusiga oid xorijiy va milliy tajribani o’rganish, nazariy mahlumotlarni to’plash;
- mavzu doirasida anketa so’rovlari ishlab chiqish;
- o’quvchi yoshlar, talabalar, yosh ota-onalar, “innovatsion maktab” tinglovchilari o’rtasida davra suhbatlari, anketa so’rovlari o’tkazish;
- tadqiqot komponentlari doirasida yangi yondashuvlar ishlab chiqish va uni o’quv kurslarda joriy etish;
- tadqiqot natijasi bo’yicha uslubiy qo’llanma, yo’riqnoma va amaliy tavsiyalar tayyorlash va b.

Ibratli ota-onalik ko’nikmalari tizimini ishlab chiqishga oid tadqiqot yuzasidan o’tkazilgan so’rovnomalarda jami 550 **nafarga yaqin** respondent ishtirok etdi.

So’rovnomalar Professor-o’qituvchilar va tinglovchi talabalar orasida o’tkazildi.

Respondentlar ibratli ota-onalik ko’nikmalari sifatida eng ahamiyatli deb quyidagilarni belgilashgan:

3. Farzandning ma’naviy-ahloqiy tarbiyasi – 24%
4. Bolani shaxs sifatida shakllantirish – 13%
5. Bolaning ijtimoiylashuviga yordam berish – 10 %
6. Farzandlar uchun ibrat bo’lish – 9 %
7. Bolaning qarorini xurmat qilish – 12 %
8. Bolalarda optimizmni tarbiyalash –7 %
9. Bolalar uchun oilada ruhiy komfort muhit yaratish – 6%
10. Bolalarga kitob mutolaasini o’rgatish – 5 %
11. Bolalarni zararli odat, ma’naviy tahdidlardan himoya qilish – 9 %
12. Bola bilan do’stlashish – 5 %.

Oilaning pedagogik potentsialiga nimalar kiradi? degan savolga eng ko’p javoblar quyidagilarni tashkil etdi:

4. Farzandning ma’naviy-ahloqiy tarbiyasi (47%)
5. Farzandning ijobiy xulqini shakllantirish (29%)
6. Farzandni jamiyatda faoliyat olib borish uchun kerakli bo’lgan ijtimoiy kompetentsiyalarni shakllantirish (24%).

Ota-ona sifatida farzand tarbiyasiga oid qaysi bilimlarga ehtiyoj sezasiz? degan savolga quyidagi javoblar bo’ldi:

4. Ma’naviy-ahloqiy bilimlar – 27 %
5. Psixologik bilimlar – 12 %
6. Tibbiy bilimlar – 15 %
7. Pedagogik bilimlar – 9 %
8. Zamonaviy ahborot texnologiyalariga oid bilim va ko’nikmalar – 16 %
9. Muomala madaniyati, ritorikaga oid bilimlar – 8 %
10. Yosh davrlariga oid akmeologik bilimlar, o’smir yoshdagi bolalarni tarbiya qilish metodikasi – 13 %.

Ushbu sotsiologik so’rovnomalar “Ibratli ota-onalik ko’nikmalarini shakllantirish” mavzusida uslubiy qo’llanma yaratishga asos bo’ladi.

Xulosa

Ma’lumki, farzand tarbiyasida uning yoshi, jinsi, xarakter hususiyatlari, qiziqishlari kabi omillar e’tiborga olinadi. Tarbiya chuqur hissiyotlarni yuzaga keltiradigan mavzu bo’lib, muhim masalalarni ko’taradi hamda har bir oila uchun o’ziga xos sanaladi. Turli insonlar uchun bolalar tarbiyasi turli narsalarni anglatadi.

Farzandlarning xulqiga e’tibor berish juda zarur. Ota-onalar o’z farzandlarining ijobiy fazilatlarini oldindan ko’ra olishlari kerak. *“Odamga bolalikdan singdirilgan odatlar yosh daraxt tanasiga o’yib yozilgan harflarga o’xshaydiki, ular daraxt bilan birga o’sadi, voyaga yetadi daraxtning tarkibiy qismiga aylanib qoladi”, deydi* **Viktor Gyugo. [7]**Ota-onalar qancha ko’p tanbeh bersalar, yomon axloq shuncha ko’p takrorlanadi. Ular ko’plab tanbeh olishganda bolalar o’zini yomon tutishi kerak bo’lgan yomon bola sifatida tushinishni boshlaydilar. Shunday tarzda ular o’z xulqlarini tuzatish uchun motivatsiyani his qilmaydilar. Ota-onalar bilishadiki, eng samarali yondashuv o’z bolalarining yaxshi sifatlarini tan olish va e’tirof etish hisoblanadi. Buni bajarish uchun barcha imkoniyatni ishga solishga to’g’ri keladi, shunda tezda farzandlaringiz xulqi yaxshilanganligini sezasiz.

“Ko’rilayotgan barcha chora-tadbirlar bilan bir qatorda ijtimoiy ishchilar institutini mustahkamlash va ushbu muammoni tizimli hal etish uchun butun jamiyatni safarbar etish zarur”dir.

REFERENCES

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag’allikni qisqartirish bo’yicha davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlari to’g’risida” PF-29-son farmoni. 03.12.2021 yil. htt’s://lex.uz.
2. Fitrat A., Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000; Oyina. – Toshkent: Akademiya, 2001.
3. Giddens E. Sotsiologi. nashriyot -matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent: “Sharq” 2002.
4. Oyina. – Toshkent: Akademiya, 2001, 41–49-betlar.
5. Alimova D. Oila poydevori haqida risola (asarning ikkinchi nashriga kirish so’zi). Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000, 4-b.
6. Fitrat A., Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000; Oyina. – Toshkent: Akademiya, 2001.
7. Дармодехин С.В. Семья в системе социальных отношений современного общества.-М.:«Нашриёт номи» 2008. -№3.С.159; Основы социальной работы. Отв.ред. П.Д.Павленок. -2-е изд., испр. и доп.-М.:«ИНФРА». 2003. -С.395.

O‘ZBEKISTONDA MEDIATSIYANI QO‘LLASH VA MEDIATSIYA TARTIB-TAOMILINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY JIHATLARI

Doniyor Majid o‘g‘li Teshayev
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
doniyorteshayev1994@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada oilaviy nizolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mediatsiya instituti va uni tashkiliy-huquqiy asoslari haqida ma’lumot keltirilgan bo‘lib, mediatsiyani qo‘llash tamoyillari va afzalliklari yoritib berilgan. Shuningdek, mediatorlar tayyorlash jarayonlari va mediatorlar faoliyatiga doir taklif va tavsiyalar keltirilgan.

